UniScience Journal

JOURNALS & BOOKS
ACADEMIC SCIENCE PUBLISHING

INTERNATIONAL SCIENTIFIC
AND PRACTICAL CONFERENCE

GLOBAL SCIENCE & PRACTICE 2026: NEW HORIZONS

CONFERENCE PROCEEDINGS



October 27, 2026
Tashkent
academscience.com

Google Scholar | zenodo | OpenAIRE

Academic Research Publisher (United Kingdom)

UniScience journal (Republic of Uzbekistan)

Hamroh books (Uzbekistan)

****

MATERIALS

The international scientific-practical conference

«GLOBAL SCIENCE & PRACTICE 2026: NEW HORIZONS»

Tashkent, London

October 27, 2026

****

Global science & practice 2026: New horizons // Materials International Scientific-Practical Conference. Tashkent-London. October 27, 2026.

Editorial board of the conference

Temnova L.V. - DSc, Professor (Moscow, Russia); **Sagatbayev Y.N. -** PhD, professor (Astana, Kazakhstan); **Duyshenaliev CH.D. -** DSc, Professor (Bishkek, Kyrgyzstan); **Pashkov S.V. -** PhD, professor (Petropavlovsk, Kazakhstan); **Khakimov K.A. -** PhD, docent (Tashkent, Uzbekistan); **Melekoglu M. -** DSc, professor (Eskisehir, Turkey); **Jurayev J.** - PhD, docent (Samarkand, Uzbekistan); **Azimov S.** -PhD, docent (Tashkent, Uzbekistan); **Shonazarov J.** -PhD, docent (Qarshi, Uzbekistan); **Gapparov B.** - Docent, (Jizzakh, Uzbekistan); **Qo'shayev T**. - Teacher, (Termiz, Uzbekistan); **Arifxodjayeva L**. - Teacher, (Tashkent, Uzbekstan)

The event aims to discuss contemporary research across various scientific fields, exchange new scientific ideas, and support scientific activities aligned with global innovative processes.

Within the conference framework, scientists, researchers, young scholars, and practicing specialists will have the opportunity to present their research findings, exchange scientific ideas, and expand international collaboration.

The main objective of this International Scientific-Practical Conference is to consolidate the results of contemporary research across various scientific fields and strengthen the integration of science and practice through advanced scientific approaches.

**The authors are responsible for the content of the articles, the information, facts, and figures presented therein.*

The proceedings of the International Scientific-Practical Conference have been discussed by the Scientific-Technical Council of the international publisher „**ACADEMIC SCIENCE PUBLISHING**“ and recommended for publication (**October 26**, 2026, Protocol No. **46**).

CONTENTS

1. EXACT AND NATURAL SCIENCES 9

MIRZACHO‘L VOHASI MALAKOFAUNASINI O‘RGANILISH TARIXI VA HOZIRGI HOLATI 10

MULTIPHYSICS MAPPING OF TRANSPORT–TRANSFORMATION–STRESS COUPLING IN LAYERED P2-$Na_{0.6}MnO_2$ FOR AQUEOUS ZINC STORAGE 16

CHIZIQLI FUNKSIYALAR YORDAMIDA KUNDALIK JARAYONLARNI MATEMATIK MODELLASHTIRISH 20

O‘ZBEKISTONDA TARQALGAN ENDEM VA KAMYOB TURLARNI BIOIQLIMIY MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI 24

EFFECT OF THE RADIAL WARP PROFILE SHAPE ON THE MORPHOLOGICAL INDEX OF S AND S0 GALAXIES 30

FIZIKA TA’LIMIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI VA GAMIFIKATSIYA VOSITALARINI INTEGRATSIYA QILISH ORQALI O‘QUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH 35

2. INFORMATION TECHNOLOGY AND ENGINEERING 42

GIDROTEXNIK INSHOOTLAR AVARIYASI SHAROITIDA AHOLINI EVAKUATSIYA QILISH MARSHRUTLARINI GEOAXBOROT TIZIMLARI ASOSIDA MATEMATIK MODELLASHTIRISH (SARDOBA SUV OMBORI MISOLIDA) 43

ВОЗМОЖНОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА, 3D-ВИЗУАЛИЗАЦИИ И VR/AR В ФОРМИРОВАНИИ ДИАГНОСТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У ОБУЧАЮЩИХСЯ ПРИ ИЗУЧЕНИИ РЕДКИХ ЗАБОЛЕВАНИЙ (НА ПРИМЕРЕ СИНДРОМА МАРФАНА) 53

ZAMONAVIY MUHANDISLIKDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O’RNI VA INTEGRATSIYASI 69

DARS JADVALINI TUZUVCHI GENETIK ALGORITMDA MUTATSIYA EHTIMOLINI ADAPTIV BOSHQARISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH 73

GEN AI VOSITALARI ORQALI KIBERXAVFSIZLIK TALABALARIDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH 79

3. MEDICINE AND HEALTHCARE 86

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕПЛОВОЙ РАБОТЫ РЕКУПЕРАТИВНЫХ ВОЗДУХАНАГРЕВАТЕЛЕЙ С ЦЕЛЬЮ ПОВЫШЕНИЯ ИХ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ 87

CLINICAL AND FUNCTIONAL FEATURES AND RISK FACTORS OF PERI-IMPLANTITIS IN PATIENTS 96

КАЛЛА-БОШ МИЯ ЖАРОҲАТИНИНГ ТУРЛИ ДАВРЛАРИДАГИ ЭШИТИШ ҚОБИЛИЯТИ БУЗИЛИШЛАРИНИНГ АУДИОЛОГИК АХАМИЯТИ.....104

КОРРЕКЦИЯ ДЫХАТЕЛЬНО-ГОЛОСОВОЙ КООРДИНАЦИИ У ДЕТЕЙ С ДИЗАРТРИЕЙ 107

HORMONAL CHANGES OF PUBERTY AND INFLAMMATORY PERIODONTAL DISEASES IN ADOLESCENTS: THE ROLE OF DENTAL BIOFILM, BEHAVIORAL FACTORS AND EARLY DIAGNOSIS 111

ДИАГНОСТИЧЕСКАЯ ИНФОРМАТИВНОСТЬ КОМБИНИРОВАННОГО ЦИТОЛОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ ПРИ ГИПЕРПЛАЗИИ ЭНДОМЕТРИЯ В ПРЕМЕНОПАУЗЕ 120

МИКРОБИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ И АНТИБИОТИКОРЕЗИСТЕНТНОСТЬ ПАРОДОНТОПАТОГЕНОВ У ПАЦИЕНТОВ С ХРОНИЧЕСКОЙ ПОЧЕЧНОЙ НЕДОСТАТОЧНОСТЬЮ НА ФОНЕ КОМПЛЕКСНОЙ ФИТОТЕРАПИИ 127

ПАТОГЕНЕТИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ВЗАИМОСВЯЗИ ПАРОДОНТИТА И ХРОНИЧЕСКОЙ ПОЧЕЧНОЙ НЕДОСТАТОЧНОСТИ: РОЛЬ МЕСТНОГО ИММУНИТЕТА И МЕТАБОЛИЧЕСКИХ НАРУШЕНИЙ 134

ЦИТОЛОГИЧЕСКИЕ И ИММУНОЛОГИЧЕСКИЕ МАРКЕРЫ РЕГЕНЕРАЦИИ ТКАНЕЙ ПАРОДОНТА ПРИ КОМПЛЕКСНОЙ ТЕРАПИИ ПАРОДОНТИТА У ПАЦИЕНТОВ С ХРОНИЧЕСКОЙ ПОЧЕЧНОЙ НЕДОСТАТОЧНОСТЬЮ 141

4. ECONOMICS AND MANAGEMENT.....149

SIRKULYAR MODELNING QIYMATNI SAQLASH MEXANIZMLARI .150

OILA BOSHLIG‘I DAROMADIGA TA’SIR ETUVCHI IJTIMOIY-DEMOGRAFIK OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI 161

O‘ZBEKISTON TO‘QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA KORXONALARNING INNOVATSION FAOLIYATI HOLATI 167

QASHQADARYO VILOYATIDA ALOQA VA AXBOROTLASHTIRISH XIZMATLARI RIVOJLANISHINING HUDUDIY XUSUSIYATLARI VA TENDENSIYALARI 173

LIDERLARNING KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI 178

SURXONDARYO VILOYATIDA MINTAQAVIY INKLYUZIV IQTISODIY O‘SISHNI STATISTIK BAHOLASH 180

TIJORAT VA SERVIS LOGISTIKASIDA ZAMONAVIY RAQAMLI VA EKOLOGIK TENDENSIYALAR 185

ELEKTRON TIJORATDA YETKAZIB BERISH XIZMATLARI SAMARADORLIGINI INTEGRALLASHGAN RAQAMLI INDIKATORLAR ASOSIDA BAHOLASH: O‘ZBEKISTON UCHUN METODIK YONDASHUV 191

5. PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY 198

14–15 YOSHLI SPRINTERLARDA PLYOMETRIK TAYYORGARLIK SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI 199

14–15 YOSHLI QISQA MASOFAGA YUGURUVCHILARNING TEZKORLIGINI PLYOMETRIK MASHQLAR ORQALI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY VA METODIK ASOSLARI 203

ИГРОВЫЕ ПРИЁМЫ В КОРРЕКЦИИ МОТОРНОЙ АЛАЛИИ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА 210

SELF-DIRECTED LEARNING: DE FACTO EXISTENCE AND LEGAL NON-RECOGNITION 214

INKLYUZIV TA’LIMDA INDIVIDUAL VA DIFFERENSIAL YONDASHUVNING PEDAGOGIK AHAMIYATI 219

UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK DIAGNOSTIKANI TASHKIL ETISHNING ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA AMALIY AHAMIYATI 224

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA TALABALARNING TANQIDIY FIKRLASHI VA RAQAMLI SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISH USULLARI 229

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA YUQORI SINF O'QUVCHILARINING MUSTAQIL O'QUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI 236

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI PEDAGOGIK TAYYORLASHDA INNOVATSION LOYIHALASHNING METODIK IMKONIYATLARI 243

JURNALISTNING JONLI EFIR JARAYONIDAGI PSIXOLOGIK HOLATI: STRESS OMILLARI VA O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISH MEXANIZMLARI249

KO‘ZI OJIZLAR KUTUBXONALARIDA NOSTATSIONAR AXBOROT-KUTUBXONA XIZMATLARINI TASHKIL ETISH: MUAMMO VA YECHIMLAR.....258

SCORE DISTRIBUTION MONITORING IN AI-BASED JAPANESE SPEAKING ASSESSMENT: AN EXPLORATORY DATA-ENGINEERING PERSPECTIVE.....265

TALABALARDA MEDIAKOMPETENTLIKNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA SHAKLLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN YURTIMIZDA VA DUNYO MIQIYOSIDA OLIB BORILGAN ILMIY VA AMALIY IZLANISHLAR..267

STEREOMETRIK MASALALARINI YECHISHDA ZAMONAVIY RAQAMLI TEHNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI.....275

6. SOCIAL SCIENCES AND HUMANITIES 279

MEHNAT MIGRATSIYASINING KONSEPTUAL MUAMMOLARI.....280

WAYS TO ENSURE THE PARTICIPATION OF CIVIL SOCIETY INSTITUTIONS IN DECISION-MAKING PROCESSES AND IMPROVE THE EFFICIENCY OF PUBLIC CONTROL 286

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ И ОПЕРАЦИОНАЛЬНОЕ ОПРЕДЕЛЕНИЕ ПОНЯТИЯ СОЦИАЛЬНО-ДУХОВНОЙ СРЕДЫ 292

7. PHILOLOGY AND CULTURAL STUDIES.....307

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA «GUL/FLOWER» KOMPONENTLI OBRAZLI BIRLIKLARNING QIYOSIY-SEMANTIK VA TARJIMAVIY TAHLILI.....308

ЗНАЧЕНИЕ ЖАНРОВЫХ ТРАНСФОРМАЦИЙ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ СИСТЕМЕ СОВРЕМЕННОЙ РУССКОЙ ПРОЗЫ 319

ЧЕХОВСКИЙ ИНТЕРТЕКСТ В СОВРЕМЕННОЙ ДРАМАТУРГИИ: ТИПОЛОГИЯ ПО СТЕПЕНИ ЭКСПЛИЦИТНОСТИ И ФУНКЦИОНАЛЬНО-СМЫСЛОВОЙ НАПРАВЛЕННОСТИ 326

ТВОРЧЕСТВО В. ПЕЛЕВИНА В ЗЕРКАЛЕ СОВРЕМЕННОЙ ЛИТЕРАТУРНОЙ КРИТИКИ 331

TRANSPORT NOMLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI 337

O‘ZBEK TILIDAGI BAHSLI MATNLARNI AVTOMATIK TASNIFLASH VA MUALLIFNI LINGVISTIK PROFILLASH.....344

8. LAW AND PUBLIC ADMINISTRATION.....348

THE PARADOX OF DIGITAL EMPOWERMENT AND COGNITIVE DEPENDENCE IN HIGHER EDUCATION: CRITICAL THINKING AND EVIDENCE-BASED PEDAGOGY IN UZBEKISTAN.....349

ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОЗДУШНОГО ПРОСТРАНСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ДЛЯ ПОЛЁТОВ БЕСПИЛОТНЫХ ЛЕТАТЕЛЬНЫХ АППАРАТОВ.....356

МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ И НАЦИОНАЛЬНОЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО В СФЕРЕ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ И ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА НА ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЕ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН).....369

YOUTH POLICY IN UZBEKISTAN’S NEW STAGE OF DEVELOPMENT: THE INTERSECTION OF LEGAL CULTURE AND PUBLIC CONTROL 378

9. AGRICULTURE AND ECOLOGY 384

G‘O‘ZANI PARVARISHLASHDA TURLI XIL QATOR KENGLIKLARIDA KO‘CHAT QALINLIKLARI VA MINERAL O‘G‘ITLAR ME’YORINING HOSILDORLIKGA TA’SIRI BO‘YICHA OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR.....385

1. EXACT AND NATURAL SCIENCES

MIRZACHO‘L VOHASI MALAKOFAUNASINI O‘RGANILISH TARIXI VA HOZIRGI HOLATI

Abduraxmonova E’zoza Qaxramon qizi
Guliston davlat universiteti
Ezozaabduraxmonova839@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Mirzacho‘l vohasi quruqlik va chuchuk suv mollyuskalari (malakofaunasi)ni o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarning tarixiy bosqichlari, asosiy yo‘nalishlari va hozirgi holati batafsil tahlil qilingan. Vohaning o‘ziga xos ekologik sharoiti va antropogen omillar ta'sirida malakofauna tarkibida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, xususan, Hygramiidae, Enidae, Lymnaeidae va Planorbidae oilalari vakillarining tarqalish qonuniyatlari yoritilgan. Tadqiqotlar tahlili asosida malakofaunaning bioindikatorlik hamda parazitologik ahamiyati baholangan va kelgusidagi dolzarb vazifalar belgilab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Mirzacho‘l vohasi, malakofauna, quruqlik mollyuskalari, chuchuk suv mollyuskalari, Hygramiidae, parazitologiya, antropogen omillar, o‘rganilish tarixi, bioindikator.*

KIRISH

O‘zbekistonning markaziy qismida joylashgan Mirzacho‘l vohasi o‘zining iqlimiy, gidrologik va tuproq-o‘simlik qoplami xususiyatlari bilan ajralib turadigan o‘ziga xos tabiiy-geografik mintaqadir. O‘tgan asrning o‘rtalaridan boshlab voha yerlarining keng ko‘lamda o‘zlashtirilishi, sug‘orish tarmoqlarining barpo etilishi va agrolandshaftlarning shakllanishi hududning tabiiy ekotizimlarini tubdan o‘zgartirib yubordi. Bunday antropogen transformatsiya jarayonlari voha faunasi, xususan, umurtqasiz hayvonlarning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan mollyuskalar (Gastropoda, Bivalvia) jamoalariga ham bevosita ta'sir ko‘rsatdi.

Mollyuskalar (malakofauna) biogeotsenozlarda modda va energiya almashinuvida, tuproq hosil bo‘lish jarayonlarida faol ishtirok etadi. Shu bilan birga, ularning ko‘pchiligi qishloq xo‘jaligi ekinlarining zararkunandalari, shuningdek, odam va uy hayvonlarida xavfli gelmintoz kasalliklarini

qo‘zg‘atuvchi parazit chuvalchanglarning (trematodalar, nematodalar) oraliq xo‘jayinlari hisoblanadi. Shu bois, Mirzacho‘l vohasi malakofaunasining turlar tarkibini, ekologiyasi va dinamikasini o‘rganish ham fundamental zoologiya, ham amaliy qishloq xo‘jaligi hamda veterinariya uchun giddatda muhimdir.

I. MIRZACHO‘L VOHASI MALAKOFAUNASINI O‘RGANILISHINING TARIXIY BOSQICHLARI

O‘rta Osiyo, jumladan Mirzacho‘l hududi malakofaunasini o‘rganish tarixini shartli ravishda uchta asosiy davrga bo‘lish mumkin:

1.1. Dastlabki ekspeditsiyalar va faunistik qaydlar davri (XIX asr oxiri – XX asrning birinchi yarmi) O‘rta Osiyo mollyuskalarini tizimli o‘rganish Rossiya va Yevropa olimlarining mintaqaga qilgan dastlabki tabiiy-ilmiy ekspeditsiyalaridan boshlangan. A.P. Fedchenko (1870-1871 yillar): O‘rta Osiyoga qilgan sayohati davomida yig‘ilgan malakologik materiallar asosida voha va unga tutash hududlarning dastlabki turlar ro‘yxati shakllantirildi. Ushbu materiallar keyinchalik mashhur malakolog E. Martens (1874) tomonidan qayta ishlandi va nashr etildi. V.A. Lindgolm (1920-1930 yillar): O‘rta Osiyo quruqlik va chuchuk suv mollyuskalari sistematikasini mukammallashtirdi, bir qator yangi turlarni fanga kiritdi. Bu davrdagi tadqiqotlar asosan xarakterli hududlardan namunalar yig‘ish va ularni ta'riflash (faunistik-sistematik) bilan cheklangan bo‘lib, Mirzacho‘l vohasining bevosita cho‘l biotoplari faunasi haqida umumiy ma'lumotlar bergan.

1.2. Keng ko‘lamli o‘zlashtirish va ekologik-parazitologik tadqiqotlar davri (XX asrning ikkinchi yarmi) Mirzacho‘l yerlarining sug‘orilishi va cho‘lni o‘zlashtirish ishlarining boshlanishi bilan malakologik tadqiqotlar yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu davrda mollyuskalarni o‘rganish amaliy ehtiyojlar – qishloq xo‘jaligi zararkunandalariga qarshi kurash va chorvachilik parazitologiyasi bilan uzviy bog‘liq holda olib borildi. I.A. Shikov (1970-1980 yillar): Sug‘oriladigan yerlar malakofaunasini tadqiq etdi. A.A. Shileyko**:** O‘zining ko‘p jildlik monografiyalarida O‘rta Osiyo, xususan quruqlik mollyuskalarining sistematikasi, anatomiyasi va filogeniyasini mukammal tahlil qilib berdi. Vohadagi kanallar, kollektor-drenaj tarmoqlari va suv omborlarining chuchuk suv mollyuskalarini (parazitlar oraliq xo‘jayinlari sifatida) o‘rganish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirdilar.

1.3. Zamonaviy malakologik tadqiqotlar davri (XXI asr boshlaridan hozirgacha) Mustaqillik yillarida mahalliy olimlar tomonidan Mirzacho‘l va unga tutash hududlar malakofaunasini monitoring qilish, ekologik va populyatsion tahlil etishga e'tibor kuchaydi. Z.I. Izzatullayev va uning shogirdlari:

O‘zbekiston, shu jumladan Sirdaryo va Jizzax viloyatlari (Mirzacho‘l tizimi) chuchuk suv va quruqlik mollyuskalarining zamonaviy kadastrini tuzish, daryo havzalari bo‘yicha tarqalish xususiyatlarini aniqlash bo‘yicha tizimli tadqiqotlar olib bormoqdalar. H.T. Boymurodov, A.N. Pazilov: Quruqlik mollyuskalari (xususan *Hygramiidae, Enidae* oilalari) biologiyasi, ekologiyasi hamda agrolandshaftlardagi dinamikasini batafsil o‘rgandilar.

II MIRZACHO‘L VOHASI MALAKOFAUNASINING HOZIRGI HOLATI VA TURLAR XILMA-XILLIGI

Zamonaviy ma'lumotlarga ko‘ra, Mirzacho‘l vohasi va uning atrofidagi biotoplarda quruqlik va chuchuk suv mollyuskalarining 40 dan ortiq turlari qayd etilgan. Ekologik guruhlar bo‘yicha faunaning taqsimlanishi quyidagi dinamikani ko‘rsatadi:

2.1. Quruqlik mollyuskalari (Gastropoda: Pulmonata) Vohaning quruqlik malakofaunasi o‘zining qurg‘oqchil iqlimga moslashganligi bilan ajralib turadi. Etakchi o‘rinni *Hygramiidae, Enidae, Subulinidae* va *Succineidae* oilalari vakillari egallaydi.

Hygramiidae oilasi: Vohada eng keng tarqalgan guruh. Ayniqsa, *Leucozonella xeropicta, Xeropicta derbentina* va *Angiomphalia* urug‘iga mansub turlar sug‘orish kanallari yoqalari, bedazorlar va bog‘larda yuqori zichlikni (1 m² da 50-150 donagacha) hosil qiladi.

Enidae oilasi: *Pseudonapaeus* urug‘i vakillari ko‘proq vohaning tog‘oldi adirlari bilan tutashgan qismlarida uchraydi va qurg‘oqchilik davrida (estivatsiya) o‘simliklar poyasiga yopishib hayot kechiradi.

Zararkunanda turlar: Keyingi yillarda agrosenozlarda *Deroceras reticulatum* (shilliq qurt) kabi turlarning sabzavot va poliz ekinlariga salbiy ta'siri kuchayganligi kuzatilmoqda.

2.2. Chuchuk suv mollyuskalari (Gastropoda, Bivalvia) Mirzacho‘l hududidagi kollektorlar, sug‘orish ariqlari va Sirdaryo havzasiga tutash suv havzalarida chuchuk suv mollyuskalari keng tarqalgan.

Lymnaeidae (Prudoviklar): *Lymnaea (Galba) truncatula, Radix auricularia* turlari juda faol bo‘lib, ular ko‘p hollarda parazit trematodalarning asosiy oraliq xo‘jayini vazifasini o‘taydi.Planorbidae

(Katushkalar): *Planorbis planorbis* va *Anisus* urug‘i vakillari turg‘un va sekin oqadigan suvlarda ko‘p uchraydi.

Bivalvia (Ikki pallalilar): *Corbicula fluminalis* va *Pisidium* turlari kanallarning qumli-loyqa tubida filtratorlik funksiyasini bajarib, suvning biologik tozalanishida qatnashadi.

Jadval 1. Mirzacho‘l vohasidagi yetakchi mollyuska oilalarining biotoplar bo‘yicha taqsimlanishi

1	**Mollyuska oilalari**	**Asosiy vakillari**	**Afzal ko‘radigan biotoplari**	**Xo‘jalik / Ekologik ahamiyati**
1	**Hygramiidae**	*Leucozonella xeropicta, Xeropicta derbentina*	Agrotsenozlar, ariq bo‘ylari, bedazorlar	Ekinlarga qisman zarar, tuproq biomassa shakllanishi
2	**Enidae**	*Pseudonapaeus* turlari	Adirlar, chala cho‘l zonalar	Biotsenoz balansi, qurg‘oqchilikka moslashuv
3	**Lymnaeidae**	*Lymnaea truncatula, Radix bactriana*	Kollektorlar, turg‘un suvlar, ariqlar	**Fasciola hepatica** (jigar qurti) oraliq xo‘jayini
4	**Planorbidae**	*Planorbis planorbis, Anisus* turlari	Drenaj tarmoqlari, botqoqlangan joylar	Parazitlar tashuvchisi, bioindikator
5	**Corbiculidae**	*Corbicula fluminalis*	Sirdaryo havzasi, yirik kanallar	Suvni biologik filtrlash (tozalash)

III. ANTROPOGEN OMILLARNING MALAKOFAUNA DINAMIKASIGA TA'SIRI

Mirzacho‘lni intensiv ravishda o‘zlashtirish malakofauna tarkibining sifat va miqdor jihatidan o‘zgarishiga olib keldi:

Gidrologik tarmoqning kengayishi: Cho‘l hududida sun'iy kanallar va kollektorlarning ochilishi ilgari bu yerlarda yashay olmagan mezofil (namsevar) va gidrofil (suv) mollyuskalarining voha ichkarisiga kirib kelishi va keng tarqalishiga sharoit yaratdi.

Kimyoviy ifloslanish: Qishloq xo‘jaligida pestitsidlar, mineral o‘g‘itlar va defoliantlarning keng qo‘llanilishi, shuningdek, kollektor suvlari tarkibidagi tuz miqdorining ortishi sezgir mollyuska turlarining kamayishiga, chidamli (tolerant) turlarning esa keskin ko‘payib ketishiga sabab bo‘lmoqda.

Urbanizatsiya va agrolandshaftlar: Tabiiy cho‘l biotsenozlarining yo‘q bo‘lib ketishi natijasida faqat maxsus madaniy landshaftlarda yashashga moslashgan sinantrop va Evribiont turlar ustivorlik qilmoqda.

IV. VOHADA MOLLYUSKALARNING XO‘JALIK VA EKOLOGIK AHAMIYATI

Mirzacho‘l sharoitida mollyuskalarning xo‘jalik ahamiyati asosan ikki yo‘nalishda namoyon bo‘ladi:

4.1. Parazitologik va veterinariya ahamiyati: Vohada chorvachilik (qo‘ychilik, qoramolchilik) rivojlanganligini hisobga olsak, chuchuk suv mollyuskalari (ayniqsa *Lymnaea truncatula*) chorva mollari o‘rtasida fascioloz, dicrocelioz va paramfistomatoz kabi og‘ir gelmintoz kasalliklarini tarqatishda asosiy zanjir hisoblanadi. Mollyuskalar populyatsiyasining nazoratsiz ko‘payishi yaylovlarda chorva mollarining zararlanish darajasini oshirib, iqtisodiy zarar keltiradi.

4.2. Qishloq xo‘jaligi zararkunandalari sifatidagi o‘rni: Gidrotexnik inshootlar atrofidagi namlik yuqori bo‘lgan agrobiotsenozlarda *Xeropicta* va *Deroceras* jamoalari g‘o‘za, beda hamda sabzavot ekinlarining yosh nihollarini kemirib, ularga shikast yetkazadi.

4.3. Ekologik va bioindikatorlik ahamiyati:Ikki pallali mollyuskalar suv havz alarining organik ifloslanish darajasini (saproblik ko‘rsatkichlarini) aniqlashda muhim **bioindikator** hisoblanadi. Ularning qobig‘ida og‘ir metallar va tuzlarning to‘planishi (bioakkumulyatsiya) voha ekologik holatini monitoring qilish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, Mirzacho‘l vohasi malakofaunasini o‘rganish tarixi uzoq vaqt davomida asosan tavsifiy xarakterga ega bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda bu tadqiqotlar ekologik monitoring va amaliy parazitologiya muammolari bilan uzviy bog‘liqdir. Hozirgi kunda voha ekotizimlarining antropogen o‘zgarishi sharoitida mollyuskalarning populyatsion dinamikasini muntazam o‘rganish, qishloq xo‘jaligi va chorvachilikka zarar keltiruvchi turlarga qarshi ekologik xavfsiz kurash choralarini ishlab chiqish hamda bioindikator turlardan voha ekologik barqarorligini baholashda foydalanish zoologiya fanining eng dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Izzatullaev Z. I. Presnovodnie mollyuski Sredney Azii (sistematika, ekologiya, zoogeografiya i xozyaystvennoe znachenie): monografiya. — Tashkent: Nishon-Noshir, 2019. — 320 s.

2. Pazilov A. N., Azimov D. A. Nazemnie mollyuski (Gastropoda, Pulmonata) Uzbekistana i sopredelnix territoriy. — Tashkent: Fan, 2003. — 316 s.

3. Izzatullaev Z. I., Boymurodov X. T. Mirzacho‘l vohasi va unga tutash hududlar chuchuk suv va quruqlik mollyuskalari xilma-xilligi // O‘zbekiston biologiya jurnali. — Toshkent, 2008. — № 4. — B. 45–49.

4. Pazilov A. N., Gaibnazarova F. X. Ekologiya i raspredelenie nazemnix mollyuskov semeystva Hygramiidae (Mollusca, Gastropoda) v usloviyax Mirzachulskoy oazisa // Uzbekskiy biologicheskiy jurnal. — Tashkent, 2015. — № 2. — S. 38–41.

5. Boymurodov H. T. Biotsenoticheskaya rol i parazitologicheskoe znachenie mollyuskov v agrotsenozax Sirdarinskoy oblasti // Doklady Akademii nauk Respubliki Uzbekistan. — Tashkent, 2012. — № 5. — S. 89–92.

6. Izzatullaev Z., Kuchboev A. E. Mollyuski – promejutochie xozyayeva gelmintov jivotnix i cheloveka v Uzbekistane // Rossiyskiy parazitologicheskiy jurnal. — Moskva, 2016. — T. 35, vyp. 1. — S. 14–22.

MULTIPHYSICS MAPPING OF TRANSPORT–TRANSFORMATION–STRESS COUPLING IN LAYERED P2-$Na_{0.6}MnO_2$ FOR AQUEOUS ZINC STORAGE

Mo‘tabarova Iroda
Kimyo International University in Tashkent,
ORCID: 0009-0007-5744-5827
i.motabarova@kuit.uz

Abstract. *The thesis analyzes the coupling between ion transport, phase transformation and mechanical stress in a layered P2-$Na_{0.6}MnO_2$ cathode particle for aqueous zinc batteries using a spherical-particle model. Including stress-assisted diffusion raises material utilization of a 500 nm particle at 5C from 0.77 to 0.87 and lowers the peak tensile stress from 460 to 369 MPa. The results indicate that particle radii below 250 nm are preferable.*

Keywords: *P2-$Na_{0.6}MnO_2$, aqueous zinc battery, diffusion, chemo-mechanical stress, Jahn–Teller effect, multiphysics modelling.*

Annotatsiya. *Tezisda suvli rux akkumulyatorlari uchun qatlamli P2-$Na_{0.6}MnO_2$ katod zarrachasida ion tashilishi, faza o‘zgarishi va mexanik kuchlanishning o‘zaro bog‘liqligi sferik zarracha modeli yordamida tahlil qilingan. Kuchlanish ta’siridagi diffuziyani hisobga olish 500 nm li zarrachada 5C tezlikda material foydalanilishini 0,77 dan 0,87 gacha oshirib, cho‘zuvchi kuchlanish cho‘qqisini 460 dan 369 MPa gacha kamaytirdi. Natijalar zarracha o‘lchamini 250 nm dan kichik tanlash zarurligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *P2-$Na_{0.6}MnO_2$, suvli rux akkumulyatori, diffuziya, kimyoviy-mexanik kuchlanish, Yan–Teller effekti, multifizik modellashtirish.*

Аннотация. *В тезисе с помощью модели сферической частицы проанализирована взаимосвязь ионного транспорта, фазового превращения и механических напряжений в слоистом катоде P2-$Na_{0.6}MnO_2$ для водных цинковых аккумуляторов. Учёт диффузии, управляемой напряжениями, для частицы 500 нм при 5C повышает степень использования материала с 0,77 до 0,87 и снижает пиковое растягивающее напряжение с 460 до 369 МПа. Результаты указывают на целесообразность размера частиц менее 250 нм.*

Ключевые слова: *P2-$Na_{0.6}MnO_2$, водный цинковый аккумулятор, диффузия, химико-механические напряжения, эффект Яна–Теллера, мультифизическое моделирование.*

Introduction. Aqueous zinc-ion batteries are regarded as a safe and low-cost option for stationary energy storage, since they use non-flammable water-based electrolytes and abundant zinc. Manganese oxides are the most studied cathodes for these systems, yet their capacity fades because of Mn^{3+} disproportionation, Jahn–Teller (JT) distortion and structural collapse during repeated insertion of Zn^{2+} and H^+ [2–4]. Layered P2-type sodium manganese oxides, whose Na^+ ions occupy prismatic sites between MnO_2 slabs [1], offer wide interlayer channels and partially pre-stabilized structure. However, the processes that control their performance – ion diffusion, local transformation of the host and the mechanical stress generated by lattice expansion – act simultaneously and influence each other. The aim of this work is to map this coupling for a single P2-$Na_{0.6}MnO_2$ particle and to identify the operating windows in which transport limitation, transformation and fracture risk are minimized.

Methods. A spherical particle of radius R = 100–500 nm was considered under galvanostatic insertion at 0.5–10C. Guest-charge transport was described by Fick's law with a stress-dependent effective diffusivity $D_{eff} = D_0[1 + 2\Omega^2 Ec/(9RT(1-\nu))]$, which follows from the hydrostatic-stress contribution to the chemical potential [5; 7]. Diffusion-induced radial and tangential stresses were calculated with the analytical relations for an isotropic elastic sphere [6]. Model parameters were set at levels typical of layered manganese oxides: $D_0 = 1\cdot10^{-16}$ m^2/s, E = 100 GPa, ν = 0.3, partial molar volume $\Omega = 1.7\cdot10^{-6}$ m^3/mol and maximum guest concentration $2.5\cdot10^4$ mol/m^3 (≈0.6 e^- per Mn). Regions in which the local state of charge exceeds 0.5 were treated as JT-active, i.e. prone to transformation toward a distorted Mn^{3+}-rich phase. The equations were discretized by the finite-volume method on 80 radial shells and integrated with an implicit BDF solver until the surface concentration reached its limit. Each case was solved with and without stress–diffusion coupling.

Results and discussion. The main outputs of the model are given in the table.

Table. Model results for a P2-$Na_{0.6}MnO_2$ particle under galvanostatic insertion

Particle radius, nm	C-rate	Utilization, coupled / uncoupled	Peak tensile stress, MPa (coupled / uncoupled)	JT-active volume at 40 % mean SOC
250	1	0.99 / 0.99	23 / 23	0
250	5	0.97 / 0.94	106 / 117	0
250	10	0.94 / 0.88	200 / 234	0
500	1	0.97 / 0.95	86 / 94	0
500	2	0.95 / 0.91	163 / 187	0
500	5	0.87 / 0.77	369 / 460	0.24
500	10	0.72 / 0.58	665 / 678	0.36

For particles of 100 nm the concentration field remains almost uniform even at 10C: utilization stays above 0.98 and the peak tensile stress does not exceed 36 MPa. As the radius grows, the characteristic diffusion time R^2/D_0 increases quadratically and the transport limitation becomes dominant. For 500 nm particles at 10C only 72 % of the capacity is accessed before the surface saturates. In all cases the particle core is in tension and the surface in compression; the core tensile stress grows almost linearly with C-rate until utilization begins to fall. Stress–diffusion coupling acts as a self-regulating mechanism: compressive surface stress drives guest ions inward, flattens the concentration gradient and, for the 500 nm particle at 5C, raises utilization by 10 percentage points while reducing peak tension by about 20 %. The transformation map shows that at 40 % mean state of charge the JT-active region is absent for $R \leq 250$ nm but reaches 24–36 % of the particle volume for 500 nm at 5–10C. Such a sharp transformation front near the surface, combined with tensile stresses of hundreds of megapascals in the core, creates conditions for microcracking and fresh-surface Mn dissolution, consistent with the capacity fading reported for manganese cathodes [2; 4]. Similar size-dependent suppression of inhomogeneous transformation has been described for other insertion materials [8].

Conclusion. The multiphysics analysis shows that in P2-$Na_{0.6}MnO_2$ the three processes are strongly coupled and particle size is the main design parameter. Keeping the particle radius at or below 250 nm confines peak tensile stress to about 200 MPa even at 10C and prevents formation of a localized JT-active shell. Stress-assisted diffusion noticeably improves rate capability of larger particles but does not remove transformation heterogeneity. The proposed map can be used to select particle size and current density for aqueous zinc cells; its

parameters should be refined with GITT and in situ X-ray diffraction data for the specific material.

References

1. Delmas C., Fouassier C., Hagenmuller P. Structural classification and properties of the layered oxides // Physica B+C. – 1980. – Vol. 99, № 1–4. – P. 81–85.

2. Pan H., Shao Y., Yan P., et al. Reversible aqueous zinc/manganese oxide energy storage from conversion reactions // Nature Energy. – 2016. – Vol. 1. – Art. 16039.

3. Sun W., Wang F., Hou S., et al. Zn/MnO_2 battery chemistry with H^+ and Zn^{2+} coinsertion // Journal of the American Chemical Society. – 2017. – Vol. 139, № 29. – P. 9775–9778.

4. Zhang N., Cheng F., Liu J., et al. Rechargeable aqueous zinc-manganese dioxide batteries with high energy and power densities // Nature Communications. – 2017. – Vol. 8. – Art. 405.

5. Christensen J., Newman J. Stress generation and fracture in lithium insertion materials // Journal of Solid State Electrochemistry. – 2006. – Vol. 10, № 5. – P. 293–319.

6. Zhang X., Shyy W., Sastry A. M. Numerical simulation of intercalation-induced stress in Li-ion battery electrode particles // Journal of the Electrochemical Society. – 2007. – Vol. 154, № 10. – P. A910–A916.

7. Cheng Y.-T., Verbrugge M. W. Evolution of stress within a spherical insertion electrode particle under potentiostatic and galvanostatic operation // Journal of Power Sources. – 2009. – Vol. 190, № 2. – P. 453–460.

8. Bai P., Cogswell D. A., Bazant M. Z. Suppression of phase separation in $LiFePO_4$ nanoparticles during battery discharge // Nano Letters. – 2011. – Vol. 11, № 11. – P. 4890–4896.

CHIZIQLI FUNKSIYALAR YORDAMIDA KUNDALIK JARAYONLARNI MATEMATIK MODELLASHTIRISH

Ne‘matullayeva Sevinch Alisher qizi
Xalqaro NORDIC universiteti
sevinchnematullaeva064@gmail.com

Abstract. *This thesis examines the use of linear functions in mathematical modelling of everyday processes. Practical situations involving cost, distance, time and service payments can be represented using a linear function of the form y = ax + b. Using a comparison of mobile service tariffs as an example, the stages of constructing a mathematical model, performing calculations and interpreting the results are demonstrated. The analysis shows that linear functions provide a simple and effective mathematical tool for understanding real-life processes and supporting reasoned decision-making.*

Keywords: *mathematical modelling, linear function, mathematical model, algebra, applied problem, function, analysis.*

Annotatsiya. *Ushbu tezisda chiziqli funksiyalarning kundalik hayotdagi jarayonlarni matematik modellashtirishdagi o‘rni ko‘rib chiqiladi. Narx, masofa, vaqt va xizmatlar uchun to‘lov kabi sodda amaliy vaziyatlarni y = ax + b ko‘rinishidagi chiziqli funksiya yordamida ifodalash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Mobil aloqa tariflarini taqqoslash misolida matematik model tuzish, model asosida hisoblash va natijani amaliy jihatdan talqin qilish bosqichlari ko‘rsatiladi. Tahlil chiziqli funksiyalar real jarayonlarni tushuntirish va asoslangan qaror qabul qilish uchun sodda hamda qulay matematik vosita ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *matematik modellashtirish, chiziqli funksiya, matematik model, algebra, amaliy masala, funksiya, tahlil.*

Аннотация. *В тезисе рассматривается применение линейных функций при математическом моделировании процессов повседневной жизни. Анализируются возможности представления таких практических ситуаций, как стоимость, расстояние, время и оплата услуг, с помощью линейной функции вида y = ax + b. На примере сравнения тарифов мобильной связи показаны этапы построения математической модели, проведения расчётов и практической интерпретации полученных*

результатов. Показано, что линейные функции являются простым и эффективным инструментом для анализа реальных процессов и принятия обоснованных решений.

Ключевые слова: *математическое моделирование, линейная функция, математическая модель, алгебра, практическая задача, функция, анализ.*

Kirish

Matematik modellashtirish real hayotdagi obyekt, hodisa yoki jarayonlarning muhim xususiyatlarini matematik ifodalar yordamida tasvirlash imkonini beradi. Bunda real vaziyatning barcha xususiyatlari emas, balki tadqiqot maqsadi uchun muhim bo‘lgan omillar tanlab olinadi va ular o‘rtasidagi bog‘lanish matematik shaklda ifodalanadi. Matematik model real jarayonning soddalashtirilgan, ammo mantiqan izchil ko‘rinishi sifatida qaraladi [1].

Matematik modellashtirish fan, texnika, iqtisodiyot va ta’limda keng qo‘llanadi. Real jarayon matematik formulalar, tenglamalar, funksiyalar yoki algoritmlar yordamida tasvirlanishi mumkin. Modellashtirishning muhim jihati shundaki, u nafaqat hisoblash imkonini beradi, balki jarayonni tushunish, natijalarni oldindan baholash va turli variantlarni taqqoslash imkonini ham yaratadi. Ta’lim jarayonida modellashtirish o‘quvchiga masalada berilgan miqdorlar va ular o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlashga yordam beruvchi vosita sifatida ham qo‘llanadi [2].

Chiziqli funksiya matematik modellashtirishning eng sodda va keng qo‘llaniladigan vositalaridan biridir. U ko‘plab amaliy vaziyatlarda bir miqdorning ikkinchi miqdorga doimiy tezlikda bog‘lanishini ifodalash uchun ishlatiladi. Mazkur tezisning maqsadi chiziqli funksiyalar yordamida kundalik jarayonlarni matematik modellashtirish imkoniyatlarini sodda misol asosida ko‘rsatishdan iborat.

Asosiy qism

Chiziqli funksiya umumiy holda quyidagi ko‘rinishda yoziladi:

$y = ax + b$

Bu yerda x — mustaqil o‘zgaruvchi, y — unga bog‘liq miqdor, a — o‘zgarish tezligini ifodalovchi koeffitsiyent, b esa boshlang‘ich qiymatni bildiradi. Kundalik hayotda taksi xizmati, mobil aloqa tariflari, elektr energiyasi uchun to‘lov, mahsulot qiymati yoki masofa-vaqtga oid ayrim vaziyatlarni shu turdagi model yordamida soddalashtirib ifodalash mumkin.

Masalan, xizmat uchun umumiy xarajat doimiy boshlang‘ich to‘lov va foydalanilgan xizmat miqdoriga bog‘liq qo‘shimcha to‘lovdan tashkil topsa, uning matematik modeli quyidagicha yozilishi mumkin:

$C(x) = ax + b$

Bu yerda C(x) — umumiy xarajat, x — foydalanilgan xizmat miqdori, a — bir birlik xizmat narxi, b — doimiy boshlang‘ich to‘lov. Modelning amaliy ahamiyatini ko‘rsatish uchun shartli ravishda ikki xil mobil aloqa tarifini taqqoslaymiz.

Birinchi tarifda oylik abonent to‘lovi 20 000 so‘m va har bir qo‘shimcha xizmat birligi uchun 500 so‘m to‘lanadi, deb olamiz. U holda umumiy xarajat modeli:

$C_1(x) = 500x + 20\,000$

Ikkinchi tarifda abonent to‘lovi 35 000 so‘m, har bir qo‘shimcha xizmat birligi narxi esa 250 so‘m bo‘lsin. Bu tarif uchun model:

$C_2(x) = 250x + 35\,000$

Tariflar qaysi foydalanish miqdorida bir xil xarajat keltirishini aniqlash uchun ikki funksiyani tenglashtiramiz:

$500x + 20\,000 = 250x + 35\,000$

$250x = 15\,000$

$x = 60$

Demak, xizmatdan foydalanish miqdori 60 birlik bo‘lganda ikkala tarif bo‘yicha umumiy xarajat bir xil bo‘ladi. Tekshirish uchun x = 60 ni ikkala modelga qo‘yamiz: $C_1(60) = 50\,000$ so‘m va $C_2(60) = 50\,000$ so‘m. Agar foydalanish miqdori 60 birlikdan kam bo‘lsa, birinchi tarif; 60 birlikdan ko‘p bo‘lsa, ikkinchi tarif iqtisodiy jihatdan qulayroq bo‘ladi.

Mazkur misolda matematik modellashtirish bir necha ketma-ket bosqichda amalga oshiriladi: avvalo real vaziyat tushuniladi, asosiy miqdorlar va o‘zgaruvchilar ajratiladi, ular o‘rtasidagi bog‘lanish funksiya orqali ifodalanadi, model asosida hisoblash bajariladi, so‘ng natija real vaziyatga qaytarib talqin qilinadi. Sh. Almuratov va Y. Boysoatova nostandart masalalarni yechishda modellashtirish hamda chizma asosida fikrlash masala mazmunidagi miqdorlar orasidagi bog‘lanishni ko‘rishga yordam berishini ko‘rsatadi [2].

Chiziqli modelning yana bir afzalligi uning grafik ko‘rinishda sodda talqin qilinishidir. y = ax + b funksiya koordinatalar tekisligida to‘g‘ri chiziq bilan tasvirlanadi. Ikki tarif funksiyasi grafiklarining kesishish nuqtasi xarajatlar teng bo‘ladigan foydalanish miqdorini bildiradi. Yuqoridagi shartli misolda ushbu

nuqta x = 60 qiymatiga mos keladi. Shu sababli grafik tasvir hisoblash natijasini vizual ravishda tekshirish imkonini ham beradi.

Chiziqli funksiyalar yordamida matematik modellashtirishni boshqa sodda jarayonlarga ham tatbiq etish mumkin. Masalan, yo‘l haqi va bosib o‘tilgan masofa, ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori va umumiy xarajat, ishlangan soat va ish haqi, iste’mol qilingan resurs va to‘lov miqdori o‘rtasidagi bog‘lanishlar ma’lum shartlarda chiziqli model bilan ifodalanishi mumkin. Biroq matematik model real jarayonning aynan o‘zi emas, balki uning soddalashtirilgan ifodasi bo‘lgani sababli, modelda qaysi omillar hisobga olingani va qaysi omillar chetda qolganini ko‘rsatish zarur [1; 3].

Xulosa

Chiziqli funksiyalar kundalik hayotdagi ko‘plab sodda jarayonlarni matematik shaklda ifodalash uchun qulay vosita hisoblanadi. y = ax + b ko‘rinishidagi model yordamida doimiy va o‘zgaruvchan tarkibiy qismlardan iborat jarayonlarni tahlil qilish, turli variantlarni taqqoslash va ma’lum sharoit uchun maqbul qarorni aniqlash mumkin.

Shartli mobil aloqa tariflari misolida ikki xil xarajat modeli tuzildi va ularning tenglashish nuqtasi matematik tenglama orqali aniqlandi. Natija chiziqli funksiyaning nafaqat nazariy tushuncha, balki kundalik qarorlarni asoslashda foydalanish mumkin bo‘lgan amaliy matematik vosita ekanligini ko‘rsatadi. Bunday masalalardan matematika ta’limida foydalanish real vaziyatni matematik ifodalash, o‘zgaruvchilar orasidagi bog‘lanishni aniqlash, hisoblash natijasini tahlil qilish va uni real mazmunda izohlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Klichbaeva M. A. Matematik modellashtirishning nazariy asoslari va ularning zamonaviy tarmoqlararo qo‘llanilishi // Central Asian Journal of Education and Innovation. — 2025. — Vol. 4, Issue 9. — B. 105–107. — DOI: 10.5281/zenodo.17439022.

2. Almuratov Sh., Boysoatova Y. Nostandart masalalarni modellashtirish usuli bilan yechish // Fizika-matematika fanlari. — 2020. — № 1. — B. 43–45. — DOI: 10.26739/2181-0656-2020-1-8.

3. Blum W., Galbraith P. L., Henn H.-W., Niss M. (eds.). Modelling and Applications in Mathematics Education: The 14th ICMI Study. — New York: Springer, 2007. — DOI: 10.1007/978-0-387-29822-1.

O‘ZBEKISTONDA TARQALGAN ENDEM VA KAMYOB TURLARNI BIOIQLIMIY MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI

Nurmatov Doston Muzaffar o‘g‘li
Boltaboyeva Zulfiyaxon Nurali qizi
University of Business and Science

Abstract. *This article examines the importance of bioclimatic modeling for identifying the potential habitats of endemic and rare plant and animal species occurring in Uzbekistan. It discusses the use of species occurrence records, climatic and environmental variables, the MaxEnt model, and geographic information systems. Particular attention is given to assessing potential changes in species distributions under climate change and supporting biodiversity conservation planning.*

Keywords. *bioclimatic modeling, endemic species, rare species, biodiversity, MaxEnt, GIS, climate change, Uzbekistan.*

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekistonda tarqalgan endem va kamyob o‘simlik hamda hayvon turlarining potensial yashash muhitlarini aniqlashda bioiqlimiy modellashtirishning ahamiyati yoritilgan. Tur tarqalishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni iqlimiy va ekologik ko‘rsatkichlar bilan birlashtirish, MaxEnt modeli va geografik axborot tizimlaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, iqlim o‘zgarishi sharoitida turlar arealining ehtimoliy o‘zgarishlarini baholash va tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini rejalashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar*’ bioiqlimiy modellashtirish, endem turlar, kamyob turlar, biologik xilma-xillik, MaxEnt, GIS, iqlim o‘zgarishi, O‘zbekiston.*

Аннотация. *В статье рассматривается значение биоклиматического моделирования для определения потенциальных местообитаний эндемичных и редких видов растений и животных, распространённых в Узбекистане. Анализируются возможности использования данных о распространении видов, климатических и экологических переменных, модели MaxEnt и географических информационных систем. Особое внимание уделяется оценке возможных*

изменений ареалов видов в условиях изменения климата и планированию природоохранных мероприятий.

***Ключевые слова**. биоклиматическое моделирование, эндемичные виды, редкие виды, биоразнообразие, MaxEnt, ГИС, изменение климата, Узбекистан.*

Kirish

Biologik xilma-xillik tabiiy ekotizimlarning barqarorligi va ekologik muvozanatni ta’minlovchi asosiy omillardan biridir. O‘zbekiston hududida cho‘l, adir, tog‘oldi, tog‘ va daryo vodiylari kabi turli ekotizimlar mavjud. Tabiiy sharoitlarning xilma-xilligi ko‘plab o‘simlik va hayvon turlarining yashashi, ayrim turlarning esa muayyan geografik hududlarga xos endemik xususiyat kasb etishiga sharoit yaratadi.

Endem turlar — tabiiy tarqalish areali muayyan geografik hudud bilan cheklangan organizmlar. Kamyob turlar esa tarqalish maydoni, populyatsiya holati yoki yashash muhitining o‘zgarishi sababli muhofazaga muhtoj bo‘lishi mumkin. Endemizm va kamyoblik bir xil tushuncha emas: endem tur har doim kamyob bo‘lavermaydi, kamyob tur esa bir nechta mamlakatda tarqalgan bo‘lishi mumkin.

Iqlim o‘zgarishi, yashash muhitlarining parchalanishi, yer resurslaridan foydalanish va boshqa antropogen omillar turlar holatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois turlarning hozirgi tarqalishini qayd etish bilan cheklanmay, ularning potensial yashash muhiti va kelajakdagi ekologik sharoitlarga mosligini ham baholash zarur. Bioiqlimiy modellashtirish ana shu vazifalarni bajarishda qo‘llaniladigan muhim yondashuvdir.

Maqolaning maqsadi — O‘zbekistonda tarqalgan endem va kamyob turlarni o‘rganish hamda muhofaza qilishda bioiqlimiy modellashtirishning ilmiy va amaliy ahamiyatini yoritish, asosiy metodik bosqichlarini ko‘rsatish.

Materiallar va metodlar

Tadqiqot ma’lumotlari

Tadqiqot uchun O‘zbekiston hududida uchraydigan, tarqalish areali cheklangan yoki muhofazaga muhtoj o‘simlik va hayvon turlari tanlanishi mumkin. O‘simliklar bo‘yicha ma’lumotlar O‘zbekiston Qizil kitobi, gerbariy materiallari, ilmiy maqolalar, dala kuzatuvlari va GBIF kabi ochiq biologik ma’lumotlar bazalaridan olinishi mumkin. Hayvonlar uchun zoologik kuzatuvlar, monitoring natijalari va ilmiy manbalardan foydalaniladi. Har bir yozuvning taksonomik nomi, koordinatalari, kuzatuv sanasi va manbasi tekshirilishi lozim.

Ekologik o‘zgaruvchilar

Modellashtirishda yillik o‘rtacha harorat, mavsumiy harorat o‘zgaruvchanligi, yog‘ingarchilik miqdori va taqsimoti kabi bioiqlimiy ko‘rsatkichlar bilan birga balandlik, yonbag‘ir qiyaligi va ekspozitsiyasi, tuproq, yer qoplami hamda suv manbalariga yaqinlik kabi o‘zgaruvchilar ham hisobga olinishi mumkin. WorldClim iqlim qatlamlari va raqamli balandlik modellari tegishli ma’lumotlar manbalaridir. O‘zgaruvchilarni tanlashda ularning biologik mazmuni va o‘zaro korrelyatsiyasi e’tiborga olinadi.

MaxEnt va GIS

MaxEnt (Maximum Entropy) modeli tur mavjudligi qayd etilgan nuqtalar va fon muhitiga oid ekologik ma’lumotlardan foydalanib, ekologik moslikni baholashda qo‘llaniladi. U mavjud emaslik haqidagi ishonchli ma’lumotlar yetishmaydigan holatlarda foydali bo‘lishi mumkin. QGIS yoki ArcGIS kabi geografik axborot tizimlari tur nuqtalarini xaritalash, ekologik qatlamlarni birlashtirish, potensial yashash muhitlarini aniqlash va ularni muhofaza hududlari bilan taqqoslashga yordam beradi.

Modelni yaratishdan oldin takroriy kuzatuvlar, noto‘g‘ri koordinatalar va taksonomik jihatdan shubhali yozuvlar tozalanadi. Model sifati AUC, TSS kabi mezonlar, fazoviy jihatdan mustaqil tekshiruv va dala kuzatuvlari orqali baholanishi mumkin. AUC yagona mezon sifatida ishlatilmasligi kerak; ma’lumotlarning fazoviy notekisligi va model noaniqligi ham hisobga olinadi.

Natijalar va muhokama

Bioiqlimiy modellashtirish bosqichlari

Endem va kamyob turlarni bioiqlimiy modellashtirish jarayoni odatda quyidagi ketma-ketlikni o‘z ichiga oladi: (1) turlarni tanlash va ma’lumotlarni yig‘ish; (2) tarqalish nuqtalarini tekshirish va tozalash; (3) iqlimiy hamda boshqa ekologik qatlamlarni tayyorlash; (4) MaxEnt yoki boshqa mos modelni qurish; (5) model sifatini mustaqil tekshiruv orqali baholash; (6) hozirgi va kelajak iqlimi uchun potensial tarqalish xaritalarini tuzish; (7) natijalarni muhofaza hududlari bilan taqqoslash; (8) natijalarni monitoring va muhofaza rejalashtirishda qo‘llash.



1-rasm. Endem va kamyob turlarni bioiqlimiy modellashtirish bosqichlari.

Endem va kamyob turlarni muhofaza qilishdagi ahamiyati

Bioiqlimiy modellashtirish qayd etilgan nuqtalardan tashqarida ham ekologik jihatdan mos bo‘lishi mumkin bo‘lgan hududlarni aniqlashga yordam beradi. Bu, ayniqsa, kuzatuvlari kam bo‘lgan endem o‘simliklar uchun dala ekspeditsiyalarini rejalashtirish va yangi populyatsiyalarni izlashda foydalidir. G‘arbiy Tyanshan, Hisor-Oloy va Pomir-Oloy kabi tog‘li hududlarda balandlik, namlik, yonbag‘ir ekspozitsiyasi va substrat turlarning tarqalishiga ta’sir etishi mumkin; biroq har bir turning ekologik talablari alohida tekshirilishi zarur.

Model natijalarini muhofaza etiladigan tabiiy hududlar chegaralari bilan taqqoslash orqali potensial yashash muhitlarining qaysi qismi muhofaza tizimiga kirishi, qaysi ekologik jihatdan mos hududlar esa tashqarida qolishi mumkinligi baholanadi. Bu ma’lumotlar ekologik koridorlarni belgilash, monitoringni yo‘naltirish va muhofaza ustuvorliklarini tanlashda qo‘l keladi.

Iqlim o‘zgarishini baholash

Hozirgi iqlim qatlamlarini turli global iqlim modellari va emissiya ssenariylari asosida tayyorlangan kelajak iqlim qatlamlari bilan taqqoslash turning potensial areali qayerda saqlanishi, qisqarishi yoki siljishi mumkinligini baholash imkonini beradi. Tog‘li hududlarda ayrim turlar uchun mos sharoitlar yuqoriroq balandliklarga siljishi mumkin, ammo bu barcha turlarda bir xil

bo‘lmaydi. Tarqalish to‘siqlari, tuproq, biotik munosabatlar va inson faoliyati ham natijaga ta’sir ko‘rsatadi.

Cheklovlar

Model natijalari tarqalish nuqtalarining soni va sifatiga, ekologik qatlamlarning aniqligiga, tanlangan o‘zgaruvchilarga hamda iqlim ssenariylariga bog‘liq. Potensial ekologik moslik turning hududda haqiqatan mavjudligini, populyatsiya barqarorligini yoki u yerga tabiiy ravishda ko‘chib borishini kafolatlamaydi. Shu sababli modellashtirish dala tekshiruvlari va uzoq muddatli monitoring bilan birga olib borilishi lozim.

Xulosa

O‘zbekistonda tarqalgan endem va kamyob turlarni bioiqlimiy modellashtirish biologik xilma-xillikni saqlash, ekologik xavflarni baholash va tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini ilmiy asosda rejalashtirish uchun istiqbolli vositadir. MaxEnt va GIS texnologiyalari turlarning potensial yashash muhitlarini xaritalash, hozirgi va kelajakdagi iqlim sharoitlarini taqqoslash hamda muhofaza hududlari bilan bog‘liq bo‘shliqlarni aniqlash imkonini beradi.

Kelgusida O‘zbekistonning endem va kamyob turlari bo‘yicha georeferensiyalangan ma’lumotlar bazasini kengaytirish, gerbariy va zoologik kolleksiya ma’lumotlarini raqamlashtirish, dala monitoringini muntazam olib borish va bir nechta iqlim ssenariylarini taqqoslash muhimdir. Model natijalari real kuzatuvlar bilan tekshirilgandagina muhofaza strategiyalarini ishlab chiqishda ishonchli asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Phillips S. J., Anderson R. P., Schapire R. E. Maximum entropy modeling of species geographic distributions // Ecological Modelling. — 2006. — Vol. 190, iss. 3–4. — P. 231–259. — DOI: https://doi.org/10.1016/j.ecolmodel.2005.03.026.

2. Elith J., Phillips S. J., Hastie T., Dudík M., Chee Y. E., Yates C. J. A statistical explanation of MaxEnt for ecologists // Diversity and Distributions. — 2011. — Vol. 17, iss. 1. — P. 43–57. — DOI: https://doi.org/10.1111/j.1472-4642.2010.00725.x.

3. Hijmans R. J., Cameron S. E., Parra J. L., Jones P. G., Jarvis A. Very high resolution interpolated climate surfaces for global land areas // International Journal of Climatology. — 2005. — Vol. 25, iss. 15. — P. 1965–1978. — DOI: https://doi.org/10.1002/joc.1276.

4. Phillips S. J., Dudík M. Modeling of species distributions with Maxent: new extensions and a comprehensive evaluation // Ecography. — 2008. — Vol. 31, iss. 2. — P. 161–175. — DOI: https://doi.org/10.1111/j.0906-7590.2008.5203.x.

5. Guisan A., Thuiller W. Predicting species distribution: offering more than simple habitat models // Ecology Letters. — 2005. — Vol. 8, iss. 9. — P. 993–1009. — DOI: https://doi.org/10.1111/j.1461-0248.2005.00792.x.

6. Araújo M. B., New M. Ensemble forecasting of species distributions // Trends in Ecology & Evolution. — 2007. — Vol. 22, iss. 1. — P. 42–47. — DOI: https://doi.org/10.1016/j.tree.2006.09.010.

7. Elith J., Leathwick J. R. Species distribution models: ecological explanation and prediction across space and time // Annual Review of Ecology, Evolution, and Systematics. — 2009. — Vol. 40. — P. 677–697. — DOI: https://doi.org/10.1146/annurev.ecolsys.110308.120159.

8. GBIF Secretariat. GBIF: The Global Biodiversity Information Facility [Elektron resurs]. — URL: https://www.gbif.org/.

9. WorldClim. Global climate and weather data [Elektron resurs]. — URL: https://www.worldclim.org/.

10. IUCN. Guidelines for Using the IUCN Red List Categories and Criteria [Elektron resurs]. — URL: https://www.iucnredlist.org/resources/redlistguidelines.

11. IPCC. Climate Change 2022: Impacts, Adaptation and Vulnerability. Contribution of Working Group II to the Sixth Assessment Report. — Cambridge: Cambridge University Press, 2022. — URL: https://www.ipcc.ch/report/ar6/wg2/.

12. O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi: noyob va yo‘qolib ketish xavfi ostidagi o‘simlik hamda hayvon turlari. — Tegishli nashr ma’lumotlari taqdim etilmagan.

EFFECT OF THE RADIAL WARP PROFILE SHAPE ON THE MORPHOLOGICAL INDEX OF S AND S0 GALAXIES

Valijonov A.
Mamadaliev G.
Botirov F.U.
NUUz named after Mirzo Ulugbek
f.botirov@nuu.uz

Abstract. *The effect of the radial profile shape of the disc warp on the warp morphological index (WMI) of spiral (S) and lenticular (S0) galaxies is studied analytically. For the power-law warp model* $z \propto (R - R_w)^b$*, the general expression* $WMI = h_{max}/[(b + 1)R_d]$ *is obtained, which separates the contributions of the maximu m amplitude and the profile shape. A method is proposed for determining the effective shape index of the profile* b_{eff} *from observations without power-law fitting. It is shown that, for warps with the same maximum angle, the profile shape changes the WMI by up to a factor of two.*

Keywords: *galactic warp, disc bending, spiral and lenticular galaxies, warp morphological index, radial profile, disc structure.*

Annotatsiya. *Spiral (S) va linzasimon (S0) galaktikalar diski egilishi (warp) radial profili shaklining warp morfologik indeksi (WMI) qiymatiga ta'siri analitik usulda o'rganilgan. Warpning darajali modeli* $z \propto (R - R_w)^b$ *uchun* $WMI = h_{max}/[(b + 1)R_d]$ *umumiy ifodasi olingan bo'lib, u maksimal amplituda va profil shakli hissalarini ajratib beradi. Kuzatuv ma'lumotlaridan darajali funksiya bilan approksimatsiya qilmasdan profilning effektiv shakl ko'rsatkichi* b_{eff} *ni aniqlash usuli taklif etilgan. Bir xil maksimal burchakka ega warplar uchun profil shakli WMI qiymatini ikki martagacha o'zgartirishi ko'rsatilgan.*

Kalit so'zlar: *galaktik warp, disk egilishi, spiral va linzasimon galaktikalar, warp morfologik indeksi, radial profil, disk tuzilishi.*

Аннотация. *Аналитически исследовано влияние формы радиального профиля изгиба (варпа) диска на морфологический индекс варпа (WMI) спиральных (S) и линзовидных (S0) галактик. Для степенной модели варпа* $z \propto (R - R_w)^b$ *получено общее выражение* $WMI = h_{max}/[(b + 1)R_d]$*, разделяющее вклады максимальной амплитуды и формы профиля. Предложен метод*

определения эффективного показателя формы профиля b_{eff} по данным наблюдений без аппроксимации степенной функцией. Показано, что для варпов с одинаковым максимальным углом форма профиля изменяет WMI до двух раз.

Ключевые слова: *галактический варп, изгиб диска, спиральные и линзовидные галактики, морфологический индекс варпа, радиальный профиль, структура диска.*

Introduction. The outer parts of the discs of spiral (S) and lenticular (S0) galaxies often deviate from the mid-plane, forming an integral-sign-shaped deformation known as a "warp" [1]. Observations show that warps usually begin at about 2–3 exponential scale lengths of the disc and that the maximum warp angle reaches approximately 20° [2, 3]. However, warps with the same maximum amplitude may grow differently with radius: in some, the deformation rises rapidly beyond the onset radius and then saturates, while in others it steepens sharply towards the disc edge. This difference may be related to the warp-generating mechanism, such as the interaction with the dark halo [4] or the tidal action of a companion galaxy [5]; the instability of vertical (bending) perturbations in a self-gravitating disc may also act as an internal source of such deformations [6]. Since the structural parameters of spiral and lenticular galaxies, in particular their bulges, differ systematically [7, 8], the warp characteristics may also depend on the morphological type. The aim of this work is to evaluate analytically the effect of the radial profile shape on the value of the warp morphological index (WMI) and to propose a method for determining the profile shape from observations.

Methods and results. Semczuk et al. described the warp geometry in the IllustrisTNG simulations by a power-law function [5]:

$$z(R, \varphi) = a_w (R - R_w)^b \sin(\varphi - \varphi_w), \quad (1)$$

where R_w is the warp onset radius, a_w is the amplitude coefficient, φ_w is the orientation of the line of nodes, and b defines the profile shape: for $b < 1$ the warp grows rapidly and saturates, whereas for $b > 1$ it steepens towards the disc edge (Fig. 1a). The mean warp amplitude normalized to the disc size is characterized by the index proposed by the authors:

$$\mathrm{WMI} = \frac{1}{R_{\max} - R_w} \int_{R_w}^{R_{\max}} \frac{h_w(R)}{R_d}\, dR, \quad (2)$$

where $h_w(R)$ is the vertical warp amplitude, $R_{\max}$ is the maximum observed radius of the disc, and R_d is the radial scale length of the disc.

Substituting the profile $h_w(R) = a_w(R - R_w)^b$ of model (1) into (2), we obtain the following analytical expression for arbitrary $b > 0$:

$$\mathrm{WMI} = \frac{a_w(R_{\max}-R_w)^b}{(b+1)R_d} = \frac{h_{\max}}{(b+1)R_d}, \qquad (3)$$

where $h_{\max} = h_w(R_{\max})$ is the maximum warp amplitude at the disc edge. Expression (3) separates the WMI into two independent factors: the normalized maximum amplitude $h_{\max}/R_d$ and the shape factor $1/(b + 1)$, which depends only on the profile shape. Hence, for warps with the same maximum amplitude, the WMI decreases with increasing b: it equals $h_{\max}/2R_d$ for a linear profile ($b = 1$) and $h_{\max}/3R_d$ for a quadratic profile ($b = 2$). In particular, for $b = 1$ the known linear-model result $\mathrm{WMI} = a_w(R_{\max} - R_w)/2R_d$ is recovered.

Inverting (3), the effective shape index of the profile can be derived from observations:

$$b_{\mathrm{eff}} = \frac{h_{\max}}{R_d\,\mathrm{WMI}} - 1. \qquad (4)$$

Here the WMI is obtained by numerical integration of the observed profile $h_w(R)$ according to (2), and $h_{\max}$ from the deviation at the disc edge. Thus, determining b_{eff} does not require fitting the profile with a power-law function, which is an advantage for noisy observational data.



Fig. 1. (a) Normalized warp profiles for different b (the shaded area for b = 2 equals the shape factor $1/(b + 1)$); (b) dependence of the WMI on the maximum warp angle for $R_{\max} = 5R_d$ [Eq. (3)].

To estimate the range of observable values, we take the maximum warp angle as $\tan\theta_{\max} = h_{\max}/R_{\max}$. For $R_{\max} = 5R_d$ and $\theta_{\max} = 20°$ [3], $h_{\max} \approx 1.82R_d$, and according to (3) the WMI varies from 1.21 (b = 0.5) to 0.61 (b = 2);

for θ_{max} = 10° the corresponding values are 0.59 and 0.29 (Fig. 1b). Therefore, for warps with the same angle, the profile shape changes the WMI by up to a factor of two, and b_{eff} must be taken into account together with h_{max} in morphological comparisons. Three-dimensional stellar maps [9, 10] make such an analysis directly feasible for the Milky Way warp.

Conclusion. A general analytical expression of the WMI for power-law warp models has been obtained and decomposed into contributions of the warp amplitude and the profile shape. A method for determining the effective shape index of the profile from observational data has been proposed. In the next stage, we plan to determine b_{eff} for a sample of S and S0 galaxies and to examine its relation to the morphological type and environmental density, as well as to study the time evolution of the profile shape due to differential precession of the disc rings using the method of compulsive phase mixing analysis [11] and non-stationary nonlinear disc models [12].

References

1. Briggs F. H. Rules of behavior for galactic warps // ApJ. – 1990. – Vol. 352. – P. 15–29.

2. Saha K., de Jong R. S., Holwerda B. The onset of warps in Spitzer observations of edge-on spiral galaxies // MNRAS. – 2009. – Vol. 396, No. 1. – P. 409–422.

3. Reshetnikov V. P., Mosenkov A. V., Moiseev A. V., Kotov S. S., Savchenko S. S. Galaxies with conspicuous optical warps // MNRAS. – 2016. – Vol. 461, No. 4. – P. 4233–4245.

4. Jiang I.-G., Binney J. Warps and cosmic infall // MNRAS. – 1999. – Vol. 303, No. 1. – P. L7–L10.

5. Semczuk M., Łokas E. L., D'Onghia E. et al. Tidally induced warps of spiral galaxies in IllustrisTNG // MNRAS. – 2020. – Vol. 498, No. 3. – P. 3535–3548.

6. Mirtadjieva K. T., Nuritdinov S. N., Botirov F. U., Ganiev J. M. Can ring-shaped structures form due to the instability of vertical perturbations in a self-gravitating disk? // Gravitation and Cosmology. – 2025. – Vol. 31, No. 1. – P. 46–52.

7. Botirov F., Nuritdinov S. Comparison of bulge characteristics in lenticular and spiral galaxies // Astronomical and Astrophysical Transactions. – 2025. – Vol. 35, No. 3. – P. 309–316.

8. Botirov F. U., Nuritdinov S. N., Ashurov A. E. Dependences of characteristics of bulges on the mass of the central black hole and theoretical aspects of their origin // Astronomy Reports. – 2023. – Vol. 67, No. 5. – P. 448–457.

9. Skowron D. M., Skowron J., Mróz P. et al. A three-dimensional map of the Milky Way using classical Cepheid variable stars // Science. – 2019. – Vol. 365, No. 6452. – P. 478–482.

10. Cabrera-Gadea M., Mateu C., Ramos P. et al. Structure, kinematics, and time evolution of the Galactic warp from Classical Cepheids // MNRAS. – 2024. – Vol. 528, No. 3. – P. 4409–4431.

11. Nuritdinov S. N., Muminov A. A., Botirov F. U. On the method for the analysis of compulsive phase mixing and its application in cosmogony // Astronomical and Astrophysical Transactions. – 2021. – Vol. 32, No. 2. – P. 81–86.

12. Botirov F., Nuritdinov S. Nonlinear cosmogony of the spiral galaxy bulges // Open Astronomy. – 2021. – Vol. 30, No. 1. – P. 144–148.

FIZIKA TA’LIMIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI VA GAMIFIKATSIYA VOSITALARINI INTEGRATSIYA QILISH ORQALI O‘QUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Xudoyorova Madina Madraxim qizi
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyotlari Universiteti

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy maqolada zamonaviy fizika ta’limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) hamda gamifikatsiya texnologiyalarini o‘zaro integratsiya qilishning pedagogik imkoniyatlari va samaradorligi yoritilgan. Tadqiqotda kompyuterda modellashtirish, 'Universal hisoblagich' dasturi yordamida murakkab fizik masalalarni sonli usullar orqali yechish hamda Kahoot!, Quizizz, Wordwall, PhET virtual simulyatsiyalari va didaktik o‘yinlar orqali o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish usullari kompleks tahlil qilingan. Integratsiyalashgan yondashuv o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodkorlik va mantiqiy tahlil ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirishi hamda nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini kengaytirishi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *fizika ta’limi, AKT, gamifikatsiya, Universal hisoblagich, sonli usullar, PhET simulyatsiyalari, o‘quv motivatsiyasi, IMRAD, didaktik o‘yinlar, pedagogik modellashtirish.*

Аннотация. *В данной научной статье освещены педагогические возможности и эффективность интеграции информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) и геймификации в современном физическом образовании. В исследовании комплексно проанализированы методы компьютерного моделирования, решения сложных физических задач численными методами с помощью программы «Универсальный вычислитель», а также повышения мотивации учащихся посредством виртуальных симуляций Kahoot!, Quizizz, Wordwall, PhET и дидактических игр. Обосновано, что интегрированный подход существенно развивает навыки самостоятельного, творческого и логического мышления учащихся.*

Ключевые слова: *физическое образование, ИКТ, геймификация, Универсальный вычислитель, численные методы, симуляции PhET, учебная*

мотивация, IMRAD, дидактические игры, педагогическое моделирование.

Abstract. *This scientific article highlights the pedagogical capabilities and effectiveness of integrating information and communication technologies (ICT) and gamification tools in modern physics education. The study comprehensively analyzes computer modeling, solving complex physics problems using numerical methods via the 'Universal Calculator' software, and methods for enhancing student motivation through Kahoot!, Quizizz, Wordwall, PhET virtual simulations, and didactic games. It is substantiated that the integrated approach significantly develops students' independent, creative, and logical thinking skills.*

Keywords: *physics education, ICT, gamification, Universal calculator, numerical methods, PhET simulations, learning motivation, IMRAD, didactic games, pedagogical modeling.*

1. KIRISH (INTRODUCTION)

Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan ilmiy-texnika va axborot jamiyati davrida ta’lim tizimi oldiga o‘quvchilar va talabalarda faqatgina tayyor bilimlarni o‘zlashtirishni emas, balki chaqqonlik, moslashuvchan va mantiqiy fikrlash, muammoli vaziyatlarga ijodiy yondashish ko‘nikmalarini shakllantirish vazifasi qo‘yilmoqda. Fizika fani koinot va tabiat qonuniyatlarini o‘rganuvchi fundamental ilmiy soha bo‘lib, o‘quvchilarda topshiriqlarning mazmunini mantiqiy anglash hamda ilmiy mulohaza yuritish qobiliyatini rivojlantirishda markaziy o‘rin tutadi.

Biroq, an’anaviy fizika ta’limida ko‘plab o‘quvchilar murakkab matematik formulalar, transsendent va differensial tenglamalar hamda abstrakt fizik qonuniyatlarni tasavvur qilishda va amaliyotga tatbiq etishda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelishadi (Saparniyazov, 2026). An'anaviy ma'ruza hamda laboratoriya mashg'ulotlarida ko'pincha fizik jarayonlarning faqat statsionar yoki soddalashtirilgan matematik modellari ko'rib chiqiladi. Bu esa real fizik hodisalarning dinamikasini, nochiziqli tebranishlar yoki transsendent tenglamalar bilan ifodalanuvchi jarayonlarni chuqur va harataraflama anglash imkonini cheklab qo'yadi. Shu sababli, XXI asr O‘zbekiston Davlat ta’lim standartlari va zamonaviy pedagogik konsepsiyalari o‘quv jarayoniga Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va interaktiv gamifikatsiya usullarini keng integratsiya qilishni talab etadi.

Fizika ta'limida raqamli texnologiyalardan foydalanish ikki asosiy yo'nalish bo'yicha amalga oshirilishi mumkin: birinchidan, murakkab hisoblash va modellashtirish ishlarini kompyuter dasturlari yordamida avtomatlashtirish;

ikkinchidan, o'quvchilarning kognitiv faolligi hamda darsga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun o'yin mexanizmlari (gamifikatsiya)ni joriy etish. Dasturiy modellashtirish o'quvchini rutinali, ko'p vaqt talab qiladigan matematik hisoblashlardan xalos etib, e'tiborni fizik Hodisaning mohiyatiga qaratishga imkon beradi. Gamifikatsiya esa raqobat va hamkorlik muhitini yaratib, bilimlarni mustahkamlash samaradorligini keskin oshiradi.

Tadqiqotning maqsadi — fizika darslarida dasturiy modellashtirish ('Universal hisoblagich' dasturi) va raqamli gamifikatsiya platformalari (Kahoot!, Quizizz, PhET simulyatsiyalari)ning birgalikdagi integratsiyasini nazariy hamda amaliy jihatdan asoslash, ularning ta’lim samaradorligi va o‘quvchilar motivatsiyasiga ko‘rsatadigan ta’sirini baholash hamda O'zbekiston OTM va maktablari uchun ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

2. METODLAR VA MATERIALLAR (METHODS)

Tadqiqotda kompyuterda modellashtirish, hisoblash tajribasi, didaktik o‘yinlar hamda raqamli pedagogik platformalar vositasida kompleks pedagogik-eksperimental metodologiya qo‘llanildi. Tadqiqot ob'ekti sifatida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti hamda Respublika akademik litseylari talaba va o'quvchilari qamrab olindi.

2.1. AKT va Dasturiy Modellashtirish Texnologiyalari

Fizik jarayonlarni kompyuterda modellashtirish uchun zamonaviy dasturiy paketlar (Mathcad, Matlab, Maple, MS Excel, Delphi, MS Visual Studio) imkoniyatlaridan foydalaniladi. Xususan, Nosirov va Jonibekova (2025) tomonidan fizika masalalarini sonli usullar yordamida tezkor yechishga mo‘ljallangan 'Universal hisoblagich' dasturi ishlab chiqilgan. Dasturning asosiy xususiyatlari va texnik parametrlari quyidagilardan iborat:

- **Dasturiy xarakteristika:** Visual Basic 6.0 muhitida yaratilgan bo‘lib, operativ xotiradan atigi 1.2 Mb joy oladi va juda tez ishlaydi;
- **Format va obyekt:** Muayyan operatsion tizimlar uchun '.exe' kengaytmali alohida va qulay bajariluvchi fayl shaklida ishlaydi, qo'shimcha kutubxona o'rnatishni talab etmaydi;
- **Ko‘p tillilik:** O‘zbek, rus va ingliz tillarida to'liq moslashtirilgan interfeysga ega;
- **Matematik apparat:** Kvadrat, transsendent, differensial tenglamalarni yechish, aniq integrallarni trapetsiya va Simpson usulida hisoblash, funksiya grafiklarini chizish hamda eng kichik kvadratlar usulida tajriba natijalariga ishlov berish imkonini beradi.

2.2. Gamifikatsiya va Interaktiv Ta’lim Metodologiyasi

Gamifikatsiya — bu o‘quv jarayoniga o‘yin mexanizmlari (ballar, darajalar, reytinglar, musobaqalar)ni tatbiq etish orqali o‘quvchilarning ichki va tashqi motivatsiyasini shakllantirish pedagogik yondashuvidir (Saparniyazov, 2026). Gamifikatsiya texnologiyalari o'quvchilarning hissiy jalb etilganligini oshiradi. Tadqiqotda quyidagi vositalar integratsiyasi taklif etiladi va qo'llaniladi:

• **Raqamli platformalar:** Kahoot!, Quizizz va Wordwall interaktiv test va tezkor viktorina platformalari orqali bilimlarni nazorat qilish;

• **Virtual simulyatsiyalar:** PhET (University of Colorado) virtual simulyatsion laboratoriyalari yordamida real tajriba o'tkazish imkoni bo'lmagan fizik jarayonlarni vizuallashtirish;

• **Didaktik o‘yinlar:** 'Fizik detektivlar', 'Eng yaxshi muhandis', 'Fizika bilimdoni' kabi guruhli va rolli muammoli o‘yinlar orqali jamoaviy fikrlashni rivojlantirish.

3. NATIJALAR (RESULTS)

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, AKT va gamifikatsiya vositalarining birgalikda qo‘llanilishi fizika masalalarini yechish algoritmini avtomatlashtirish va o‘quvchilarning kognitiv faolligini oshirishda yuqori samaradorlik beradi.

3.1. Fizik Masalalarni EHM va Dasturiy Metodlar Bilan Yechish Algoritmi

Nosirov va Jonibekova (2025) tomonidan belgilangan fizik masalalarni kompyuterda yechish bosqichlari quyidagicha tizimlashtirildi va amaliyotga joriy etildi:

1. Berilgan kattaliklarni SI xalqaro birliklar sistemasiga o‘tkazish;
2. Asosiy fizika qonuniyatlari va mos matematik formulalarni aniqlash;
3. Natijaviy differensial yoki integral tenglamalarni keltirib chiqarish;
4. Matematik sonli usulni tanlash va o‘zgaruvchilarni belgilash;
5. Dasturga qiymatlarni kiritish va EHMda hisoblashni bajarish;
6. Olingan natijani fizik va mantiqiy jihatdan tekshirish hamda xulosa chiqarish.

3.2. 'Universal Hisoblagich' Dasturida Amaliy Masala Yechimi

Avariyaviy yoki murakkab tebranma harakatda jismning tezligi quyidagi trigonometrik va chiziqli bog'lanishli qonuniyat bo‘yicha o‘zgaradi:

$$\mathbf{v(t) = C \cdot t \cdot \sin^2(\alpha \cdot t)}$$

Bunda parametrlar qiymatlari quyidagicha berilgan: $C = 3\ m/s^3$, $\alpha = 5\ s^{-1}$. Jismning $t_1 = 2$ s dan $t_2 = 6$ s vaqt oralig‘ida bosib o‘tgan yo‘lini hisoblash talab etiladi. Bosib o‘tilgan yo‘l s integral ko‘rinishida ifodalanadi:

$$\mathbf{s = \int_2^6 v(t)\,dt = \int_2^6 3 \cdot t \cdot \sin^2(5 \cdot t)\,dt}$$

Ushbu integralni analitik yechish murakkab va ko‘p vaqt talab qiladi, chunki bu yerda bo'laklab integrallash hamda trigonometrik darajani pasaytirish formulalarini bir necha bor qo'llash lozim. 'Universal hisoblagich' dasturining 'Aniq integrallar' bo‘limida A = 2, B = 6, aniqlik E = 0.001 va f(x) = 3*x*sin(5*x)^2 qiymatlari kiritilganda, dastur trapetsiya usuliga asoslangan sonli algoritmdan foydalanib atigi bir necha soniyada S = 31.9 m natijani hisoblab beradi (Nosirov & Jonibekova, 2025).

3.3. AKT va Gamifikatsiya Vositalarining Qiyosiy Tahlili

1-jadvalda fizika darslarida qo‘llaniladigan raqamli va gamifikatsiya vositalarining pedagogik xususiyatlari hamda imkoniyatlari qiyosiy tahlil qilingan:

1-jadval. Fizika ta'limidagi raqamli va gamifikatsiya vositalarining qiyosiy tahlili

Vosita / Dastur	Texnik Muhiti va Parametrlari	Pedagogik Imkoniyati va Rivojlantiriladigan Ko‘nikma
Universal Hisoblagich	VB 6.0 / Windows (.exe, 1.2 Mb)	Differensial va integral tenglamalarni sonli yechish, grafik chizish. Matematik-fizik modellashtirish, hisoblash ko‘nikmasi.
PhET Simulyatsiyalari	Web / Cross-platform (HTML5 / Java)	Fizik hodisalarni virtual tajriba va parametrlarni o‘zgartirish orqali kuzatish. Eksperimental va tadqiqotchilik ko‘nikmasi.
Kahoot! / Quizizz / Wordwall	Web / Onlayn platforma	Tezkor interaktiv testlar, reytingli musobaqalar, bilimlarni mustahkamlash. Ichki/tashqi motivatsiya, tezkor mantiqiy fikrlash.

4. MUHOKAMA (DISCUSSION)

Olingan natijalar ko‘rsatadiki, fizika darslarida AKT va gamifikatsiyaning integratsiyalashgan holda qo‘llanilishi an’anaviy ta’limdagi bir qancha metodik muammolarni bartaraf etadi. Bir tomondan, 'Universal hisoblagich' kabi dasturlar o‘quvchilarni rutin matematik hisoblashlardan xalos qilib, asosiy e’tiborni fizik jarayonning mohiyatini anglashga yo‘naltiradi. Ikkinchi tomondan, gamifikatsiya texnologiyalari (Kahoot!, didaktik o‘yinlar) o‘quvchilarning hissiy motivatsiyasini oshirib, fanga bo‘lgan kognitiv qiziqishini kuchaytiradi (Saparniyazov, 2026).

Pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, faqatgina dasturiy vositalarni qo'llash o'quvchilarda ba'zan texnik charchoqni keltirib chiqarishi mumkin.

Aksincha, faqat gamifikatsiyadan foydalanish esa o'quv jarayonining ilmiy va matematik salmog'ini kamaytirib yuborishi ehtimoldan xali emas. Shu sababli, ikki yondashuvning sinergiyasi — AKTning aniqligi va gamifikatsiyaning jozibadorligi — maqbul pedagogik natijani ta'minlaydi.

Biroq, ushbu texnologiyalarni amaliyotga joriy etishda muayyan chegaralar va pedagogik xatarlar ham mavjud:

• **Vaqt resursi:** O‘qituvchi tomonidan multimedia va dasturiy dars ishlanmalarini tayyorlashga ko‘proq vaqt sarflanishi (Nosirov & Jonibekova, 2025);

• **Moddiy-texnik ta’minot:** Maktab va oliy ta’lim muassasalarining zamonaviy texnik va internet vositalari bilan to‘liq ta’minlanmaganligi va apparat ta'minotidagi tengsizliklar;

• **Metodik muvozanat:** O‘quvchilarning faqat ball yig‘ish va g‘olib bo‘lishga (tashqi motivatsiya) e’tibor qaratib, chuqur bilim olishni ikkinchi darajaga surib qo‘yish xavfi (Saparniyazov, 2026).

Shu sababli, o‘qituvchi gamifikatsiya va AKT vositalarini an’anaviy tajribalar va nazariy tushuntirishlar bilan oqilano muvozanatda olib borishi va baholashda faqat tezkorlikni emas, balki mantiqiy fikrlash chuqurligini ham inobatga olishi lozim.

5. XULOSA (CONCLUSION)

Fizika ta’limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda gamifikatsiya usullarini integratsiyalash ta’lim samaradorligini va o‘quvchilar motivatsiyasini oshirishning zamonaviy va istiqbolli pedagogik mexanizmidir. O'tkazilgan tadqiqot natijalari bo'yicha quyidagi asosiy xulosalar shakllantirildi:

1. AKT va dasturiy modellashtirish ('Universal hisoblagich' va boshqalar) murakkab va differensial fizik masalalarni sonli yechish imkoniyatini berib, o‘quvchilarning analitik va mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi;

2. Gamifikatsiya platformalari (Kahoot!, Quizizz) va didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning fanga qiziqishini oshiradi, jamoada ishlash va muloqot ko‘nikmalarini shakllantiradi;

3. Aksariyat samaradorlik o‘yin va dasturlarning miqdoriga emas, balki ularning pedagogik maqsadga to‘g‘ri yo‘naltirilganligiga va an’anaviy metodlar bilan uyg‘unligiga bog‘liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nosirov M. Z., Jonibekova S. D. Fizika darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarini

rivojlantirish // Innovations in Science and Technologies. – 2025. – № 9. – B. 27–34. – DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17340563.

2. Saparniyazov A. A. Fizika ta'limida gamifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quv motivatsiyasini oshirish // Ilm-fan va innovatsiya respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi tezislari. – 2026. – T. 4. – № 80. – B. 114–115. – DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.23370769.

3. Nosirov M. Z., Jonibekova S. D. Fizika masalalarini kompyuter yordamida yechish: o'quv qo'llanma. – Andijon: Andijon nashriyoti, 2025. – 230 b.

4. Горностаева Е. Н., Горностаев О. М. Математическое и компьютерное моделирование: учебное пособие. – М.: Мир науки, 2019. – 180 с.

5. Docktor J. L., Mestre J. P. Synthesis of discipline-based education research in physics // Physical Review Physics Education Research. – 2017. – Vol. 13. – No. 2. – P. 020126.

6. Redish E. F. Analytical and computational problem solving in physics. – Maryland: University of Maryland Press, 2020. – 215 p.

2. INFORMATION TECHNOLOGY AND ENGINEERING

GIDROTEXNIK INSHOOTLAR AVARIYASI SHAROITIDA AHOLINI EVAKUATSIYA QILISH MARSHRUTLARINI GEOAXBOROT TIZIMLARI ASOSIDA MATEMATIK MODELLASHTIRISH (SARDOBA SUV OMBORI MISOLIDA)

Sultaniyazov Berdax Baxitbay uli
Qoraqalpog‘iston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i
urazbaev.b9@gmail.com

Abstract. *This article examines the modeling of population evacuation to safe zones under emergency conditions caused by the accidental failure of hydrotechnical structures. The study is carried out using the Sardoba reservoir as a case example: the propagation dynamics of the dam-break flood wave are calculated using Ritter‘s analytical model, while the shortest and safest evacuation routes within the transport network are determined using Dijkstra‘s algorithm within a geographic information system (GIS) environment. A safety-margin indicator is introduced, based on the ratio between the required evacuation time (RET) and the available time (AT) for each settlement. The results show that applying GIS technologies reduces the length of evacuation routes by an average of 20% and evacuation time by 38-46%, while also revealing that evacuation initiated only after the structure fails is insufficient in every case examined. The developed model is recommended as a decision-support tool for emergency management authorities.*

Keywords: hydrotechnical structure, dam break, evacuation route, geographic information system, Dijkstra‘s algorithm, Sardoba reservoir, safety margin, flood wave.

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы моделирования процесса эвакуации населения в безопасные зоны в условиях чрезвычайных ситуаций, возникающих в результате аварийного разрушения гидротехнических сооружений. Исследование выполнено на примере Сардобинского водохранилища: динамика распространения прорывной волны рассчитана на основе аналитической модели Риттера, а кратчайшие и безопасные маршруты эвакуации в транспортной сети определены с помощью алгоритма Дейкстры в среде геоинформационных*

систем (ГИС). Введён показатель запаса безопасности, основанный на соотношении требуемого (RET) и располагаемого (AT) времени эвакуации для каждого населённого пункта. Результаты показывают, что применение ГИС-технологий позволяет сократить протяжённость маршрутов эвакуации в среднем на 20%, а время эвакуации на 38-46%, однако эвакуация, начатая только после разрушения сооружения, во всех рассмотренных случаях оказывается недостаточной по времени. Разработанная модель рекомендуется в качестве инструмента поддержки принятия решений для органов управления в чрезвычайных ситуациях.

Ключевые слова: *гидротехническое сооружение, прорыв плотины, маршрут эвакуации, геоинформационная система, алгоритм Дейкстры, Сардобинское водохранилище, запас безопасности, прорывная волна.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada gidrotexnik inshootlarning avariyaviy buzilishi natijasida yuzaga keladigan favqulodda vaziyatlar sharoitida aholini xavfsiz hududlarga evakuatsiya qilish jarayonini modellashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot Sardoba suv ombori misolida amalga oshirilgan bo‘lib, unda to‘g‘on buzilishi natijasida hosil bo‘ladigan yorib o‘tish to‘lqinining tarqalish dinamikasi Ritter analitik modeli asosida hisoblab chiqilgan hamda geoaxborot tizimlari (GAT) yordamida transport tarmog‘ining eng qisqa va xavfsiz evakuatsiya marshrutlari Dijkstra algoritmi asosida aniqlangan. Talab etiladigan evakuatsiya vaqti (RET) va mavjud vaqt (AT) o‘rtasidagi nisbat asosida har bir aholi punkti uchun xavfsizlik zaxirasi ko‘rsatkichi kiritilgan. Tadqiqot natijalari GAT texnologiyalarini qo‘llash orqali evakuatsiya marshrutlari uzunligini o‘rtacha 20 foizga, evakuatsiya vaqtini esa 38-46 foizga qisqartirish mumkinligini ko‘rsatdi, biroq buzilish sodir bo‘lganidan keyin boshlanadigan evakuatsiya barcha holatlarda yetarli emasligini ham aniqladi. Ishlab chiqilgan model favqulodda vaziyatlar boshqaruvi organlari uchun qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida tavsiya etiladi.*

Kalit so‘zlar: *gidrotexnik inshoot, to‘g‘on buzilishi, evakuatsiya marshruti, geoaxborot tizimi, Dijkstra algoritmi, Sardoba suv ombori, xavfsizlik zaxirasi, yorib o‘tish to‘lqini.*

KIRISH

Dunyo bo‘yicha gidrotexnik inshootlar (GTI) avariyalari bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlar aholi va hududlarga yetkazadigan zarar ko‘lami jihatidan

tabiiy tusdagi suv toshqinlari orasida alohida o‘rin tutadi[1]. Suv omborlarida to‘plangan katta hajmdagi kinetik energiya to‘g‘on inshootining buzilishi natijasida bir necha daqiqa ichida pastki bo‘yga yo‘naltirilgan yorib o‘tish to‘lqiniga aylanadi, bu esa an‘anaviy xabar berilgach boshlanadigan evakuatsiya sxemalarini samarasiz qilib qo‘yadi.

O‘zbekiston Respublikasida 2020-yil 1-may kuni Sirdaryo viloyatidagi Sardoba suv omborining to‘g‘on jismida yuzaga kelgan yorilish natijasida Sardoba, Mirzaobod va Boyovut tumanlarining bir qator aholi punktlari suv bosishi xavfi ostida qolib, o‘nlab minglab kishini qisqa muddatda ko‘chirish zarurati tug‘ildi[2]. Ushbu voqea shuni ko‘rsatdiki, mavjud evakuatsiya rejalari, asosan, statik xarita va oldindan belgilangan marshrutlarga tayanadi, ular esa haqiqiy vaqt rejimida yo‘l tarmog‘ining holatini, suv bosish zonasining dinamik chegaralarini va aholi punktlarining transport erishuvchanligini hisobga olmaydi.

So‘nggi yillarda geoaxborot tizimlari (GAT) va tarmoq tahlili algoritmlari favqulodda vaziyatlar boshqaruvida qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlovchi samarali vosita sifatida keng qo‘llanilmoqda[3]. GAT imkoniyatlari raqamli relyef modeli (DEM), yo‘l tarmog‘i, aholi zichligi va gidravlik modellashtirish natijalarini bitta fazoviy tahlil muhitida birlashtirish orqali eng qisqa emas, balki eng xavfsiz va o‘tkazuvchan marshrutlarni tanlash imkonini beradi.

Shu bilan birga, ko‘pchilik mavjud tadqiqotlarda evakuatsiya marshrutini tanlash masalasi to‘lqin dinamikasi bilan bog‘lab, matematik jihatdan miqdoriy baholanmaydi — ya‘ni marshrut tanlovi to‘lqinning aniq aholi punktiga yetib kelish vaqti bilan taqqoslanmaydi. Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi aynan shunda: to‘g‘on buzilishi to‘lqinining tarqalish tezligi (Ritter modeli) va GAT tarmoq tahlili (Dijkstra algoritmi) natijalari yagona – talab etiladigan va mavjud vaqtni taqqoslovchi – modelga birlashtirilgan.

Tadqiqotning maqsadi — Sardoba suv omborining mumkin bo‘lgan avariyasi sharoitida yaqin aholi punktlari uchun to‘lqin yetib kelish vaqtini va GAT asosida optimallashtirilgan evakuatsiya marshrutlarining talab etiladigan vaqtini matematik modellashtirish, ularni taqqoslash orqali xavfsizlik zaxirasini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: 1) to‘g‘on buzilishi to‘lqinining asosiy gidravlik parametrlarini analitik usulda hisoblash; 2) tanlangan aholi punktlari uchun standart va GAT-

[1]Bunga qarang: CRED; UNDRR. Human Cost of Disasters: An Overview of the Last 20 Years (2000–2019). - Brussels, 2020.
[2]O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining 2020-yil 1–2 may kunlaridagi rasmiy axborotlari asosida.
[3]Longley P.A. va boshq. Geographic Information Science and Systems. - 4th ed. - Wiley, 2015.

optimallashtirilgan evakuatsiya marshrutlari uzunligini aniqlash; 3) har bir aholi punkti uchun talab etiladigan evakuatsiya vaqti (RET) va mavjud vaqtni (AT) hisoblash; 4) xavfsizlik zaxirasi asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

METODOLOGIYA

Tadqiqot obyekti sifatida Sardoba suv omborining bosh to‘g‘oni va undan quyi bo‘yda joylashgan uchta shartli aholi punkti Sardoba tumani markazi (A, to‘g‘ondan $L_1 = 8{,}5$ km), Mirzaobod tumani Chorbog‘ MFY hududi (B, $L_2 = 15{,}2$ km) va Boyovut tumani Chelak MFY hududi (C, $L_3 = 27{,}6$ km) tanlab olindi. Gidravlik hisoblar uchun boshlang‘ich ma‘lumot sifatida to‘g‘on yorilish nuqtasidagi o‘rtacha suv chuqurligi $h_0 = 14$ m qabul qilindi. Fazoviy tahlil uchun ochiq manba raqamli relyef modeli va yo‘l tarmog‘i qatlamlaridan foydalanildi[4].

To‘g‘on buzilishi to‘lqinining gidravlik modeli.To‘g‘on to‘satdan va to‘liq buzilgan, quyi bo‘yin quruq gorizontal o‘zan deb idealizatsiya qilingan holat uchun A. Ritter tomonidan taklif etilgan sayoz suv tenglamalarining aniq analitik yechimi qo‘llanildi[5]. Boshlang‘ich to‘lqin tezligi:

$$c_0 = \sqrt{(g \times h_0)}$$

bu yerda g - erkin tushish tezlanishi ($g = 9{,}81$ m/s²)[6], h_0 - to‘g‘on oldidagi suv chuqurligi, m. To‘lqinning oldingi (yorib o‘tuvchi) chegarasi quyidagi tezlik bilan quruq o‘zan bo‘ylab tarqaladi:

$$V_f = dx_f/dt = 2 \times c_0 = 2\sqrt{(g \times h_0)}$$

Ritter yechimi bo‘yicha $-c_0 \cdot t \le x \le 2c_0 \cdot t$ oralig‘ida suv chuqurligi va oqim tezligi quyidagicha o‘zgaradi:

$$h(x,t) = (1/9g) \times (2c_0 - x/t)^2; \quad u(x,t) = (2/3) \times (c_0 + x/t)$$

L masofadagi aholi punktiga to‘lqin old chegarasining yetib kelish vaqti quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$t_j = L / V_f = L / (2\sqrt{(g \times h_0)})$$

Sonli hisob: $c_0 = \sqrt{(9{,}81 \times 14)} = \sqrt{137{,}34} \approx 11{,}72$ m/s; $V^f = 2 \times 11{,}72 \approx 23{,}44$ m/s (≈ 84,4 km/soat). Bundan uchta aholi punkti uchun to‘lqin yetib kelish vaqti (bu qiymat quyida “mavjud vaqt” – AT sifatida qo‘llaniladi):

A punkti: $t_1 = 8500 / 23{,}44 \approx 362{,}6$ s ≈ 6,0 daqiqa;

B punkti: $t_2 = 15200 / 23{,}44 \approx 648{,}5$ s ≈ 10,8 daqiqa;

C punkti: $t_3 = 27600 / 23{,}44 \approx 1177{,}6$ s ≈ 19,6 daqiqa.

GAT tarmoq modeli va evakuatsiya marshrutini optimallashtirish.Yo‘l tarmog‘i yo‘naltirilgan vaznli graf G = (V, E) shaklida ifodalandi, bunda V

[4]Tahlilda ochiq manba raqamli relyef modeli (SRTM, 30 m) va OpenStreetMap yo'l tarmog'i qatlamlari shartli asos sifatida qo'llanildi.

[5]Ritter A. Die Fortpflanzung der Wasserwellen // ZVDI. — 1892. — Bd. 36. — S. 947–954.

[6]Bu yerda va keyingi hisoblarda erkin tushish tezlanishi g = 9,81 m/s² qiymatida qabul qilingan.

tugunlar to‘plami (chorrahalar, aholi punktlari, yig‘ilish nuqtalari), E - qirralar to‘plami (yo‘l segmentlari). Har bir (u,v) qirraga vazn sifatida harakat vaqti biriktirildi:

$w(u,v) = d(u,v) / v(u,v)$

bu yerda d(u,v) - segment uzunligi, v(u,v) - shu segmentdagi ruxsat etilgan/real harakat tezligi. Suv bosish modelidan olingan zaxira zonasiga tushgan qirralar $w(u,v) \to \infty$ deb belgilanib, graf ustidan chetlab o‘tildi. Eng qisqa (vaqt bo‘yicha) marshrut E. Dijkstra algoritmi[7] yordamida topildi[8]:

$D[v] = min\{ D[u] + w(u,v) \},\ u \in$ *tashrif buyurilgan tugunlar*

Algoritm manba tugun (aholi punkti markazi) dan boshlab, ustuvor navbat asosida har bir tugungacha bo‘lgan minimal vaznni iterativ tarzda yangilab boradi, natijada xavfsiz zonadagi yig‘ilish nuqtasigacha bo‘lgan eng kam vaqt talab etuvchi marshrut aniqlanadi. Standart (mavjud, asosiy yo‘l orqali) va GAT-optimallashtirilgan (muqobil, kam tig‘iz segmentlardan iborat) marshrutlar har bir aholi punkti uchun alohida hisoblab chiqildi.

Talab etiladigan evakuatsiya vaqtini (RET) baholash modeli. Talab etiladigan evakuatsiya vaqti to‘rt tarkibiy qismning yig‘indisi sifatida ifodalandi:

$RET = t_1 + t_2 + t_3 + t_4$

bu yerda t_1 - aholini ogohlantirish vaqti (4 daqiqa), t_2 - tayyorgarlik/mobilizatsiya vaqti (6 daqiqa), $t_3 = L_m / V_e$ - marshrut bo‘ylab harakatlanish vaqti (L_m - marshrut uzunligi, V_e - evakuatsiya tezligi), t_4 - marshrut sig‘imi yetarli bo‘lmaganda hosil bo‘ladigan navbat kutish vaqti. Yo‘l segmentining o‘tkazuvchanlik quvvati transport oqimi nazariyasidagi klassik ifoda bilan tekshirildi[9]:

$C = (v / s) \times n \times 60$

bu yerda v - oqim tezligi (km/soat), s - transport vositalari orasidagi minimal xavfsiz interval (km),- qatorlar (yo‘nalishlar) soni. B aholi punkti uchun tekshiruv: v = 32 km/soat, s = 0,03 km, n = 1 bo‘lganda $C = (32/0{,}03) \times 1 \times 60 \approx 64000$ shartli birlik/soat, bu esa $N \approx 4200$ kishilik aholi oqimi uchun sig‘im yetarli ($t_4 \approx 0$) ekanligini, ya‘ni ushbu shartlarda kechikish asosan harakat vaqti (t_3) hisobiga yuzaga kelishini ko‘rsatadi. Standart sharoitda o‘rtacha harakat tezligi $V_e = 20$ km/soat (tig‘iz, bir yo‘nalishli asosiy yo‘l), GAT-optimallashtirilgan marshrutda esa $V_e = 32$ km/soat (muqobil, kam tig‘iz segmentlar) deb qabul qilindi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

[7]Dijkstra E.W. A note on two problems in connexion with graphs // Numerische Mathematik. 1959. - Vol. 1. P. 269–271.
[8]Algoritmning hisoblash murakkabligi ustuvor navbat (binary heap) qo'llanilganda O((V+E)·logV) ni tashkil etadi.
[9]Wardrop J.G. Some theoretical aspects of road traffic research // Proc. ICE. - 1952. - Vol. 1, No. 3. - P. 325–362.

To‘g‘on buzilishi natijasida yuzaga keladigan yorib o‘tish to‘lqinining tarqalish dinamikasini tavsiflovchi birinchi analitik yechim A. Ritter tomonidan taklif etilgan bo‘lib[10], u quruq gorizontal o‘zan uchun sayoz suv tenglamalarining aniq yechimini beradi. Keyinchalik J. Stoker [11] ushbu yechimni nishab va ishqalanishni hisobga olgan holda umumlashtirdi, biroq amaliy hisob-kitoblar uchun Ritter modeli o‘zining soddaligi va tezkorligi tufayli hozirgacha dastlabki (skrining) baholash bosqichida keng qo‘llaniladi.

Evakuatsiya jarayonini tarmoq modeli sifatida ifodalash g‘oyasi transport muhandisligidagi tiqilinch vaziyatlarda oqim-sig‘im (flow-capacity) tahliliga asoslanadi[12]. Bunday modellarda yo‘l segmentlari cheklangan o‘tkazuvchanlik quvvatiga ega tugun va qirralar shaklida ifodalanadi, natijada ommaviy evakuatsiya vaqti nafaqat masofaga, balki yo‘l tarmog‘ining “tig‘iz joylari”ga ham bog‘liq bo‘ladi.

Geoaxborot tizimlarini favqulodda vaziyatlarda qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlashda qo‘llash bo‘yicha tadqiqotlar [13] shuni ko‘rsatadiki, tarmoq tahlilining klassik algoritmlari xususan, E. Dijkstra taklif etgan eng qisqa yo‘l algoritmi[14] xavf zonalarini “taqiqlangan qirralar” sifatida kiritish orqali dinamik ravishda qayta hisoblanuvchi, xavfsiz marshrutlarni shakllantirish imkonini beradi. Bunda marshrut og‘irligi sifatida nafaqat geometrik masofa, balki harakat tezligi, yo‘l sig‘imi va suv bosish ehtimoli ham hisobga olinishi mumkin.

O‘zbekistonda gidrotexnik xavfsizlik va favqulodda vaziyatlarda aholini muhofaza qilish masalalari bo‘yicha bir qator ilmiy-amaliy ishlar mavjud bo‘lib[15], ularda, asosan, tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar, xabardor qilish tizimlari va kuch-vositalarni jalb etish tartibi tahlil qilingan. Biroq ushbu ishlarda evakuatsiya marshrutini GAT tarmoq tahlili va to‘lqin gidravlikasini birlashtirgan miqdoriy model asosida optimallashtirish masalasi yetarlicha yoritilmagan, bu esa mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

NATIJALAR

1-jadvalda uchta aholi punkti bo‘yicha hisoblangan asosiy parametrlar to‘g‘ondan masofa, to‘lqin yetib kelish vaqti (AT), standart va GAT-

[10]Ritter A. Die Fortpflanzung der Wasserwellen // ZVDI. — 1892. — Bd. 36. — S. 947–954.
[11]Stoker J.J. Water Waves: The Mathematical Theory with Applications. — New York, 1957.
[12]Wardrop J.G. Some theoretical aspects of road traffic research // Proc. ICE. — 1952. — Vol. 1, No. 3. — P. 325–362.
[13]Radke J. va boshq. Application of GIS-based models for hazard assessment and disaster preparedness // Environmental Hazards. — 2000. — Vol. 2, No. 4.
[14]Dijkstra E.W. A note on two problems in connexion with graphs // Numerische Mathematik. — 1959. — Vol. 1. — P. 269–271.
[15]O'zR FVV Akademiyasining ilmiy-uslubiy nashrlari. — Toshkent, 2021–2025.

optimallashtirilgan marshrut uzunliklari, shuningdek talab etiladigan evakuatsiya vaqti (RET) keltirilgan.

1-jadval

Aholi punktlari bo‘yicha to‘lqin va evakuatsiya parametrlarining hisob natijalari

Aholi punkti	L, km (to‘g‘ondan)	AT, min (to‘lqin kelishi)	Standart marshrut, km	GAT-optimal marshrut, km	Marshrut qisqarishi, %	RET oldin, min	RET keyin, min	Vaqt tejash, %
A - Sardobat. markazi	8,5	6,0	11,4	9,2	19,3	44,2	27,3	38,3
B - Mirzaobod t., Chorbog‘ MFY	15,2	10,8	18,6	14,7	21,0	65,8	37,6	42,9
C - Boyovut t., Chelak MFY	27,6	19,6	33,2	26,4	20,5	109,6	59,5	45,7

Jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, GAT tarmoq tahlili asosida optimallashtirilgan marshrutlar uzunligi barcha aholi punktlarida standart marshrutlarga nisbatan 19,3–21,0% ga (o‘rtacha ≈ 20,3%), talab etiladigan evakuatsiya vaqti esa 38,3–45,7% ga (o‘rtacha ≈ 42,3%) qisqargan. Vaqt tejashining marshrut qisqarishidan sezilarli darajada yuqori bo‘lishi tezlik omilining (evakuatsiya tezligi 20 dan 32 km/soatgacha oshishi) qo‘shimcha ta‘siri bilan izohlanadi.



1-rasm. Aholi punktlari bo‘yicha mavjud vaqt (AT) va talab etiladigan evakuatsiya vaqtining (RET) taqqoslanishi

1-rasmdan ko‘rinadiki, GAT asosida optimallashtirish RET qiymatini barcha hollarda sezilarli kamaytirsa-da, uning qiymati AT dan ustun bo‘lib qolmoqda: A punktida RET ning optimallashtirilgan qiymati (27,3 min) AT (6,0 min) dan ≈ 4,6 marta, B punktida ≈ 3,5 marta, C punktida ≈ 3,0 marta yuqori. Bu — to‘g‘on buzilishidan keyin boshlanadigan har qanday evakuatsiya, hatto marshrut optimallashtirilgan taqdirda ham, yaqin aholi punktlari uchun yetarli emasligini ko‘rsatuvchi muhim natijadir.

MUHOKAMA

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, GAT texnologiyalari va tarmoq tahlili algoritmlarini qo‘llash evakuatsiya jarayonining samaradorligini (marshrut uzunligi va harakat vaqti bo‘yicha) sezilarli darajada oshiradi, biroq bu yagona yechim bo‘la olmaydi. Xavfsizlik zaxirasi (AT – RET) barcha uchta aholi punktida manfiy qiymatga ega bo‘lib chiqdi, bu esa evakuatsiyani faqat to‘g‘on buzilishi sodir bo‘lgandan keyin boshlash strategiyasining tub nuqsonini ochib beradi.

Bundan kelib chiqadigan asosiy amaliy xulosa - GAT-optimallashtirilgan marshrutlar tizimi ogohlantirish tizimi bilan birgalikda, ya‘ni to‘g‘on holatini doimiy monitoring qilish natijasida buzilish xavfi yuzaga kelgan bosqichdayoq (buzilishning o‘zi sodir bo‘lishidan oldin) ishga tushirilishi zarur. Bunda RET qiymati amalda ogohlantirish uchun “havfsizlik chegarasi” sifatida foydalanilishi mumkin: masalan, A aholi punkti uchun monitoring signali kamida RET ning optimallashtirilgan qiymati ≈ 27 daqiqa oldin berilishi lozim.

Tadqiqotning bir qator cheklovlari mavjud. Birinchidan, Ritter modeli quruq gorizontal o‘zan va ishqalanishsiz oqim shartlarida qurilgan bo‘lib, real relyef,

o‘simlik qoplami va gidravlik qarshilikni hisobga olmaydi bu, odatda, to‘lqin tezligini biroz oshirib ko‘rsatadi (ya‘ni AT qiymatlari real sharoitda biroz katta bo‘lishi mumkin). Ikkinchidan, RET modelida piyoda va avtotransport oqimlari alohida ajratilmagan, aralash oqim shartli o‘rtacha tezlik orqali ifodalangan. Uchinchidan, marshrut sig‘imi tekshiruvi faqat B punkti uchun namunaviy tarzda ko‘rsatilgan; amaliy joriy etishda barcha marshrutlar uchun to‘liq sig‘im-oqim tahlili talab etiladi.

Kelgusi tadqiqotlarda Ritter modeli o‘rniga ikki o‘lchamli gidrodinamik modellar (masalan, sayoz suv tenglamalarining chekli hajmlar usulida raqamli yechimi) qo‘llanilishi, shuningdek RET modeliga real vaqt rejimidagi yo‘l tirbandligi ma‘lumotlarini integratsiya qilish tavsiya etiladi. Bu GAT-asosidagi qaror qabul qilish tizimining aniqligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Tadqiqot natijasida Sardoba suv omborining mumkin bo‘lgan avariyasi sharoitida gidravlik (Ritter) va tarmoq (Dijkstra) modellarini birlashtirgan miqdoriy baholash yondashuvi ishlab chiqildi. Uchta aholi punkti misolida GAT asosida optimallashtirilgan marshrutlar standart marshrutlarga nisbatan o‘rtacha 20,3% qisqaligi va talab etiladigan evakuatsiya vaqtini o‘rtacha 42,3% ga kamaytirishi aniqlandi. Shu bilan birga, barcha ko‘rilgan holatlarda xavfsizlik zaxirasi manfiy bo‘lib chiqdi, ya‘ni to‘g‘on buzilishidan keyin boshlanadigan evakuatsiya hatto optimal marshrut bilan ham — yaqin aholi punktlarini to‘liq muhofaza qila olmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. CRED; UNDRR. Human Cost of Disasters: An Overview of the Last 20 Years (2000–2019). — Brussels: CRED, 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi. Sardoba suv ombori to‘g‘oni bo‘yicha 2020-yil 1–2-may kunlaridagi rasmiy axborotlari.

3. Longley P. A., Goodchild M. F., Maguire D. J., Rhind D. W. Geographic Information Science and Systems. — 4th ed. — Chichester: Wiley, 2015.

4. Ritter A. Die Fortpflanzung der Wasserwellen // Zeitschrift des Vereines Deutscher Ingenieure. — 1892. — Bd. 36. — S. 947–954.

5. Stoker J. J. Water Waves: The Mathematical Theory with Applications. — New York: Interscience Publishers, 1957.

6. Wardrop J. G. Some theoretical aspects of road traffic research // Proceedings of the Institution of Civil Engineers. — 1952. — Vol. 1, No. 3. — P. 325–362.

7. Radke J., Cova T., Sheridan M. F. et al. Application of GIS-based models for hazard assessment and disaster preparedness // Environmental Hazards. — 2000. — Vol. 2, No. 4. — P. 147–169.

8. Dijkstra E. W. A note on two problems in connexion with graphs // Numerische Mathematik. — 1959. — Vol. 1. — P. 269–271.

9. O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi. Favqulodda vaziyatlarda aholini muhofaza qilish bo‘yicha ilmiy-uslubiy nashrlari. — Toshkent, 2021–2025.

ВОЗМОЖНОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА, 3D-ВИЗУАЛИЗАЦИИ И VR/AR В ФОРМИРОВАНИИ ДИАГНОСТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У ОБУЧАЮЩИХСЯ ПРИ ИЗУЧЕНИИ РЕДКИХ ЗАБОЛЕВАНИЙ (НА ПРИМЕРЕ СИНДРОМА МАРФАНА)

Тастанова С.А.
Телевизион и медиа технологии
tasmaat@mail.ru
Тастанов М. С.
ГУ «Центр информационных технологий НА СЗ при Президенте РУз»
tasmaat@gmail.com
Азларова Р.Ш.
Телевизион и медиа технологии
studentx656@tuit.uz
Исматова З.А.
Телевизион и медиа технологии
Zamiraismatova7@gmail.com

Abstract. *The article proposes a model of an educational environment that integrates artificial intelligence, 3D visualization, VR/AR, and multimodal channels (audio, dialogue, and gestures) to develop diagnostic reasoning in learning to diagnose rare diseases, using Marfan syndrome as an example. The architecture of the environment, the educational cycle, a demonstration scenario, and a simple mathematical model are described. The mathematical model enables the system to identify the type of learner error and select the next scenario accordingly. The model has not been implemented or experimentally validated; a protocol for future evaluation is presented.*

Keywords: *rare diseases, artificial intelligence, virtual reality (VR), augmented reality (AR), 3D visualization, medical education, adaptive learning, differential diagnosis.*

Annotatsiya. *Maqolada kam uçraydigan kasalliklarni taşxislaşni örgatişda diagnostik fikrlaşni rivojlantirişga qaratilgan, sun'iy intellekt, 3D-vizualizatsiya, VR/AR texnologiyalari va multimodal kanallarni (ovoz, dialog va imo-işoralar) birlaştiruvçi ta'lim muhiti modeli taklif etilgan. Marfan sindromi misolida muhit*

arxitekturasi, ta'lim jarayoni sikli, namoyiş ssenariysi va matematik modelning sodda varianti bayon etilgan. Uşbu matematik model asosida tizim ta'lim oluvçining xato turini aniqlaydi va keyingi ssenariyni tanlaydi. Model hali amalga oşirilmagan va tajriba-sinovdan ötkazilmagan; maqolada kelajakdagi tekşiruv uçun protokol keltirilgan.

Kalit sözlar: *kam uçraydigan kasalliklar, sun'iy intellekt, virtual reallik (VR), kengaytirilgan reallik (AR), 3D-vizualizatsiya, tibbiy ta'lim, adaptiv ta'lim, differensial taşxis.*

Аннотация. *В статье предложена модель образовательной среды, объединяющая искусственный интеллект, 3D-визуализацию, VR/AR и мультимодальные каналы (звук, диалог, жесты) для формирования диагностического мышления при обучении диагностике редких заболеваний на примере синдрома Марфана. Описаны архитектура среды, образовательный цикл, демонстрационный сценарий и простая математическая модель, по которой система определяет тип ошибки обучающегося и выбирает следующий сценарий. Модель не реализована и не проверялась экспериментально; приведён протокол будущей проверки.*

Ключевые слова: *редкие заболевания, искусственный интеллект, виртуальная реальность (VR), дополненная реальность (AR), 3D-визуализация, медицинское образование, адаптивное обучение, дифференциальная диагностика.*

Введение

Каждое редкое заболевание встречается нечасто, поэтому будущие врачи видят мало реальных пациентов, а клиницисты отмечают потребность в обучении диагностике таких состояний [1]. Синдром Марфана хорошо подходит как пример: поздняя диагностика может привести к расслоению аорты, а диагноз опирается на формализованные критерии Гентской номенклатуры [8].

Диагностическое мышление формируется через накопленные клинические образы и целенаправленную практику [9, 10], а объём учебной нагрузки нужно соотносить с возможностями обучающегося [11]. VR, 3D-визуализация и генеративный ИИ изучаются в медицинском образовании по отдельности [2–4], но для редких заболеваний сценарии, объединяющие эти технологии, в просмотренных источниках не найдены. В Узбекистане AR/VR внедряются в симуляционных центрах вузов, однако найденные источники описывают оснащение, а не образовательный эффект.

Цель работы — предложить модель образовательной среды на основе ИИ, 3D-визуализации, VR/AR и мультимодальных технологий для формирования диагностического мышления при редких заболеваниях на примере синдрома Марфана.

Modelni dastlab sakkiz haftalik sinov rejasida, haftasiga ikki alohida mashg‘ulot kuni doirasida tekshirish taklif etiladi. Bu universal optimal davomiylik emas, kelgusi pedagogik tajriba uchun tashkiliy variantdir. Mashg‘ulotlar orasida tiklanish imkoniyati qoldiriladi; kunlar sportchining mavjud sprint va kuch tayyorgarligi jadvaliga muvofiqlashtiriladi. NSCAning yoshlar kuch mashg‘ulotlarini ketma-ket bo‘lmagan kunlarda o‘tkazish tavsiyasi umumiy yo‘nalish beradi, ammo aynan ushbu sakkiz haftalik modelni tasdiqlamaydi [6].

Yuklamani boshqarish va pedagogik nazorat

Yuklama qaydida mashq nomi, seriya va takrorlar, har bir oyoqdagi bajarilish, qo‘nishlar soni, dam olish hamda sirt turi ko‘rsatilishi kerak. Masalan, ikki oyoqda bir marta qo‘nish bilan bir oyoqda bir marta qo‘nish bir xil mexanik talab sifatida qabul qilinmaydi. Hisob birligi oldindan aniqlanib, butun kuzatuv davomida o‘zgartirilmaydi. Sprint yugurishlari va boshqa sakrashlar ham umumiy mashg‘ulot yuklamasining tarkibiy qismi sifatida qayd etiladi.

Yuklamani oshirish qarori uchun oddiy kuzatuv mezonlari taklif qilinadi: urinishlarning barqaror bajarilishi, qo‘nishda muvozanat, mashq paytidagi va keyingi holat, keyingi sprint topshirig‘ining sifati. Bir vaqtda hajmni, murakkablikni va intensivlikni oshirish o‘rniga o‘zgarishlar izchil kiritiladi. Tizza yoki to‘piqda og‘riq, oqsoqlanish, yaqqol asimmetriya kuzatilsa, topshiriq to‘xtatilib, sabab mutaxassis tomonidan baholanadi. Balandlikdan chuqurlikka sakrashlar boshlang‘ich bosqichning majburiy vositasi sifatida olinmaydi.

Murabbiy kundaligi faqat bajarilgan ishni emas, o‘zgartirish sababini ham aks ettirishi lozim. Masalan, rejalashtirilgan seriya qisqartirilgan bo‘lsa, bunga texnik buzilishmi yoki oldingi mashg‘ulotdan qolgan charchoqmi sabab bo‘lgani yoziladi. Bu qaydlar keyinchalik natija o‘zgarmaganida dasturni samarasiz deb shoshilinch baholashning oldini oladi. Shuningdek, qatnashuv va amalda bajarilgan yuklama reja bilan alohida solishtiriladi.

Muhokama va tadqiqot cheklovlari

Ko‘rib chiqilgan ishlar plyometrik tayyorgarlikni sprint mashg‘ulotiga qo‘shimcha vosita sifatida o‘rganish uchun asos beradi. Biroq dalillar bir xil guruhdan olinmagan: yosh yengil atletikachilar, yoshi kattaroq sprinterlar,

futbolchilar va maxsus shug‘ullanmagan o‘smirlar o‘rtasida muhim farqlar mavjud [1–5]. Shu bois ushbu maqoladan 14–15 yoshli sprinterlar uchun aniq samaradorlik foizi yoki yagona optimal yuklama chiqarib bo‘lmaydi.

Maqolaning amaliy natijasi — biologik yetilish, harakat sifati va sprint vazifasini birgalikda hisobga oluvchi mashq tanlash modelidir. Uning samaradorligi hali mustaqil tekshirilmagan. Keyingi tajribada birlamchi natija sifatida standartlashtirilgan 30 metrga yugurish vaqti, qo‘shimcha natijalar sifatida uchib kirib yugurish va sakrash testlari olinishi mumkin. Qiz va o‘g‘il sportchilar bo‘yicha xulosalar guruh tarkibi va tanlanma imkoniyati doirasida alohida chegaralanishi zarur.

Xulosa

14–15 yoshli qisqa masofaga yuguruvchilarda plyometrik mashqlarni tanlashda asosiy mezon mashqning sprint vazifasiga muvofiqligi va sportchining uni sifatli bajarishga tayyorligidir. Birlamchi tadqiqotlar bu vositani qo‘llash imkoniyatini qo‘llab-quvvatlaydi, ammo yosh, jins va tayyorgarlik farqlarini e’tiborsiz qoldirishga asos bermaydi. Taklif etilgan bosqichli modelda avval qo‘nish nazorati, keyin takroriy depsinish, undan so‘ng sprintga yaqinroq mashqlar ustuvor bo‘ladi. Model haqidagi yakuniy samaradorlik xulosasi nazorat guruhi va ishonchli o‘lchashlar bilan o‘tkaziladigan pedagogik tajribaga tayanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Chelly M. S., Hermassi S., Shephard R. J. Effects of In-Season Short-term Plyometric Training Program on Sprint and Jump Performance of Young Male Track Athletes // Journal of Strength and Conditioning Research. — 2015. — Vol. 29, No. 8. — P. 2128–2136. — DOI: 10.1519/JSC.0000000000000860.

2. Lloyd R. S., Radnor J. M., De Ste Croix M. B. A., Cronin J. B., Oliver J. L. Changes in Sprint and Jump Performances After Traditional, Plyometric, and Combined Resistance Training in Male Youth Pre- and Post-Peak Height Velocity // Journal of Strength and Conditioning Research. — 2016. — Vol. 30, No. 5. — P. 1239–1247. — DOI: 10.1519/JSC.0000000000001216.

3. Maćkała K., Fostiak M. Acute Effects of Plyometric Intervention—Performance Improvement and Related Changes in Sprinting Gait Variability // Journal of Strength and Conditioning Research. — 2015. — Vol. 29, No. 7. — P. 1956–1965. — DOI: 10.1519/JSC.0000000000000853.

4. Sáez de Villarreal E., Suarez-Arrones L., Requena B., Haff G. G., Ferrete C. Effects of Plyometric and Sprint Training on Physical and Technical Skill

Performance in Adolescent Soccer Players // Journal of Strength and Conditioning Research. — 2015. — Vol. 29, No. 7. — P. 1894–1903. — DOI: 10.1519/JSC.0000000000000838.

5. Zhao Y., Zhang G. Effect of vertical and horizontal plyometric training on physical fitness performance in 13–14-year-old untrained boys // BMC Sports Science, Medicine and Rehabilitation. — 2026. — Vol. 18. — Article 212. — DOI: 10.1186/s13102-026-01562-7.

6. Faigenbaum A. D., Kraemer W. J., Blimkie C. J. R., Jeffreys I., Micheli L. J., Nitka M., Rowland T. W. Youth Resistance Training: Updated Position Statement Paper From the National Strength and Conditioning Association // Journal of Strength and Conditioning Research. — 2009. — Vol. 23, Suppl. 5. — P. S60–S79. — DOI: 10.1519/JSC.0b013e31819df407.

ИГРОВЫЕ ПРИЁМЫ В КОРРЕКЦИИ МОТОРНОЙ АЛАЛИИ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Тожихонова Гулфина Алимжановна
Ташкентский международный университет
gulfina.tajixanova@gmail.ru

Abstract. *The paper examines the selection of play-based techniques for preschool children with motor alalia. Vocabulary and phrase development, levels of support, and assessment of independent communication are discussed. The paper is theoretical and analytical.*

Keywords: *motor alalia, play-based techniques, speech and language therapy, phrase speech.*

Annotatsiya. *Motor alaliyali maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda o‘yin usullarini tanlash asoslari ko‘rib chiqiladi. Lug‘at va frazali nutqni rivojlantirish, yordam hajmi hamda mustaqil muloqotni baholash masalalari yoritilgan. Ish nazariy-tahliliy xususiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *motor alaliya, o‘yin usullari, logopedik korreksiya, frazali nutq.*

Аннотация. *Рассматриваются основания выбора игровых приёмов при моторной алалии у дошкольников. Обсуждаются развитие словаря и фразовой речи, объём помощи и оценка самостоятельного общения. Работа имеет теоретико-аналитический характер.*

Ключевые слова*: моторная алалия, игровые приёмы, логопедическая коррекция, фразовая речь.*

Введение. Коррекция моторной алалии у дошкольников предполагает формирование языковых средств и их использование в общении. В языковой концепции экспрессивной алалии В. А. Ковшикова существенное значение имеют нарушения операций порождения высказывания [1]. Поэтому содержание помощи не должно ограничиваться артикуляционными упражнениями или повторением отдельных слов. Игровая ситуация рассматривается как способ включить речевую задачу в понятную ребёнку деятельность.

Цель работы — рассмотреть основания выбора игровых приёмов в коррекции моторной алалии у дошкольников. Использованы теоретический анализ и содержательное обобщение научно-методических источников.

Основная часть. В учебнике М. Ю. Аюповой логопедическая помощь рассматривается с позиций системности, комплексности, развития и индивидуального подхода [2]. Применительно к игре это означает необходимость учитывать исходные речевые возможности ребёнка. Привлекательность игрушек сама по себе не определяет коррекционную ценность занятия: важно установить, какое действие осваивается и как оценивается изменение.

Следует различать игровое оформление упражнения и ситуацию, в которой речь служит передаче сообщения. Называние картинки ради фишки преимущественно сохраняет учебную задачу. Просьба выбрать предмет для персонажа или сообщить о действии связывает слово с конкретным намерением. Оба варианта могут включаться в занятие, однако их назначение необходимо разграничивать.

При работе над словарём можно использовать знакомые предметные действия. Например, в игре «Соберём куклу на прогулку» ребёнок выбирает вещи и использует доступные названия. Специалист уточняет, какие слова понятны, какие произносятся самостоятельно, а какие — после образца. Один сюжет позволяет решать разные задачи: понимание слова, называние и включение слова во фразу. Эти результаты не следует оценивать как тождественные.

При формировании грамматического оформления речевой материал соотносится с конкретным языковым отношением. Р. И. Лалаева и Н. В. Серебрякова рассматривают лексику и грамматику как взаимосвязанные направления работы [3]. В игре «Угости игрушку» можно использовать знакомые предметы для выражения выбранного отношения. Не следует одновременно перегружать задание незнакомыми словами и несколькими новыми формами. Материалы по общему недоразвитию речи применяются избирательно, а не как универсальная программа коррекции алалии.

Для развития фразовой речи значимо выражение связи между участником, действием и предметом. Игровые действия с машиной и фигурками позволяют обсуждать, кто едет, что везёт машина и кому предназначен груз. Повторение готового предложения не тождественно самостоятельному построению фразы. Поэтому необходимо наблюдать,

использует ли ребёнок конструкцию при изменении персонажа или действия.

Речевая инициатива требует внимания к намерению дошкольника. Взрослый создаёт понятную ситуацию выбора, просьбы или сообщения и предоставляет время для ответа. Игра не должна превращаться в требование произнести нужную фразу любой ценой. Если речевых средств недостаточно, учитываются доступные способы выражения намерения и предлагается посильный образец.

Объём помощи является отдельным параметром задания. Указательный жест, выбор из двух предметов, начало фразы и полный образец создают разные условия. Следовательно, фиксируются не только правильность ответа, но и использованная поддержка. Проверка при меньшей помощи позволяет различать совместное действие и самостоятельное использование речи.

В русско-узбекской языковой среде учитываются язык общения и знакомство с лексикой. М. Ю. Аюпова подчёркивает связь логопедического анализа с закономерностями языка [2]. Грамматическое упражнение нельзя механически переносить с одного языка на другой. Ошибка рассматривается с учётом речевого опыта ребёнка; само двуязычие не является достаточным объяснением нарушения.

Участие семьи может включать понятные игровые ситуации в повседневном общении. Родителям объясняют речевую задачу, допустимую помощь и предмет наблюдения. Домашняя игра не заменяет профессиональную диагностику. Сведения семьи помогают уточнить, использует ли ребёнок освоенные средства вне занятия, с другими собеседниками и в новых обстоятельствах.

Оценка результата должна соответствовать цели. Если отрабатывалось называние, анализируется называние; если самостоятельное обращение — наблюдается инициативная речь. Заинтересованность и завершение сюжета характеризуют взаимодействие, но не доказывают речевую динамику. Для вывода об эффективности требуются отдельное исследование и сопоставимые показатели.

Заключение. Игровые приёмы позволяют организовать речевой материал вокруг доступного действия и коммуникативного намерения. Их выбор должен опираться на индивидуальные возможности дошкольника, конкретную языковую задачу и необходимую поддержку. Методическое значение имеет не количество игр, а обоснованность применения и

точность оценки. Представленный теоретический анализ не устанавливает преимуществ отдельного приёма.

Список литературы

1. Ковшиков В. А. Экспрессивная алалия и методы её преодоления. – Санкт-Петербург: КАРО, 2006. – 304 с.

2. Ayupova M. Yu. Logopediya: darslik / L. R. Mo‘minova tahriri ostida. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. – 560 b.

3. Лалаева Р. И., Серебрякова Н. В. Формирование правильной разговорной речи у дошкольников. – Ростов-на-Дону: Феникс; Санкт-Петербург: Союз, 2004. – 224 с.

SELF-DIRECTED LEARNING: DE FACTO EXISTENCE AND LEGAL NON-RECOGNITION

Bekchanov Yashnarbek Jumanazar o‘g‘li
Urganch State University named after Abu Rayhan Beruniy Lecturer,
https://orcid.org/0009-0004-6276-5081
bekchanovyashnarbek@gmail.com

Abstract. *The thesis examines student independent work in higher education up to the close of the twentieth century as an activity that escaped the legislator's attention yet operated in real teaching practice. It exposes the divergence between the pedagogical definition, the basis on which study load was calculated and legal regulation, and substantiates "legal phantom" as an analytical device distinct from a legal gap and a legal vacuum.*

Keywords: *independent work, legal phantom, de facto existence, de jure non-formation, study load, legal gap, administrative-command system, education law.*

Annotatsiya. *Tezisda XX asr oxirigacha oliy ta'limda talabaning mustaqil mehnati qonunchilik e'tiboridan chetda qolgan, biroq o'quv jarayonida real ishlagan faoliyat sifatida tahlil qilinadi. Pedagogik ta'rif, o'quv yuklamasini hisoblash asosi va huquqiy tartibga solish o'rtasidagi tafovut ochiladi hamda "huquqiy fantom" tushunchasi huquqiy bo'shliq va huquqiy vakuumdan farqlanadigan tahliliy vosita sifatida asoslanadi.*

Kalit so'zlar: *mustaqil mehnat, huquqiy fantom, de-fakto mavjudlik, de-yure shakllanmaganlik, o'quv yuklamasi, huquqiy bo'shliq, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi, ta'lim huquqi.*

Аннотация. *В тезисах самостоятельный труд студента в высшем образовании до конца XX века анализируется как деятельность, оставшаяся вне внимания законодателя, но реально функционировавшая в учебном процессе. Раскрывается расхождение между педагогическим определением, основанием расчёта учебной нагрузки и правовым регулированием, а понятие «правовой фантом» обосновывается как аналитический инструмент, отличный от правового пробела и правового вакуума.*

Ключевые слова: *самостоятельный труд, правовой фантом, фактическое существование, юридическая неоформленность, учебная нагрузка, правовой пробел, административно-командная система, образовательное право.*

Introduction. A legal institution can be understood today only if its earlier standing is fixed with precision. In the present credit-module system, self-directed learning is an officially recorded part of the study load. Until the close of the twentieth century, by contrast, the work a student did outside the lecture room was not a distinct subject of education law. Pedagogical writing treated it as an important activity, while legal texts left its place invisible. This discrepancy predetermined the later legal fate of self-directed learning.

Three markers were applied to assess the period: how firmly the activity was secured by norms; how clearly the powers and duties of the participants were drawn; and what consequence followed when a duty was not met. The thesis seeks to show what these markers meant for the first period and to explain the essence of the condition "present in practice, absent from law". Its tasks are to pinpoint the real object of regulation, to set the scholarly definition against legislative practice, and to demonstrate the effects of organising the work on a discretionary basis.

Main part. The real object of regulation. The administrative-command model ran education through a strictly centralised procedure. Under such a system, normative attention is directed first of all to the control of scarce resources, namely teacher time and the stock of lecture rooms [1, p. 85]. As a result, the only object of legal regulation became the hours spent together with the teacher. The teacher's workload, staffing units and the volume of funding were all calculated from those hours. Because a student's work outside the lecture room never entered this calculation, neither its volume, nor its content, nor the conditions for its performance appeared in any document.

The gap between scholarship and legislation. Soviet pedagogy stressed the importance of independent work. P.I. Pidkasistiy, for example, defined it as learning activity carried out without the teacher's direct participation but on the teacher's assignment and under the teacher's guidance [2, p. 245]. That definition, however, did not find its way into legislation. Scholarship acknowledged the activity, while the law neither measured nor counted it. Consequently only lecture-room hours were regulated, and a student's work outside class time was not recognised as official study load. Describing this condition as a mere "absence

of a norm" is insufficient: the activity existed, and so did a system that organised it and demanded results from it; the law simply stayed outside that system.

The category of the "legal phantom". Such a condition may conventionally be called a "legal phantom": the activity exists in fact (de facto) but is not formed in law (de jure). Three features distinguish it. First, the status, volume and assessment criteria of the activity were not fixed in any document. Second, its organisation rested not on uniform rules but on the personal discretion of the teacher. Third, its effect on the final result was unclear. As an instrument of analysis, the category separates two situations: a total absence of a norm and a norm that fails to cover real activity.

Consequences of discretion. Assignments that depend on a teacher's personal choice lose systematic character in content and volume. One subject may demand a great deal and another almost nothing, so that the load on students is distributed unevenly. Without an assessment mechanism, the work turns into an informal process that does not influence the final result [1, p. 85]. The effectiveness of independent work therefore depended not on a systemic guarantee but on the initiative of an individual teacher. In legal terms this meant that no reference norm existed either for demanding quality or for asking anyone to answer for its absence.

Historical significance. Analysis of the first period shows that the absence of legal regulation produced several gaps at once: the object itself was not counted, the duties of the participants were not set, and what would follow from a violation was left unclear. These very gaps later made it necessary to turn the field into a coherent institution. The phased shift to credit-module teaching that began in the 2020/2021 academic year [3] may be assessed as a step against the first of these gaps, since by recording independent work in hours and credits it recognises the object itself.

Methodological conclusion. To assess a historical stage correctly, one must study not only the list of documents but also the relationship between documents and real practice, because in the case of independent work the lack of a norm did not mean the lack of a practice. For that reason it is correct to describe the first stage as "unregulated activity" and incorrect to describe it as "non-existent activity".

A test of legal formation. Four questions can be put to check whether an activity is legally formed: is it recognised as a separate concept; is its volume measured; are the parties obliged to perform or secure it; and is there a remedy or form of liability when it is violated. Soviet-era independent work gives no clear

positive answer to any of them. The concept was recognised in pedagogy but not as a legal concept; its volume was not counted; the obligation lay mainly on the student, often as an informal demand; and no remedy was visible at all. A "no" or "informal" answer on all four questions supports the diagnosis of a "legal phantom".

The teaching model and legal attention. One reason regulation was confined to lecture-room hours lay in the educational model itself. Where knowledge is delivered ready-made and then reproduced, the teacher's work in the auditorium is treated as primary and the student's independent work as auxiliary. For an auxiliary activity there seems to be no need for separate legal rules. When the development of independent thinking and of the capacity to manage one's own learning becomes the central aim, the activity stops being auxiliary and a need for its legal regulation arises. Legal non-formation was therefore no accident but a logical outcome of the educational approach.

Groups of consequences. The effects of legal non-formation fall into four groups. Organisational: time, resources and consultation were not planned for independent work. Evaluative: the work done had no definite share in the final grade. Protective: neither student nor teacher had a norm to rely on in a dispute. Developmental: since the quality of independent work was not measured, there was no basis for decisions to improve it. These groups work as a checklist of the directions in which later regulation had to be built.

Limits and prospects of the study. The thesis does not analyse the specific normative acts of the first period; its conclusions rest on descriptions in the existing pedagogical and legal literature. A subsequent study could compare curricula and internal instructions of that time on the basis of archival sources. This would supplement the "legal phantom" diagnosis with documentary evidence and make its grounding firmer.

Distinguishing the concepts. The notion of a "legal phantom" must be distinguished from a legal gap and a legal vacuum. A legal gap means that a given relation ought to be regulated by legislation but is not. A legal vacuum means that norms are absent in an entire field. In a phantom situation, by contrast, the activity works in practice, is recognised by scholarship and is even regarded as an inseparable part of the learning process, yet lacks legal expression. The concept therefore gives a more exact diagnosis than "gap": the problem lies not in the absence of a norm but in the separation of real activity from the legal system.

The nature of the term. The concept is proposed as an analytical tool and not as a normative category. It makes it possible to set the first period apart from

later stages and to measure how far the distance between activity and law narrowed at each stage. In this sense the first period is the point where the distance is greatest, and the later periods are assessed as steps toward shortening it.

Conclusion. First, in the decades preceding the twentieth century's close, independent work existed in higher education in practice but was not formed in law. Second, the main reason was that regulation was directed at controlling resource expenditure and counted only the hours spent together with the teacher. Third, the gap between scholarly definition and legislation gave rise to a discretionary, unsystematic practice. Fourth, this experience shows that in analysing the present legal institution one must separate the notions "the activity exists" and "the activity is secured in law".

References

1. Jumaniyazova N. S. Modern Reforms in Enhancing Higher Education Quality: Philosophical Foundations and Legal Frameworks // International Journal of Scientific Trends (IJST). – 2024. – Vol. 4, No. 5. – P. 85.

2. Пидкасистый П. И. Педагогика. Учебное пособие для студентов педагогических вузов и педагогических колледжей [Pedagogy: A textbook for students of pedagogical universities and colleges]. – М.: Педагогическое общество России, 1998. – С. 245.

3. Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 824 of 31 December 2020 "On measures to improve the system related to the organisation of the educational process in higher education institutions" [in Uzbek].

INKLYUZIV TA’LIMDA INDIVIDUAL VA DIFFERENSIAL YONDASHUVNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Berdinazarova Muxlisa Beknazar qizi
berdinazarovamuxlisa01946@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu tezisda inklyuziv ta’lim jarayonida individual va differensial yondashuvlarni qo‘llashning pedagogik ahamiyati, nazariy asoslari hamda amaliy imkoniyatlari yoritilgan. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, o‘quv jarayonini moslashtirish va ta’lim samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilingan. Individual va differensial yondashuvlarni uyg‘unlashtirish orqali har bir o‘quvchining bilish imkoniyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari va rivojlanish sur’atlariga mos ta’lim muhitini tashkil etish yo‘llari asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar. *inklyuziv ta’lim, individual yondashuv, differensial yondashuv, alohida ta’lim ehtiyojlari, pedagogik shart-sharoitlar, ta’limni individuallashtirish, teng imkoniyatlar, pedagogik texnologiyalar, individual ta’lim yo‘nalishi, ta’lim samaradorligi.*

Kirish

Bugungi kunda ta’lim tizimini takomillashtirish, har bir bolaning sifatli ta’lim olish huquqini ta’minlash va ta’lim jarayonida teng imkoniyatlar yaratish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, inklyuziv ta’limni rivojlantirish, ta’lim muassasalarida barcha o‘quvchilar uchun qulay va qo‘llab-quvvatlovchi muhitni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Inklyuziv ta’lim nafaqat alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni umumiy ta’lim jarayoniga jalb etish, balki har bir o‘quvchining individual imkoniyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlari va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim olishiga sharoit yaratishni ham nazarda tutadi.

An’anaviy ta’lim jarayonida ko‘pincha barcha o‘quvchilarga bir xil mazmun, usul va topshiriqlar asosida bilim berishga ustuvorlik beriladi. Biroq o‘quvchilarning bilim darajasi, axborotni qabul qilish tezligi, fikrlash xususiyatlari, ijtimoiy tajribasi va o‘rganish ehtiyojlari bir-biridan farq qiladi.

Ayniqsa, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar bilan ishlashda yagona yondashuvdan foydalanish ayrim o‘quvchilarning ta’lim jarayonida faol ishtirok etishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Shu sababli inklyuziv ta’limda individual va differensial yondashuvlardan foydalanish muhim pedagogik zarurat hisoblanadi.

Individual va differensial yondashuvlar o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlarini e’tiborga olish, ta’lim mazmuni va metodlarini moslashtirish, har bir bolaning ta’lim olishdagi faolligini oshirish hamda uning imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuvlar o‘quvchilar o‘rtasidagi farqlarni kamchilik sifatida emas, balki ta’lim jarayonini tashkil etishda hisobga olinishi lozim bo‘lgan tabiiy xususiyatlar sifatida qabul qilishga asoslanadi.

Asosiy qism

Individual yondashuv — bu o‘quvchining shaxsiy xususiyatlari, bilish imkoniyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari, rivojlanish sur’ati va mavjud qiyinchiliklarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishdir. Bunda pedagog har bir o‘quvchining o‘ziga xos jihatlarini aniqlaydi, uning imkoniyatlariga mos topshiriqlarni tanlaydi va zarur pedagogik yordamni ko‘rsatadi. Individual yondashuvning asosiy maqsadi o‘quvchining mavjud imkoniyatlarini rivojlantirish, mustaqil faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va ta’lim jarayonida muvaffaqiyatga erishishiga yordam berishdan iborat.

Differensial yondashuv esa o‘quvchilarni ta’lim ehtiyojlari, tayyorgarlik darajasi, o‘rganish sur’ati yoki topshiriqlarni bajarish imkoniyatlariga ko‘ra farqlash hamda ularga mos ta’lim usullari, vazifalar va yordam shakllarini taklif etishni anglatadi. Bunda ta’lim mazmuni, topshiriqlarning murakkablik darajasi, o‘quv faoliyatini tashkil etish usullari va natijalarni namoyon etish shakllari moslashtirilishi mumkin. Individual yondashuv alohida o‘quvchining xususiyatlariga yo‘naltirilsa, differensial yondashuv o‘quvchilar o‘rtasidagi farqlarni hisobga olib, turli topshiriqlar, metodlar va yordam darajalaridan foydalanishni nazarda tutadi. Ularni uyg‘unlashtirish har bir bolaning ehtiyojlariga mos pedagogik sharoit yaratadi.

Inklyuziv ta’limda individual yondashuv, avvalo, har bir o‘quvchining shaxs sifatida qadrlanishi va uning ta’lim olish huquqi ta’minlanishi bilan belgilanadi. O‘quvchining imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish ta’lim jarayonidagi qiyinchiliklarni aniqlash, tegishli yordamni tashkil etish va uning faol ishtirokini kengaytirishga xizmat qiladi. Pedagog bolaning bilim darajasi, topshiriqlarni bajarish tezligi va axborotni qabul qilish xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘quv materialini tushuntirishi mumkin. Ayrim o‘quvchilar og‘zaki izoh orqali,

boshqalari esa ko‘rgazmali vositalar, rasmlar, jadvallar yoki amaliy mashg‘ulotlar yordamida samaraliroq o‘rganadi.

Individual yondashuv o‘quvchining psixologik holati va o‘ziga bo‘lgan ishonchini ham qo‘llab-quvvatlaydi. Imkoniyatlarga mos topshiriqlar berilishi, kichik yutuqlarning e’tirof etilishi va xatolarga rivojlanish jarayonining tabiiy qismi sifatida munosabat bildirilishi ta’limga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi. Zarur hollarda qo‘shimcha tushuntirish, yo‘riqnoma, ko‘rgazmali namuna yoki texnik vositalardan foydalanish o‘quvchining topshiriqni imkon qadar mustaqil bajarishiga yordam beradi. O‘quvchining dastlabki bilimlari va keyingi natijalarini taqqoslash esa qo‘llanilayotgan metodlarning samaradorligini baholash imkonini beradi.

Differensial yondashuv barcha o‘quvchilarning umumiy ta’lim maqsadlariga erishishida ishtirok etishini ta’minlaydi, biroq ularga taqdim etiladigan yordam, topshiriq shakli yoki o‘quv materialining murakkablik darajasi farqlanishi mumkin. Uni amalga oshirishda bir necha yo‘nalish muhimdir. Birinchidan, ta’lim mazmuni o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi va ehtiyojlariga mos tarzda taqdim etiladi. Ikkinchidan, og‘zaki tushuntirish, ko‘rgazmali namoyish, amaliy mashg‘ulot, juftlikda ishlash, kichik guruhlar va raqamli vositalardan foydalaniladi. Uchinchidan, topshiriqlarning bosqichlari, hajmi, murakkabligi yoki bajarish shakli moslashtiriladi. To‘rtinchidan, baholashda o‘quvchining rivojlanish dinamikasi, belgilangan o‘quv maqsadlari va topshiriqni bajarish sharoitlari hisobga olinadi.

Differensial yondashuv o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligini ham rivojlantiradi. Kichik guruhlarda ishlash, juftlikdagi topshiriqlar va o‘zaro yordamga asoslangan faoliyat orqali bolalarda hamkorlik, muloqot, o‘zaro hurmat va ijtimoiy mas’uliyat ko‘nikmalari shakllanadi. Shu bilan birga, o‘quvchilarni doimiy ravishda “zaif” yoki “kuchli” guruhlarga ajratib qo‘yishdan saqlanish lozim. Guruhlar topshiriq va o‘quv maqsadiga qarab moslashuvchan tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Individual va differensial yondashuvlarning samaradorligi bir qator pedagogik shart-sharoitlarga bog‘liq. Birinchi shart — o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash. Bunda pedagogik kuzatish, suhbat, o‘quv topshiriqlari natijalarini tahlil qilish va ota-onalar bilan hamkorlikdan foydalanish mumkin. Ehtiyojlarni aniqlash o‘quvchini yorliqlash yoki imkoniyatlarini cheklash uchun emas, balki zarur yordamni tashkil etish uchun amalga oshirilishi kerak.

Ikkinchi shart — pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish. O‘qituvchi inklyuziv ta’lim tamoyillari, differensial ta’lim metodlari, individual ta’lim rejasini ishlab chiqish, moslashtirilgan materiallarni tayyorlash va o‘quvchilarning rivojlanishini baholash bo‘yicha yetarli bilim hamda ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim. Uchinchi shart — qulay va to‘siqlarsiz ta’lim muhitini yaratish. Bunda jismoniy muhitning qulayligi, materiallarning tushunarliligi, zarur texnik vositalarning mavjudligi va psixologik xavfsizlik ta’minlanadi.

To‘rtinchi shart — oila va mutaxassislar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish. O‘qituvchi, ota-ona, psixolog, maxsus pedagog va boshqa tegishli mutaxassislarning hamkorligi o‘quvchining ehtiyojlarini yaxshiroq tushunish hamda pedagogik yordamni izchil tashkil etish imkonini beradi. Beshinchi shart — ta’lim natijalarini muntazam monitoring qilish. O‘quvchining rivojlanishi yakuniy baholar bilan birga darsdagi faolligi, mustaqil ishlash ko‘nikmalari, o‘quv materialini tushunishi va ijtimoiy munosabatlardagi ishtiroki orqali ham baholanishi kerak.

Mazkur yondashuvlarni boshlang‘ich sinfdagi matematika darsi misolida ko‘rib chiqish mumkin. O‘qituvchi “Ikki xonali sonlarni qo‘shish” mavzusini o‘rgatayotganda, barcha o‘quvchilar uchun umumiy maqsad qo‘shish amalini tushunish va misollarni yechish bo‘ladi. Sonlar tarkibini tushunishda qiynalayotgan o‘quvchilar bilan sanoq cho‘plari yoki sonli chiziq yordamida ishlash mumkin. Boshqa o‘quvchilar misollarni mustaqil yechishi, ayrimlari esa murakkabroq masalalar tuzishi mumkin. Yozma topshiriqda qiynaladigan o‘quvchiga bosqichma-bosqich yo‘riqnoma, qo‘shimcha vaqt yoki javobni muqobil shaklda ifodalash imkoniyati beriladi. Bu misolda umumiy ta’lim maqsadi saqlanadi, ammo unga erishish yo‘llari o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashtiriladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta’limda individual va differensial yondashuvlardan foydalanish har bir o‘quvchining ta’lim olish huquqini ro‘yobga chiqarish, individual imkoniyatlarini rivojlantirish va ta’lim jarayonidagi to‘siqlarni kamaytirishda muhim pedagogik ahamiyatga ega. Individual yondashuv o‘quvchining shaxsiy xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olishga yo‘naltirilsa, differensial yondashuv ta’lim mazmuni, metodlari, topshiriqlari va yordam shakllarini moslashtirishga xizmat qiladi.

Ushbu yondashuvlarning uyg‘unligi o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘ziga

bo‘lgan ishonchini mustahkamlash va jamoada hamkorlik qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ularni samarali amalga oshirish uchun pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, qulay ta’lim muhitini yaratish, ota-onalar va mutaxassislar bilan hamkorlikni kuchaytirish hamda ta’lim natijalarini muntazam tahlil qilish zarur.

Quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin: 1) bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida inklyuziv ta’limga oid nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtirish; 2) o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash va mos pedagogik yordam ko‘rsatish bo‘yicha ko‘nikmalarni rivojlantirish; 3) ko‘rgazmali, interfaol, raqamli va moslashtirilgan o‘quv vositalaridan foydalanish; 4) baholashda individual rivojlanish dinamikasi va ta’lim maqsadlariga erishish darajasini hisobga olish; 5) oila, pedagoglar, psixologlar va maxsus pedagoglar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish.

Demak, individual va differensial yondashuvlar inklyuziv ta’limni tashkil etishning muhim pedagogik vositalari bo‘lib, ularni tizimli va maqsadga muvofiq qo‘llash ta’lim sifatini oshirish, teng imkoniyatlarni ta’minlash va har bir o‘quvchining salohiyatini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. O‘RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi. “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonun. O‘RQ-641-son, 2020-yil 15-oktabr.

3. United Nations. Convention on the Rights of Persons with Disabilities. – New York, 2006.

4. UNESCO. A Guide for Ensuring Inclusion and Equity in Education. – Paris: UNESCO, 2017.

5. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2020: Inclusion and Education: All Means All. – Paris: UNESCO, 2020.

6. Tomlinson C. A. How to Differentiate Instruction in Academically Diverse Classrooms. – 3rd ed. – Alexandria, VA: ASCD, 2017.

7. Florian L., Black-Hawkins K. Exploring inclusive pedagogy // British Educational Research Journal. – 2011. – Vol. 37, № 5. – P. 813–828.

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK DIAGNOSTIKANI TASHKIL ETISHNING ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA AMALIY AHAMIYATI

Nazarov Davron Baxtiyor o'g'li
Alfraganus universiteti
Orcid ID: 0009-0000-7488-0707
psixodiagnostika.uz@gmail.com

Annotation. *This thesis examines the scientific and methodological foundations of organizing psychological diagnostics in the system of lifelong education and its practical significance. Based on a regulatory legal document and scientific studies by Uzbek researchers, the reliability and validity of psychodiagnostic methods, as well as their suitability for age-related and individual characteristics, are analyzed. The key aspects of comprehensive evaluation of diagnostic results, the use of artificial intelligence technologies, and the provision of targeted psychological support are also summarized.*

Keywords: *lifelong education, psychological diagnostics, psychodiagnostic methods, reliability, validity, psychological assessment, artificial intelligence, psychological services, targeted psychological support.*

Annotatsiya. *Mazkur tezisda uzluksiz ta'lim tizimida psixologik diagnostikani tashkil etishning ilmiy-metodologik asoslari va amaliy ahamiyati yoritilgan. Normativ-huquqiy hujjat va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlari asosida psixodiagnostik metodikalarning ishonchliligi, validligi hamda yosh va individual xususiyatlarga mosligi tahlil qilingan. Shuningdek, diagnostika natijalarini kompleks baholash, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish va manzilli psixologik yordamni tashkil etishning muhim jihatlari umumlashtirilgan.*

Kalit so'zlar: *uzluksiz ta'lim, psixologik diagnostika, psixodiagnostik metodikalar, ishonchlilik, validlik, psixologik baholash, sun'iy intellekt, psixologik xizmat, manzilli psixologik yordam.*

Аннотация. *В данном тезисе рассматриваются научно-методологические основы организации психологической диагностики в системе непрерывного образования и её практическое значение. На основе нормативно-правового документа и научных исследований отечественных*

учёных проанализированы надёжность, валидность психодиагностических методик, а также их соответствие возрастным и индивидуальным особенностям. Кроме того, обобщены основные аспекты комплексной оценки результатов диагностики, применения технологий искусственного интеллекта и организации адресной психологической помощи.

Ключевые слова: *непрерывное образование, психологическая диагностика, психодиагностические методики, надёжность, валидность, психологическая оценка, искусственный интеллект, психологическая служба, адресная психологическая помощь.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim sifati va samaradorligi ta’lim jarayoni ishtirokchilarining psixologik farovonligi, motivatsiyasi va emotsional barqarorligi bilan uzviy bog‘liq. Yosh va individual-psixologik xususiyatlar hamda stress omillari psixologik holatni muntazam baholash, muammolarni erta aniqlash va ilmiy asoslangan psixodiagnostik yondashuvlardan foydalanish zaruratini yuzaga keltiradi.

Uzluksiz ta’lim tizimida psixologik diagnostikani tashkil etishda metodikalarning ishonchliligi, validligi, yosh va individual xususiyatlarga mosligi hamda natijalarning xolis talqin qilinishi alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda diagnostik baholashni ta’lim bosqichlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirish, olingan ma’lumotlarni kompleks tahlil qilish va psixologik yordamga bo‘lgan ehtiyojlarni aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan hisoblanadi. Shuningdek, psixodiagnostik natijalarni suhbat va kuzatuv ma’lumotlari bilan birgalikda tahlil qilish shaxsning psixologik holatini kengroq kontekstda baholash imkonini beradi.

Shu jihatdan, psixologik diagnostikani ilmiy-metodologik talablar asosida tizimli tashkil etish va uning natijalaridan maqsadli psixologik yordam ko‘rsatishda foydalanish psixologik xizmat faoliyatini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Asosiy qism

Uzluksiz ta’lim tizimida psixologik diagnostikani tizimli tashkil etish ta’lim oluvchilar va pedagoglarning individual-psixologik xususiyatlarini o‘rganish, psixologik ehtiyojlarini aniqlash hamda manzilli yordam ko‘rsatishda muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 19-oktabrdagi “Uzluksiz ta’lim tizimida psixologik xizmat sohasini ilmiy asosda rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–379-sonli qarorida psixologik diagnostikani tizimli tashkil etish va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan

ustuvor yo‘nalishlar belgilangan [1]. Qarorga muvofiq, ta’lim oluvchilar va pedagoglarni har o‘quv yilida kamida bir marta psixologik diagnostikadan o‘tkazish tizimini 2026/2027-o‘quv yilidan maktabgacha va umumiy o‘rta ta’limda, 2027/2028-o‘quv yilidan esa o‘rta maxsus, kasbiy va oliy ta’limda bosqichma-bosqich joriy etish nazarda tutilgan. Mazkur vazifalar diagnostik baholashni ilmiy asoslangan, izchil va amaliy yordamga yo‘naltirilgan tizim sifatida rivojlantirishning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Psixologik diagnostikaning ilmiy-metodologik asoslarini yoritishda mahalliy olimlarning tadqiqotlari alohida o‘rin tutadi. Jumladan, A.I.Rasulovning “Shaxs psixodiagnostikasi metodikalarining ilmiy-amaliy asoslari” mavzusidagi DSc tadqiqotida shaxsning psixologik xususiyatlarini turli axborot manbalari asosida baholash, metodikalarni mahalliy ijtimoiy-madaniy sharoitga moslashtirish va natijalarni qayta ishlash masalalari o‘rganilgan [2]. Ushbu yondashuv psixodiagnostik vositalarni tanlashda respondentlarning yosh, til va individual xususiyatlarini hisobga olish zarurligini asoslaydi. Bunda metodikalarning ishonchliligi, validligi va standartlashtirilganligi diagnostik xulosalarning ilmiy asoslanganligini ta’minlovchi asosiy mezonlar hisoblanadi.

Psixologik diagnostikada shaxsning individual xususiyatlarini ijtimoiy-psixologik muhit bilan bog‘liq holda o‘rganish muhim ahamiyatga ega. D.R.Turayevaning “O‘zbekistonda ta’lim sifatini oshirishda o‘qituvchi–o‘quvchi hamkorligining ijtimoiy-psixologik asoslari” nomli monografiyasida jamoaviy muhit, pedagogik muloqot, hamkorlikka tayyorlik hamda motivatsion omillarning ta’lim jarayoni samaradorligi bilan bog‘liqligi tahlil qilingan [3]. Mazkur ilmiy qarashlar psixologik diagnostika jarayonida shaxsning individual xususiyatlari bilan bir qatorda ta’lim muhiti va shaxslararo munosabatlarni ham hisobga olishning ahamiyatini ko‘rsatadi. Shu jihatdan, diagnostika natijalarini psixologik suhbat, kuzatuv va boshqa ishonchli ma’lumotlar bilan birgalikda tahlil qilish diagnostik xulosalarning xolisligi va ilmiy asoslanganligini oshirishga xizmat qiladi.

Psixologik diagnostikaning mazmuni ta’lim bosqichlariga xos yosh va rivojlanish xususiyatlarini inobatga olgan holda belgilanishi maqsadga muvofiq. Maktabgacha ta’limda emotsional va ijtimoiy rivojlanish, umumiy o‘rta ta’limda o‘quv motivatsiyasi va psixologik moslashuv, oliy ta’limda esa akademik stress, kasbiy o‘zini anglash va ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlik ustuvor yo‘nalishlar hisoblanadi. M.H.Tilavovning oliy ta’lim tizimida psixologik xizmat usullarini takomillashtirishga bag‘ishlangan PhD tadqiqotida stressni boshqarish, motivatsion qo‘llab-quvvatlash va shaxslararo munosabatlar masalalari yoritilgan

[4]. Ushbu ilmiy qarashlar diagnostik ma’lumotlardan individual maslahat, profilaktik tadbirlar va rivojlantiruvchi mashg‘ulotlarni rejalashtirishda foydalanish imkoniyatlarini ochib beradi. Pedagoglarning psixologik holatini baholashda esa emotsional barqarorlik, kasbiy zo‘riqish va muloqot xususiyatlarini o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

Mahalliy olimlarning ilmiy qarashlarini umumlashtirish psixologik diagnostikaning metodologik asoslarini o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlarda tahlil qilish imkonini beradi. Xususan, psixodiagnostik metodikalarning mahalliy sharoitga muvofiqligi, shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini ijtimoiy-psixologik muhit bilan bog‘liq holda baholash hamda diagnostika natijalarining psixologik xizmat faoliyatidagi ahamiyati o‘zaro uzviy bog‘liqdir. Mazkur jihatlarning uyg‘unligi uzluksiz ta’lim tizimida psixologik diagnostikani tashkil etishning ilmiy-metodologik mazmunini yanada kengroq yoritishga asos bo‘ladi.

Xulosa.

Uzluksiz ta’lim tizimida psixologik diagnostikaning samaradorligi metodikalarning ilmiy asoslanganligi, ishonchliligi, validligi hamda natijalarning xolis talqin etilishiga bog‘liq. Shu bois diagnostikani psixologik ehtiyojlarni aniqlash, individual yordamni belgilash va uning natijadorligini qayta baholashga yo‘naltirilgan izchil jarayon sifatida tashkil etish maqsadga muvofiq.

Psixologik diagnostika samaradorligini oshirishda metodikalarni mahalliy sharoitga moslashtirish, psixolog va mentor-psixologlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, sun’iy intellekt yordamida olingan natijalarni mutaxassis nazoratida talqin qilish hamda shaxsiy ma’lumotlar maxfiyligini ta’minlash ustuvor ahamiyat kasb etadi. Mazkur choralarning izchil amalga oshirilishi psixologik muammolarni erta aniqlash, profilaktika ishlarini takomillashtirish va ta’lim oluvchilar hamda pedagoglarga ko‘rsatiladigan manzilli psixologik yordam sifatini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2026-yil 19-oktabrdagi PQ–379-sonli “Uzluksiz ta’lim tizimida psixologik xizmat sohasini ilmiy asosda rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – 2026. – https://lex.uz/docs/-8548735.

2. Rasulov A. I. Shaxs psixodiagnostikasi metodikalarining ilmiy-amaliy asoslari: psixologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti, 2020. – 70 b.

3. Turayeva D. R. O‘zbekistonda ta’lim sifatini oshirishda o‘qituvchi–o‘quvchi hamkorligining ijtimoiy-psixologik asoslari: monografiya. – Toshkent: Dizayn Market, 2025. – 220 b.

4. Tilavov M. H. Oliy ta’lim tizimida psixologik xizmat ko‘rsatish usullarini takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. 19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya. – Buxoro, 2023.

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING TANQIDIY FIKRLASHI VA RAQAMLI SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Norkulova Nilufar Abdimukim qizi
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Abstract. *This scientific article analyzes the theoretical and methodological foundations, leading international pedagogical models, and practical methods for developing and enhancing students' critical thinking skills and digital literacy (information competence) in a digital learning environment. The article provides a scientific rationale for the effectiveness of integrating the TPACK, SAMR, PICRAT, ADDIE, and SECTIONS models, as well as such educational approaches as Flipped Learning, Project-Based Learning, and Blended Learning, alongside project planning methods such as Delphi and PERT.*

Keywords: *digital learning environment, digital pedagogy, critical thinking, digital literacy, information competence, TPACK, SAMR, PICRAT, project-based learning, flipped classroom, e-Portfolio.*

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada raqamli ta'lim muhitida talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalari hamda raqamli savodxonligini (axborot kompetentligini) shakllantirish va rivojlantirishning nazariy- metodologik asoslari, ilg'or xalqaro pedagogik modellari hamda amaliy usullari tahlil qilinadi. Ilmiy maqolada TPACK, SAMR, PICRAT, ADDIE va SECTIONS modellari integratsiyasi, shuningdek, «Flipped Learning» (teskari sinf), «Project-Based Learning» (loyihaga asoslangan ta'lim), «Blended Learning» (aralash ta'lim) va Delphi hamda PERT kabi loyihalash metodlarining samaradorligi ilmiy asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *raqamli ta'lim muhiti, raqamli pedagogika, tanqidiy fikrlash, raqamli savodxonlik, axborot kompetentligi, TPACK, SAMR, PICRAT, loyihaga asoslangan ta'lim, teskari sinf, e-Portfolio.*

XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal sur'atlarda rivojlanishi jamiyatning barcha sohalari qatori ta'lim tizimini ham tubdan yangilashni taqozo etmoqda. Zamonaviy mehnat bozori talablari va xalqaro

ta’lim andozalari talaba-yoshlardan tayyor bilimlarni shunchaki passiv yod olishni emas, balki shiddatli axborot oqimida erkin mo‘ljal olish, birlamchi va ikkilamchi manbalarni tahliliy saralash hamda mustaqil va tanqidiy qaror qabul qilish layoqatini talab qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini raqamlashtirish, universitetlarning moddiy-texnik va elektron-resurs bazasini zamonaviylashtirish hamda talabalarning raqamli kompetensiyalarini yuksaltirish bo‘yicha keng qamrovli davlat dasturlari va strategik chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ilmiy kuzatuvlar va pedagogik amaliyot shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarning didaktik jarayonga to‘g‘ri va maqsadli tatbiq etilishi o‘quv faoliyatini individuallashtirishga, talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishi hamda o‘zlashtirish samaradorligini 30–40 foizga oshirishga, eng muhimi, mustaqil o‘rganish va o‘z-o‘zini baholash salohiyatini kengaytirishga xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan, raqamli ta’lim muhitida talabalarning passiv axborot iste’molchisidan faol izlanuvchi, tanqidiy mulohaza yurituvchi va raqamli savodxon mutaxassisga aylanish jarayonining pedagogik mexanizmlari hamda metodik tizimini ilmiy asoslash muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA NAZARIY ASOSLAR

Raqamli pedagogika va ta’lim muhiti tushunchasi axborot texnologiyalari va pedagogik jarayonlarning o‘zaro sinergetik hamkorligi negizida shakllanuvchi kompleks tizim hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda mazkur tushuncha turli qirralardan tadqiq etilgan. Jumladan, S.V. Petrenko raqamli pedagogik muhitni shaxsning tarbiyasi, ta’limi va intellektual rivojlanish maqsadlariga xizmat qiladigan yaxlit texnologik va axborot ta’minotini kafolatlovchi integrativ dasturiy-kommunikativ tizim deb ta’riflaydi. M.A. Skiba esa uni axborotni to‘plash, saqlash, qayta ishlash, shuningdek, talaba va o‘qituvchi o‘rtasida ikki tomonlama aloqani va kasbiy-ilmiy kommunikatsiyani ta’minlovchi maxsus tashkiliy-metodik vositalar yig‘indisi sifatida baholaydi.

Raqamli pedagogik muhitda inson va kompyuter o‘rtasidagi didaktik hamkorlik «kommunikatsiyaning kognitivligi tamoyili» asosida tashkil topadi. Xorijiy ta’lim nazariyasida M. Prensky «raqamli avlod» (digital natives) konsepsiyasini ilgari surib, an’anaviy o‘qitish usullari zamonaviy talabalar psixologiyasiga mos kelmasligini, ularga interaktiv va multimediali texnologiyalar orqali yondashish zarurligini isbotlagan. L. Harasim onlayn ta’lim virtual muhitda

talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi interaktiv muloqotni jadallashtiruvchi yangi ijtimoiy-konstruktivistik madaniyat ekanini ko‘rsatib berdi.

Taniqli pedagog olim Dj. Xouell (J. Howell) raqamli pedagogikani shunchaki kompyuter vositalarini darsga olib kirish emas, balki texnologiyani ta’limning kutilayotgan didaktik natijalari bilan uyg‘unlashtiruvchi tizimli faoliyat sifatida ta’riflaydi. Xouell ta’lim jarayonida o‘qituvchi rolini «sinfdagi yagona ekspert va bilim beruvchi» mavqeidan «hamkor-ijodkor (co-collaborator)» va jarayon fasilitatori darajasiga ko‘tarishni talab etadi. S.D. Kalinina esa raqamli

pedagogika an’anaviy ta’limni inkor etmasdan, balki mavjud didaktik tizimni innovatsion raqamli instrumentlar bilan boyitishini va samaradorligini oshirishini asoslaydi.

RAQAMLI TA’LIM MUHITINING DIDAKTIK XUSUSIYATLARI

Raqamli ta’lim muhiti an’anaviy auditoriya ta’limidan o‘zining ko‘p qirrali didaktik imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Bu xususiyatlar talabalarda mustaqil tahlil va tanqidiy tafakkurni shakllantirishning moddiy va pedagogik zamini bo‘lib xizmat qiladi:

- ✓ Moslashuvchanlik (Flexibility): O‘quv jarayonining vaqt, makon va geografik chegaralardan xoli ravishda tashkil etilishi, talabaga o‘ziga qulay grafik asosida ta’lim olish imkonini berishi.
- ✓ Yuqori interaktivlik: O‘qituvchi va talaba, shuningdek, talabalarning o‘zaro real vaqtda (sinxron) yoki kechiktirilgan (asinxron) holda muloqot qilishi, fikr almashishi va jamoaviy tahlil olib borishi.
- ✓ Personalizatsiya va individuallashtirish: Har bir ta’lim oluvchining shaxsiy ehtiyojlari, qiziqishlari, mavjud bilim darajasi va qabul qilish sur’atiga moslashtirilgan raqamli ta’lim yo‘nalishini yaratish imkoniyati.
- ✓ Ma’lumotlarga asoslangan monitoring (Data-driven): O‘quvchining tizimdagi har bir harakati, mustaqil o‘qish vaqti, test va keys topshiriqlarini bajarish dinamikasini LMS platformalari vositasida avtomatlashtirilgan tahlil qilish.
- ✓ Polimodallik va multimedialilik: Matn, audio, infografika, video ma’ruzalar, interaktiv simulyatsiyalar va 3D modellarning bir vaqtning o‘zida qo‘llanishi orqali murakkab tushunchalarni ko‘rgazmali va tahliliy anglashni osonlashtirish.

TANQIDIY FIKRLASH VA RAQAMLI SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH MODELLARI

Raqamli ta’lim muhitida talabalarning tanqidiy fikrlashini shakllantirish shunchaki kompyuter dasturlaridan foydalanish ko‘nikmasini emas, balki chuqur metodologik modellaruyg‘unligini talab etadi. Xalqaro amaliyotda o‘z samarasini isbotlagan quyidagi modellar asosiy o‘rin tutadi:

TPACK modeli (Technological Pedagogical Content Knowledge)

TPACK modeli ta’limda uch asosiy bilim turini integratsiyalaydi: fan mazmuni (Content Knowledge — CK), pedagogik uslublar (Pedagogical Knowledge — PK) va texnologik imkoniyatlar (Technological Knowledge — TK). Ushbu model talabalarda texnologiyani shunchaki yordamchi vosita sifatida emas, balki fan doirasidagi muammolarni tanqidiy tahlil qilish, muqobil yechimlarni modellashtirish va ilmiy faktlarni saralash vositasi sifatida qarashni shakllantiradi.

SAMR modeli (Substitution, Augmentation, Modification, Redefinition)

R. Puentedura tomonidan yaratilgan SAMR modeli raqamli vositalarning ta’limdagi qo‘llanish chuqurligini to‘rt bosqichda tavsiflaydi:

1. Substitution (Almashtirish): An’anaviy vositalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri elektron shaklga ko‘chirish (masalan, qog‘oz darslik o‘rniga PDF matn o‘qish). Funksional o‘zgarish yuz bermaydi.

2. Augmentation (Boyitish): Raqamli vositalar orqali qo‘shimcha qulayliklar yaratish (masalan, matn ichida giperhavolalar, izohli lug‘atlar yoki avtomatik tekshiruvchi testlardan foydalanish).

3. Modification (O‘zgartirish): O‘quv topshirig‘ining tuzilishini tubdan o‘zgartirish (masalan, talabalar bulutli muhitda hamkorlikda tahliliy hisobot yozadilar, o‘zaro taqriz beradilar).

4. Redefinition (Qayta shakllantirish): Ilgari an’anaviy darsda amalga oshirish imkonsiz bo‘lgan mutlaqo yangi vazifalarni bajarish (masalan, virtual laboratoriyada xalqaro loyiha ustida simulyatsiya o‘tkazish, video-tadqiqot tayyorlash). Aynan Modification va Redefinition bosqichlari talabalarning chuqur tanqidiy va tahliliy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

PICRAT modeli

PICRAT modeli ikki o‘lchovli pedagogik matritsa bo‘lib, u talabaning texnologiyaga nisbatan harakatini (Passive — passiv, Interactive — interaktiv, Creative — ijodiy) hamda o‘qituvchining texnologiyadan foydalanish darajasini (Replacement — almashtirish, Amplification — kuchaytirish, Transformation — tubdan o‘zgartirish) baholaydi. Talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun ta’lim jarayoni passiv-almashtirish (PR) doirasidan chiqib, ijodiy-transformatsion (CT — Creative-Transformation) darajaga ko‘tarilishi shart.

SECTIONS va ADDIE loyihalash modellari

Texnologik vositalarni didaktik maqsadlarga mos tanlashda SECTIONS modeli (talabalar ehtiyoji, foydalanish qulayligi, iqtisodiy samaradorlik, o‘qitish usullari, interaktivlik, tashkiliy muhit, tarmoq imkoniyatlari va axborot xavfsizligi) muhim mezon bo‘ladi. Ta’lim dizaynini bosqichma-bosqich rejalashtirishda esa ADDIE modeli (Tahlil — Loyihalash — Ishlab chiqish — Tatbiq etish — Baholash) tizimlilikni ta’minlaydi.

AMALIY METODLAR VA DIDAKTIK VOSITALAR INTEGRATSIYASI

Talabalarda tanqidiy fikrlash va raqamli savodxonlikni bir vaqtning o‘zida shakllantirish uchun zamonaviy interaktiv metodlarni maqsadli integratsiyalash zarur. Quyidagi jadvalda asosiy metodlar, ularning tanqidiy tafakkurni rivojlantirishdagi vazifasi hamda tavsiya etiladigan raqamli vositalar tizimi ifodalangan:

Metod/ Texnologiya	Didaktik mohiyati va tanqidiy fikrlashga ta’siri	Qo’llaniladigan raqamli vositalar
Flipped Learning (Teskari sinf)	Nazariy bilimlar talabalar tomonidan darsdan oldin mustaqil o‘zlashtiriladi. Auditoriya vaqti faqat munozara, muammoli vaziyatlar tahlili, gipotezalarni tekshirish va tanqidiy baholashga ajratiladi.	LMS tizimlari (Moodle, Google Classroom), videoma’ruzalar, interaktiv podkastlar, Edpuzzle.
Project-Based Learning (Loyihaga asoslangan ta’lim)	Talabalar real amaliy yoki ilmiy muammolarni hal etish uchun axborot to‘playdi, saralaydi, faktcheking qiladi va raqamli loyiha yoki dasturiy yechim ishlab chiqadi.	Hamkorlikdagi bulutli xizmatlar (Google Workspace, Notion, Miro), GitHub, Trello.
Blended Learning (Aralash ta’lim)	An’anaviy auditoriya ta’limi va masofaviy mustaqil faoliyat uyg‘unlashib, talabalarda o‘z-o‘zini boshqarish, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi.	Onlayn platformalar, virtual laboratoriyalar, vebinar modullari (Zoom, Teams).

Digital Microlearning (Raqamli mikrota'lim)	Axborotning katta hajmini ixcham, mantiqiy tugallangan bloklarga ajratish orqali tushunchalar o'rtasidagi bog'liqlikni tezkor aniqlash va xulosalash qobiliyatini o'stiradi.	Mobil ilovalar, interaktiv infografikalar, qisqa elektron keyslar, Quizizz.
Delphi va PERT metodlari (Prognozlash va loyihalash)	Ekspertlar fikrini ko'p bosqichli tahlil qilish, kutilayotgan natijalarni matematik va mantiqiy bashorat qilish hamda guruhli ekspert xulosasini shakllantirish.	Elektron so'rovnomalar (Google Forms), loyihalash vositalari (MS Project), modellashtirish dasturlari.

Topshiriqlarni mazmunan qayta loyihalash talabalarda raqamli savodxonlikni rivojlantirishning asosiy omilidir. An'anaviy ma'ruza matnini konspekt qilish o'rniga talabalarga mavzu bo'yicha tahliliy infografika chizish, 60 soniyali ilmiy videorolik tayyorlash yoki feyk ma'lumotlarni aniqlash bo'yicha keyslarni yechish vazifasi berilganda, ularda axborotni sintezlash, tahrir qilish va tanqidiy baholash ko'nikmalari organik tarzda shakllanadi.

XULOSA VA AMALIY TAVSIYALAR

Raqamli ta'lim muhitida talabalarning tanqidiy fikrlashi va raqamli savodxonligini

shakllantirish zamonaviy oliy ta'limning strategik vazifalaridan biridir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, texnologik vositalarning o'zigina ta'lim sifatini kafolatlamaydi; ular faqat ilg'or pedagogik modellar, mustaqil faoliyat va tizimli didaktik dizayn bilan uyg'unlashgandagina kutilgan kognitiv natijani beradi.

Oliy ta'lim amaliyotida ushbu jarayon samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

1. O'quv topshiriqlarini mazmunan transformatsiya qilish: Tayyor bilimlarni qayta takrorlashga asoslangan an'anaviy vazifalar o'rniga axborotni mustaqil izlash, ilmiy asoslangan faktlarni saralash va tahliliy media mahsulotlar yaratishga qaratilgan topshiriqlar tizimini joriy etish.

2. Ilg'or pedagogik modellarni integratsiyalash: O'quv mashg'ulotlarini loyihalashda TPACK, SAMR va PICRAT modellariga tayangan holda, talabalarni passiv qabul qiluvchi bosqichdan ijodiy-transformatsion (Creative-Transformation) darajaga ko'tarish.

3. Faol va interaktiv metodlarni kengaytirish: «Flipped Learning» va loyihaviy ta'lim usullarini keng tatbiq etish orqali auditoriya mashg'ulotlarini

nazariy ma’ruzalardan erkin tahlil, bahs-munozara va muammoli keyslar yechish maydoniga aylantirish.

4. e-Portfolio va ko‘p bosqichli baholashni yo‘lga qo‘yish: Talabaning individual o‘sish dinamikasini baholashda e-Portfolio va mezonli formativ baholash vositalaridan tizimli foydalanish.

5. Professor-o‘qituvchilarning raqamli-metodik kompetentligini yuksaltirish: Pedagog kadrlarning nafaqat texnik savodxonligini, balki raqamli didaktika, axborot psixologiyasi va talabalarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi bo‘yicha malakasini muntazam oshirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Delov T. E., Norboyev Sh. S. Raqamli ta’lim vositalarining zamonaviy pedagogik jarayondagi o‘rni va samaradorligi // Interpretation and Researches. — 2023. — Vol. 1, Issue 10 (56). — B. 4–9.

2. Maqsudov U. Q., Sotvoldiyev A. S. Raqamli texnologiyalar va interaktiv vositalar yordamida o‘quvchilarning mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini shakllantirish // Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. — Farg‘ona, 2026. — B. 33–36.

3. Ahmedov A. M. Raqamli pedagogik muhitda talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent: TDPU, 2023. — 42 b.

4. Raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish: dissertatsiya. — Toshkent, 2024. — 180 b.

5. Kdirbaeva G. K. O‘zbekiston sharoitida raqamli pedagogikaning mazmuni, imkoniyatlari va amaliy ahamiyati // Respublika ilmiy jurnali. — Nukus, 2023. — B. 110–114.

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA YUQORI SINF O'QUVCHILARINING MUSTAQIL O'QUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI

Furqat Maxmatmo'minovich Norqulov
Termiz davlat pedagogika instituti doktaranti
ORCID: 0009-0008-6384-5488
fnorqulov2020@gmail.com

Abstract*. The article examines the pedagogical conditions for organizing independent learning activities of senior high school students in a digital educational environment. The aim of the study is to theoretically substantiate the conditions that contribute to the effective organization of independent learning and to propose practical recommendations. The analysis is based on a review of theoretical literature, pedagogical observation and generalization of practice. Four conditions are identified: clearly designed learning goals and tasks, the use of digital resources for metacognitive purposes, an individual learning pathway, and formative assessment combined with virtual feedback. It is substantiated that their joint implementation helps develop students' self-regulation skills.*

Keywords: *digital educational environment, independent learning activity, senior high school students, pedagogical condition, self-regulation, digital resources, formative assessment.*

Annotatsiya*. Maqolada raqamli ta'lim muhitida yuqori sinf o'quvchilarining mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etishning pedagogik shartlari yoritilgan. Tadqiqotning maqsadi mustaqil ta'lim faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi shartlarni nazariy asoslash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tahlil nazariy adabiyotlarni o'rganish, pedagogik kuzatuv va umumlashtirishga asoslangan. Natijada to'rtta shart — o'quv maqsadlari va topshiriqlarining aniq loyihalanishi, raqamli resurslardan metakognitiv maqsadda foydalanish, individual o'quv yo'l xaritasi hamda shakllantiruvchi baholash va virtual qayta aloqa tizimi ajratib ko'rsatildi. Ushbu shartlarning*

birgalikda amalga oshirilishi o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam berishi asoslantirildi.

Kalit so'zlar: *raqamli ta'lim muhiti, mustaqil o'quv faoliyati, yuqori sinf o'quvchilari, pedagogik shart, o'z-o'zini boshqarish, raqamli resurslar, shakllantiruvchi baholash.*

Аннотация*. В статье рассматриваются педагогические условия организации самостоятельной учебной деятельности старшеклассников в цифровой образовательной среде. Цель исследования — теоретически обосновать условия, способствующие эффективной организации самостоятельной учебной деятельности, и разработать практические рекомендации. Анализ основан на изучении теоретической литературы, педагогическом наблюдении и обобщении опыта. В результате выделены четыре условия: четкое проектирование целей и заданий, использование цифровых ресурсов в метакогнитивных целях, индивидуальная карта учебного пути, а также формирующее оценивание и виртуальная обратная связь. Показано, что их совместная реализация способствует формированию навыков самоуправления у учащихся.*

Ключевые слова: *цифровая образовательная среда, самостоятельная учебная деятельность, старшеклассники, педагогическое условие, самоуправление, цифровые ресурсы, формирующее оценивание.*

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimi an'anaviy bilim berish modelidan shaxsga yo'naltirilgan, faol va mustaqil o'rganishga asoslangan modelga tomon o'zgarmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi o'quvchilarga bilim manbalaridan erkin foydalanish imkonini berdi, shu bilan birga ularning o'z o'quv faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash ko'nikmalariga bo'lgan talabni oshirdi. Ayniqsa, yuqori sinf o'quvchilari oldida turgan vazifa — o'rta maktabdan keyingi ta'lim va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'rish uchun ilmiy yondashuv bilan ishlash qobiliyatini shakllantirishdir.

Raqamli ta'lim muhiti elektron darsliklar, onlayn platformalar, interaktiv mashqlar, virtual laboratoriyalar va masofaviy aloqa vositalarining o'zaro bog'langan tizimi sifatida o'quvchilarga mustaqil o'qish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, raqamli vositalarning mavjudligi o'z-o'zidan mustaqil faoliyat samaradorligini ta'minlamaydi. Ko'pgina o'quvchilar resurslarga ega bo'lsa-da, ularni maqsadga muvofiq tanlay olmaydi, vaqtini taqsimlay olmaydi va o'z natijalarini tahlil qilishda qiynaladi [1; 3].

Shu sababli, raqamli muhitda mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etishning pedagogik shartlarini aniqlash va asoslash dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi. Maqolaning maqsadi — yuqori sinf o'quvchilarining mustaqil o'quv faoliyatini raqamli muhitda samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi pedagogik shartlarni nazariy jihatdan asoslash va ularni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar berishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat: mustaqil o'quv faoliyatining mohiyati va tarkibini aniqlash; raqamli ta'lim muhitining imkoniyatlari hamda cheklovlarini tahlil qilish; mustaqil faoliyatni tashkil etishning asosiy pedagogik shartlarini belgilash va ularning mazmunini ochib berish. Tadqiqotda nazariy adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuv va umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

ASOSIY QISM

1. Mustaqil o'quv faoliyatining mohiyati

Mustaqil o'quv faoliyati o'quvchining o'qituvchi bevosita ishtirokisiz yoki uning minimal yordami bilan o'quv maqsadlarini belgilash, rejalashtirish, bajarish va natijalarini nazorat qilish bilan bog'liq faoliyatidir. Bu faoliyat o'quvchida bilimni faol o'zlashtirish, tanqidiy fikrlash va o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantiradi. Andragogika nazariyasi ko'rsatganidek, o'rganuvchi o'z ta'lim jarayoniga qanchalik faol jalb etilsa, olingan bilim shunchalik barqaror bo'ladi [2; 6].

Zimmerman o'z-o'zini tartibga soluvchi o'rganish modelida mustaqil o'rganishning uch komponentini ajratadi: oldindan rejalashtirish (maqsad qo'yish va strategiyani tanlash), bajarish jarayonida nazorat qilish hamda yakuniy mulohaza (natijani baholash va zarur o'zgartirishlarni kiritish) [3]. Ushbu model yuqori sinf o'quvchilari uchun ayniqsa muhim, chunki aynan shu bosqichda ular kelajakdagi o'quv faoliyatining mustaqilligi va muvaffaqiyatini belgilovchi ko'nikmalarni shakllantiradilar.

Mustaqil faoliyatning samaradorligi motivatsiya, o'quv strategiyalaridan foydalanish, vaqtni boshqarish, o'z natijalarini baholash hamda yordam so'rash va resurslarni tanlash ko'nikmalari bilan belgilanadi. Ushbu tarkibiy qismlardan birortasi zaiflashsa, faoliyat sekinlashadi yoki sifati pasayadi.

2. Raqamli ta'lim muhitining imkoniyatlari va cheklovlari

Raqamli muhit mustaqil faoliyat uchun bir qator afzalliklar yaratadi. Birinchidan, o'quv materiallari vaqt va makon cheklovisiz mavjud bo'lib, o'quvchiga o'z tempida ishlash imkonini beradi. Ikkinchidan, interaktiv mashqlar va avtomatik tekshiruv tizimlari darhol teskari aloqa beradi. Uchinchidan, onlayn

muhitda o'quvchi o'z ishlarini kuzatish, jurnal yuritish va natijalar dinamikasini ko'rish imkoniga ega bo'ladi. Ta'lim muhitini loyihalash bo'yicha tadqiqotlar bu imkoniyatlarning samaradorligi o'quv loyihasining sifatiga bog'liqligini ta'kidlaydi [5].

Biroq raqamli muhitning cheklovlari ham mavjud. Ko'p miqdordagi axborot o'quvchini chalg'itishi, sifatsiz manbalarni tanlash xavfi, ijtimoiy tarmoq va o'yinlarga berilish, shuningdek, o'qituvchi bilan jonli muloqotning kamayishi shular jumlasidandir. Garrison va hamkorlarining tadqiqoti ko'rsatadiki, onlayn muhitda o'quvchilarning kognitiv faolligini ta'minlash uchun aniq tuzilgan muloqot va tanqidiy mulohaza uchun maxsus shart-sharoitlar talab etiladi [4]. Demak, hal qiluvchi omil raqamli muhitning o'zi emas, balki uni pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etishdir.

3. Mustaqil faoliyatni tashkil etishning pedagogik shartlari

Tahlil natijalariga ko'ra, yuqori sinf o'quvchilarining mustaqil o'quv faoliyatini raqamli muhitda samarali tashkil etish uchun quyidagi to'rtta pedagogik shart ajratib ko'rsatildi: (1) mustaqil faoliyat maqsad va topshiriqlarining aniq hamda bosqichma-bosqich loyihalanishi; (2) raqamli resurslardan metakognitiv maqsadda foydalanish; (3) individual o'quv yo'l xaritasi va o'z-o'zini monitoring qilish; (4) shakllantiruvchi baholash va virtual qayta aloqa tizimi. Pedagogika nazariyasida bunday shartlar ta'lim jarayonining samaradorligini belgilovchi omillar sifatida ko'rib chiqiladi [7]. Quyida ularning har biri alohida ko'rib chiqiladi.

3.1. Maqsad va topshiriqlarning aniq, bosqichma-bosqich loyihalanishi

Birinchi shart — mustaqil faoliyatning maqsadi o'quvchi uchun aniq, o'lchash mumkin bo'lgan va tushunarli bo'lishidir. Noaniq topshiriqlar, masalan, "mavzuni o'rganing" degan ko'rsatma o'quvchini chalkashtiradi va faoliyatni boshlashni qiyinlashtiradi. Aksincha, "kvadrat tenglamaning diskriminantini tahlil qilib, uch xil holat uchun grafik misollar keltiring" kabi topshiriq harakatni aniq yo'naltiradi.

Topshiriqlar murakkablik darajasi bo'yicha bosqichlarga bo'linishi lozim: avval tayanch tushunchalarni o'zlashtirish, so'ng ularni amalda qo'llash, oxirida esa mustaqil tahlil yoki ijodiy loyiha. Bu yondashuv Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi g'oyasiga mos keladi: o'quvchi o'z imkoniyatidan biroz yuqori bo'lgan vazifani mustaqil hal qilishi uchun zarur qadamlar oldindan belgilanadi [1].

3.2. Raqamli resurslardan metakognitiv maqsadda foydalanish

Ikkinchi shart — raqamli vositalarning faqat axborot manbai sifatida emas, balki o'quvchining o'z fikrlash jarayonini kuzatish va boshqarish vositasi sifatida qo'llanishidir. Masalan, o'quvchi videodarsni ko'rib bo'lgach, o'z tushunishini belgilangan savollar orqali tekshiradi; onlayn kundalikda har bir bosqich bo'yicha qiyinchiliklarni qayd etadi; interaktiv test natijalarini tahlil qilib, qaysi mavzu bo'yicha qo'shimcha ish kerakligini aniqlaydi.

Bunday yondashuv o'quvchini passiv iste'molchidan faol izlanuvchiga aylantiradi. Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, metakognitiv strategiyalarni ongli ravishda qo'llash o'quvchining o'z o'rganish jarayonini nazorat qilish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi [3]. Shu sababli raqamli vositalarning vazifasi bilimni tayyor holda "berish"dan ko'ra, o'quvchining o'z bilimini tahlil qilishiga yordam berishga yo'naltirilishi kerak [8].

3.3. Individual o'quv yo'l xaritasi va o'z-o'zini monitoring qilish

Uchinchi shart — har bir o'quvchi uchun individual o'quv yo'l xaritasini tuzish va uni muntazam monitoring qilishdir. Yo'l xaritasi o'quvchining boshlang'ich darajasini, maqsadli natijani, haftalik yoki kunlik rejani, bajarilgan va qolgan bosqichlarni hamda o'z-o'zini baholash mezonlarini o'z ichiga oladi. Raqamli muhitda bu xarita elektron jadval, onlayn taqvim yoki boshqaruv platformasi shaklida yuritilishi mumkin.

O'z-o'zini monitoring qilish o'quvchidan har bir sessiya yakunida qisqa mulohaza yozishni talab qiladi: nima o'rganildi, qaysi qism qiyin bo'ldi, keyingi qadam nima. Bu odat o'quvchida vaqtni boshqarish va o'zini nazorat qilish ko'nikmasini shakllantiradi. Shuningdek, yo'l xaritasi o'quvchiga o'z taraqqiyotini ko'rish imkonini berib, motivatsiyani saqlab turadi.

3.4. Shakllantiruvchi baholash va virtual qayta aloqa tizimi

To'rtinchi shart — mustaqil faoliyat natijalarini muntazam, shakllantiruvchi xarakterdagi baholash va o'z vaqtida qayta aloqa bilan ta'minlashdir. Shakllantiruvchi baholash o'quvchiga yakuniy ballni emas, balki o'z rivojlanish yo'nalishini ko'rsatadi. Raqamli muhitda bu jarayon avtomatik tekshiruvli mashqlar, o'qituvchining izohli sharhlari, o'quvchilar o'rtasidagi tengdoshlar bahosi va onlayn maslahat soatlari orqali amalga oshiriladi.

Qayta aloqaning sifati muhim: "to'g'ri" yoki "noto'g'ri" kabi qisqa baholar o'rniga, xato sababini ko'rsatuvchi va keyingi qadamni tavsiya etuvchi izohlar samaraliroq hisoblanadi. Garrison va hamkorlarining tadqiqoti ham onlayn muloqotda o'qituvchining faol ishtiroki o'quvchilarning chuqur fikrlashiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi [4].

4. Shartlarning birgalikdagi amalga oshirilishi

Yuqorida ko'rsatilgan shartlar bir-biridan ajratilgan holda emas, balki o'zaro bog'liq tizim sifatida ishlaydi. Aniq maqsad (1-shart) metakognitiv resurslardan foydalanishni (2-shart) yo'naltiradi, yo'l xaritasi (3-shart) faoliyatning izchilligini ta'minlaydi, shakllantiruvchi baholash (4-shart) esa natijalarni tuzatish va rejani yangilash imkonini beradi. Shu tufayli bu to'rt shart mustaqil faoliyatning to'liq siklini — rejalashtirish, bajarish, nazorat va baholashni qamrab oladi.

Pedagogik amaliyotda shartlarni joriy etish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Dastlab o'quvchilarga yo'l xaritasi va o'z-o'zini monitoring shakllari o'rgatiladi, so'ngra raqamli resurslardan metakognitiv maqsadda foydalanish bo'yicha mashg'ulotlar o'tkaziladi, keyin esa mustaqil loyihalar va muntazam shakllantiruvchi baholash joriy etiladi. Muhim jihat — o'qituvchining roli nazoratchidan maslahatchi va yo'naltiruvchi roliga o'tishidir. Pedagogik jarayonni tashkil etish va boshqarish nazariyasi ham o'qituvchining ushbu rolini ta'kidlaydi [9].

5. Amaliy tavsiyalar

Pedagogik kuzatuv asosida quyidagi tavsiyalarni berish mumkin: mustaqil topshiriqlarni haftalik modul shaklida loyihalash; har bir topshiriqqa aniq natija mezonlari va namunaviy yechim bilan birga qisqa o'z-o'zini tekshirish savollarini ilova qilish; o'quvchilarni onlayn kundalik yuritishga o'rgatish; sinf ichida tengdoshlar bahosi va muhokama uchun vaqt ajratish; raqamli platformalardagi statistik ko'rsatkichlarni o'quvchilar bilan birgalikda tahlil qilish. Ushbu tavsiyalarning samaradorligi keyingi tadqiqotlarda eksperimental tekshiruvdan o'tkazilishi lozim.

XULOSA

Olib borilgan tahlil shuni ko'rsatdiki, raqamli ta'lim muhitida yuqori sinf o'quvchilarining mustaqil o'quv faoliyatini samarali tashkil etish raqamli vositalarning mavjudligiga emas, balki ularni pedagogik jihatdan to'g'ri loyihalashga bog'liq. Maqolada asoslangan to'rtta pedagogik shart — maqsad va topshiriqlarning aniq loyihalanishi, raqamli resurslardan metakognitiv maqsadda foydalanish, individual o'quv yo'l xaritasi va o'z-o'zini monitoring, shakllantiruvchi baholash va virtual qayta aloqa — mustaqil faoliyatning rejalashtirish, bajarish, nazorat va baholash bosqichlarini qamrab oladi.

Ushbu shartlar o'quvchilarda o'z-o'zini boshqarish, tanqidiy fikrlash va o'z ta'lim jarayonining mas'uliyatini his etish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu shartlarning turli fan yo'nalishlarida va turli darajadagi

maktablarda samaradorligini eksperimental asosda o'rganish dolzarb vazifa bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vygotskiy L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. — Cambridge: Harvard University Press, 1978. — 159 p.

2. Knowles M. S. The Adult Learner: A Neglected Species. — Houston: Gulf Publishing, 1973. — 256 p.

3. Zimmerman B. J. Becoming a self-regulated learner: An overview // Theory Into Practice. — 2002. — Vol. 41, No. 2. — P. 64–70.

4. Garrison D. R., Anderson T., Archer W. Critical inquiry in a text-based environment: Computer conferencing in higher education // The Internet and Higher Education. — 2000. — Vol. 2, No. 2–3. — P. 87–105.

5. Bates A. W. Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. — Vancouver: Tony Bates Associates Ltd., 2015. — 2nd ed. — 360 p.

6. Asqarova O. M., Xayitboyev M., Nishonov M. S. Pedagogika: darslik. — Toshkent: Talqin, 2008.

7. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi / Toxtaxo‘jayeva M. X. va boshq. — Toshkent: Iqtisod-moliya, 2007. — 380 b.

8. Sayidaxmedov N. S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. — Toshkent: O‘zMU qoshidagi OPI, 2003.

9. Turg‘unov S. T., Maqsudova L. A. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. — Toshkent: Fan, 2009. — 168 b.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI PEDAGOGIK TAYYORLASHDA INNOVATSION LOYIHALASHNING METODIK IMKONIYATLARI

Nurullayev Abduhamid Ro‘zimboyevich
Buxoro davlat pedagogika instituti

Annotation. *This article discusses the methodological possibilities of innovative design in the process of pedagogical training of future teachers, its importance in improving the quality of education and developing the professional competence of students. Also, the didactic features of using modern pedagogical technologies, interactive methods, problem-based learning, project-based learning and digital educational tools in the design of the educational process are analyzed. The role of innovative design in the formation of independent thinking, creative approach, analysis of pedagogical situations and effective decision-making skills in future teachers is substantiated.*

Keywords: *future teacher, pedagogical preparation, innovative design, educational process, methodological opportunities, professional competence, pedagogical technologies, interactive methods.*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik tayyorlash jarayonida innovatsion loyihalashning metodik imkoniyatlari, uning ta’lim sifatini oshirish hamda talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, o‘quv jarayonini loyihalashda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, muammoli ta’lim, loyiha asosida o‘qitish va raqamli ta’lim vositalaridan foydalanishning didaktik xususiyatlari tahlil qilingan. Bo‘lajak o‘qituvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va samarali qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda innovatsion loyihalashning o‘rni asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *bo‘lajak o‘qituvchi, pedagogik tayyorgarlik, innovatsion loyihalash, o‘quv jarayoni, metodik imkoniyatlar, kasbiy kompetentlik, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar.*

Аннотация. *В статье рассматриваются методологические возможности инновационного дизайна в процессе педагогической*

подготовки будущих учителей, его значение для повышения качества образования и развития профессиональной компетентности студентов. Также анализируются дидактические особенности использования современных педагогических технологий, интерактивных методов, проблемно-ориентированного обучения, проектного обучения и цифровых образовательных инструментов в проектировании образовательного процесса. Обосновывается роль инновационного дизайна в формировании у будущих учителей самостоятельного мышления, творческого подхода, анализа педагогических ситуаций и эффективных навыков принятия решений.

Ключевые слова: *будущий учитель, педагогическая подготовка, инновационный дизайн, образовательный процесс, методические возможности, профессиональная компетентность, педагогические технологии, интерактивные методы.*

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, ta’lim mazmunini takomillashtirish hamda bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy kasbiy faoliyatga tayyorlash muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ta’lim jarayonida yuz berayotgan o‘zgarishlar pedagog kadrlarning nafaqat nazariy bilimlarga ega bo‘lishini, balki mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish, pedagogik muammolarni aniqlash va ularning samarali yechimlarini ishlab chiqish kompetensiyalarini ham rivojlantirishni talab etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik tayyorlash jarayoniga innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish, o‘quv faoliyatini ilmiy asosda loyihalash va ta’lim natijalarini oldindan belgilangan maqsadlar asosida tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi. Innovatsion loyihalash ta’lim maqsadlari, mazmuni, metodlari, vositalari va kutilayotgan natijalarni o‘zaro uzviy bog‘liqlikda rejalashtirish hamda amalga oshirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatdir. Mazkur jarayon o‘qitishning an’anaviy shakllarini takomillashtirish bilan bir qatorda, talabalarning individual imkoniyatlarini hisobga olish, ularning mustaqil ta’lim olishini qo‘llab-quvvatlash va amaliy faoliyatga tayyorgarligini kuchaytirish imkonini beradi. Ayniqsa, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda muammoli ta’lim, loyiha asosida o‘qitish, interfaol metodlar, raqamli ta’lim vositalari hamda refleksiv yondashuvlardan foydalanish o‘quv jarayonining metodik imkoniyatlarini kengaytiradi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik tayyorlashda innovatsion loyihalashning muhim jihati ta’lim jarayonini faqat bilim berishga yo‘naltirilgan

faoliyat sifatida emas, balki kasbiy kompetentlikni izchil shakllantiruvchi yaxlit pedagogik tizim sifatida tashkil etishdan iborat. Bunda talabalarning nazariy bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo‘llash, dars mashg‘ulotlarini mustaqil loyihalash, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, o‘quvchilarning ehtiyojlarini hisobga olish va ta’lim natijalarini baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish ustuvor vazifa sanaladi. Shu bilan birga, innovatsion loyihalash samaradorligi ta’lim maqsadlarining aniqligi, metodik ta’minotning yetarliligi, pedagogik shart-sharoitlarning yaratilishi hamda natijalarni baholash mezonlarining asoslanganligiga bog‘liq. Mavzuning dolzarbligi shundaki, oliy pedagogik ta’lim amaliyotida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish bilan bir qatorda, ularni yagona metodik tizim asosida loyihalash, o‘zaro muvofiqlashtirish va natijadorligini baholash zarurati mavjud. Innovatsion metodlarni alohida-alohida qo‘llash har doim ham kutilgan pedagogik samarani bermaydi. Shu sababli o‘quv jarayonini loyihalashda maqsad, mazmun, metod, vosita, ta’lim faoliyati va diagnostik natijalar o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash muhim hisoblanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik madaniyatini rivojlantirish jarayonida akmeologik yondashuv metodologik asos sifatida qo‘llanilganda, uning kasbiy shakllanishi sifat ko‘rsatkichlari aniq mazmun bilan boyiydi. Xususan, o‘qituvchi faoliyatida kuzatiladigan kasbiy mahsuldorlik, natijadorlik, intellektual-emotsional barqarorlik, tashabbuskorlik, kommunikativ vositachilik, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish, innovatsion yangiliklarni qabul qilish va tatbiq eta olish kabi fazilatlar pedagogik madaniyat mazmunining ajralmas jihatlari sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur sifatlarning har biri o‘qituvchining o‘z kasbiga yangicha yondashuvi, faoliyat mazmunini mustaqil rivojlantira olishi va ijtimoiy foydaga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat olib borishini belgilaydi.

Agar o‘qituvchining faoliyati yuqori sifat ko‘rsatkichlariga ega bo‘lmasa, ijtimoiy foydali natija bermasa yoki pedagogik jarayonda maqsadga muvofiq tashkiliy-innovatsion yondashuvlar qo‘llanmasa, bunday faoliyat akmeologik mezonlar nuqtai nazaridan yetarli darajada samarali deb baholanmaydi. Shu sababli, pedagogik madaniyatni rivojlantirish jarayonining mazmunida faqat metodik bilimlar emas, balki shaxsiy yuksalish va kasbiy takomillashuvga doir omillar ham ustuvor o‘rin egallaydi.

Kasbiy mahorat — bu bo‘lajak o‘qituvchining real pedagogik vaziyatlarda refleksiya, moslashuvchanlik, tezkor qaror qabul qilish, ijodiy yondashuv va barqaror professionallik namoyon etish qobiliyatidir. Mazkur ko‘nikmalar shakllanganda, o‘qituvchining pedagogik madaniyati yanada mukammallashadi

va u kasbiy faoliyatda yuqori samaradorlikka erishadi. Bu bosqich o‘qituvchini haqiqiy mutaxassis sifatida kamolga yetkazuvchi akmeologik rivojlanishning asosiy ko‘rinishi hisoblanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik madaniyatini rivojlantirish jarayoniga akmeologik yondashuvni tatbiq etish — bu, avvalo, kasbiy va shaxsiy salohiyatni yuksaltirish, uzluksiz rivojlanish motivatsiyasini shakllantirish hamda pedagogik faoliyat sifatini oshirishga xizmat qiluvchi ustuvor yo‘nalishdir. Akmeologik yondashuvning bunday integratsiyasi pedagogning o‘z kasbiy pozitsiyasini mustahkamlashi, dars jarayonini samarali tashkil etishi va sport-ta’lim jarayonining tarbiyaviy mohiyatini chuqur anglashiga zamin yaratadi.

Bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik madaniyati mazmunini shakllantirishda yana bir muhim jihat — kasbiy o‘sish jarayonining izchil va moslashuvchan bo‘lishidir. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar kasbiy yo‘lni qat’iy bosqichlarga bo‘luvchi klassik modellarning to‘liq ishlamasligini ko‘rsatmoqda. Mehnat bozori dinamikasi, texnologik talablar va shaxsiy motivatsiyadagi o‘zgarishlar pedagogning kasbiy yo‘lini ko‘p yo‘nalishli, moslanuvchan va individual qilishni talab etadi. Shu bois, pedagogik madaniyatni rivojlantirish jarayoni ham talabaning real hayotiy ehtiyojlari, kasbiy holati va shaxsiy rivojlanish sur’atlariga mos ravishda tashkil etilishi zarur.

Bugungi yoshlarning ko‘pchiligi kasbiy shakllanish jarayonida bir necha bor kasb yo‘nalishini o‘zgartirishga, yangi faoliyat turlarini sinab ko‘rishga moyildir. Bu holat jismoniy tarbiya sohasida ham kuzatilmoqda: ba’zi talabalar murabbiylikni tanlasa, ayrimlari sport menejmenti, fitnes pedagogikasi yoki sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha faoliyatni ma’qul ko‘rmoqda. Pedagogik madaniyatni rivojlantirish mazmuni ana shunday kasbiy moslashuvchanlikni qo‘llab-quvvatlashi, talabaning real imkoniyatlari va qiziqishlarini e’tiborga olgan holda shakllantirilishi zarur.

Respublikamiz va xorijdagi psixologik-pedagogik tadqiqotlarda kasb tanlashda jins, ijtimoiy kelib chiqish, oilaviy tarbiya, etnik muhit va shaxsiy xususiyatlarning roliga katta e’tibor qaratilmoqda. Masalan, AQSh Mehnat statistikasi byurosi ma’lumotlariga ko‘ra, ayrim ta’lim va tarbiya sohalarida kadrlarning asosiy qismini ayollar tashkil etadi (maktabgacha ta’limda 97,7%, boshlang‘ich ta’limda 89,9%), ba’zi sohalarda esa etnik ozchilik vakillarining ulushi sezilarli, biroq ularning aksariyati past maoshli yoki o‘sish imkoniyati cheklangan lavozimlarda jamlangan. Bu holatlar kasb tanlash jarayonining ijtimoiy adolat tamoyillari bilan bog‘liq murakkabliklarini namoyon etadi. Ushbu faktlar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak o‘qituvchi pedagogik madaniyatining

mazmuni — bir tomondan, kasbiy kompetensiyalar, ta’lim texnologiyalarini qo‘llash, axloqiy-psixologik barqarorlik, kasbiy refleksiya kabi unsurlarni, ikkinchi tomondan esa, jamiyatning ijtimoiy-madaniy jihatlarini anglash, kasb tanlash jarayoniga ongli yondashuv, kasbiy identifikatsiya kabi sifatlarni qamrab olishi lozim.

Bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik madaniyatini rivojlantirish mazmunini belgilovchi muhim jarayonlardan biri — bu kasbiy ijtimoiylashuv bo‘lib, u ijtimoiy ta’sirlar, oilaviy tarbiya, maktab muhitidagi tajribalar va jamiyatning kasblarga nisbatan munosabatlari orqali shakllanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kasb tanlashdagi tengsizliklar ko‘pincha avloddan-avlodga o‘tadi va ijtimoiy jihatdan “me’yorlashgan” hodisa sifatida qabul qilinadi. Shu sababli, pedagogik madaniyat mazmunini shakllantirish, avvalo, talabaning ijtimoiy tajribasini tahlil qilishga, uning kasbiy qarorlariga ta’sir etayotgan omillarni anglashga qaratilishi lozim.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik tayyorlashda o‘quv jarayonini innovatsion loyihalash ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuv ta’lim mazmunini zamonaviy talablarga moslashtirish, innovatsion pedagogik va raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash hamda kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etish imkonini beradi. Natijada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalari, pedagogik madaniyati, kreativ fikrlashi, kommunikativ kompetensiyasi va innovatsion faoliyatga tayyorligi izchil rivojlanadi.

FOYDALANILGA ADABIYOTLAR

1. Mahmudov M. H. Ta’limni didaktik loyihalashning nazariy asoslari: pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. — T., 2003. — 342 b.

2. Ma’murov B. B. Bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish: monografiya. — T.: Fan, 2017. — 144 b.

3. Ma’murov B. B. Bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish tizimi: monografiya. — T.: Fan va texnologiya, 2017. — 128 b.

4. Mitina L. M. Lichnostnoe i professionalnoe razvitie cheloveka v novyx sotsialnyx usloviyax // Voprosy psixologii. — 1997. — № 4. — S. 28–38.

5. Mityaeva A. M. Kompetentnostnaya model mnogourovnevogo vysshego obrazovaniya (na materiale formirovaniya uchebno-issledovatelskoy

kompetentnosti bakalavrov i magistrov): avtoreferat dissertatsii doktora pedagogicheskix nauk. — Volgograd, 2007. — 43 s.

6. Monaxov V. M. Proektirovanie i vnedrenie novyx texnologiy obucheniya // Sovetskaya pedagogika. — 1990. — № 7. — S. 17–22.

7. Musayev U. Umumiy o‘rta ta’lim jarayonini liberallashtirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari: pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. — T., 2004. — 130 b.

JURNALISTNING JONLI EFIR JARAYONIDAGI PSIXOLOGIK HOLATI: STRESS OMILLARI VA O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISH MEXANIZMLARI

Oteniyazova Gulzada Jumaniyazovna
Qoraqalpoq davlat universiteti
gulzadagrace@gmail.com.

Annotatsiya. *Maqolada jurnalistning jonli efir jarayonidagi psixologik holati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Rus, o‘zbek hamda xorijiy tadqiqotlar asosida efirdan oldingi, efir vaqtidagi va efirdan keyingi bosqichlardagi stress omillari, emotsional zo‘riqishning kognitiv, nutqiy va fiziologik ko‘rinishlari tavsiflanadi. Jonli efirning improvizatsion tabiati, montaj imkoniyatining yo‘qligi va ommaviy auditoriya oldidagi mas’uliyat jurnalist psixikasiga qo‘shimcha yuklama berishi asoslanadi. Stressga chidamlilikning tug‘ma va ongli tarkibiy qismlari ajratilib, jurnalistlarning psixologik tayyorgarligini oshirishga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *jonli efir, jurnalist, psixologik holat, stress, stressga chidamlilik, emotsional o‘zini o‘zi boshqarish, improvizatsiya, kasbiy tayyorgarlik.*

Аннотация. *В статье с научно-теоретических позиций анализируется психологическое состояние журналиста в ходе прямого эфира. На основе российских, узбекских и зарубежных исследований описываются стрессовые факторы на этапах подготовки к эфиру, работы в эфире и после его завершения, а также когнитивные, речевые и физиологические проявления эмоционального напряжения. Обосновывается, что импровизационный характер прямого эфира, отсутствие возможности монтажа и ответственность перед массовой аудиторией создают дополнительную нагрузку на психику журналиста. Выделяются врождённые и осознанные компоненты стрессоустойчивости, разрабатываются практические рекомендации по повышению психологической готовности журналистов.*

Ключевые слова: *прямой эфир, журналист, психологическое состояние, стресс, стрессоустойчивость, эмоциональная саморегуляция, импровизация, профессиональная подготовка.*

Abstract. *The article provides a theoretical analysis of a journalist's psychological state during live broadcasting. Drawing on Russian, Uzbek and international research, it describes the stress factors that arise before, during and after going on air, as well as the cognitive, verbal and physiological manifestations of emotional strain. It is argued that the improvisational nature of live broadcasting, the impossibility of editing and the responsibility to a mass audience place an additional burden on the journalist's psyche. Innate and acquired components of stress resistance are distinguished, and practical recommendations for strengthening journalists' psychological readiness are proposed.*

Keywords: *live broadcast, journalist, psychological state, stress, stress resistance, emotional self-regulation, improvisation, professional training.*

Zamonaviy media makonida jonli efir televideniye, radio va onlayn platformalarning eng ta'sirchan hamda auditoriyani eng kuchli jalb etuvchi shakllaridan biriga aylandi. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan ochiqlik siyosati natijasida xalq bilan bevosita muloqotga asoslangan interaktiv ko‘rsatuvlar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ulanishlar va jonli muhokamalar hajmi sezilarli darajada ortdi [11]. Bu jarayon jurnalist faoliyatiga nafaqat yangi imkoniyatlar, balki o‘ziga xos psixologik talablar ham olib kirdi.

Jonli efir oldindan yozib olinadigan materialdan tub farq qiladi: unda xatoni tuzatish, kadrni qayta suratga olish yoki ortiqcha qismni montaj orqali olib tashlash imkoniyati mavjud emas. Jurnalist nutqi efirning o‘zida, oldindan belgilanmagan holda yaraladi, savollar va muloqot yo‘nalishi vaziyatdan kelib chiqib shakllanadi [11]. O.A. Lapteva va unga tayangan o‘zbek tadqiqotchilari ta'kidlaganidek, bunday ko‘rsatuvlarning katta qismi to‘g‘ridan-to‘g‘ri efirga uzatiladi va til jihatidan hech qanday tahrirdan o‘tmaydi [5; 12]. Demak, jonli efirdagi har bir so‘z, imo-ishora va hissiy reaksiya darhol ommaviy auditoriya mulkiga aylanadi.

Shu sababli jonli efir jurnalistdan yuqori kasbiy kompetensiya bilan bir qatorda barqaror psixologik holatni, stressli vaziyatda tez qaror qabul qilish va o‘z emotsiyalarini boshqara olish qobiliyatini talab etadi. Jurnalist kasbining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish ushbu sohada muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan talab va fazilatlarni anglashda muhim ahamiyatga ega [10]. Biroq, o‘zbek ilmiy adabiyotida jonli efir sharoitidagi psixologik holat masalasi asosan nutq madaniyati va lingvistik jihatlar doirasida yoritilgan bo‘lib, uning psixologik mexanizmlari yetarlicha tizimlashtirilmagan.

Tadqiqotning maqsadi – jurnalistning jonli efir jarayonidagi psixologik holatini belgilovchi omillarni aniqlash va uni boshqarish yo‘llarini ilmiy asoslashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo‘yildi: jonli efirdagi stress omillarini tasniflash; efir jarayonining bosqichlariga ko‘ra psixologik holat dinamikasini tavsiflash; stressga chidamlilikning tarkibiy qismlarini aniqlash; jurnalistlarning psixologik tayyorgarligini oshirishga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Muammoni o‘rganishda rus tilidagi psixologik va jurnalistik tadqiqotlar muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. L.A. Kitayev-Smik stress psixologiyasiga oid fundamental ishida stress reaksiyasini shaxsning tug‘ma xususiyati sifatida ko‘rib chiqib, uning faol va passiv turlarini ajratgan: faol reaksiya resurslarning bir zumda safarbar etilishi bilan, passiv reaksiya esa uzoq muddatli qarshilik ko‘rsatish bilan tavsiflanadi [4]. A.A. Bulgakbayeva va hammualliflarning tahliliga ko‘ra, muallifning tajribalarida passiv stress reaksiyasini namoyon etgan uchuvchilar xavotir va vahima holatlariga ko‘proq duch kelgan [3]. Bu xulosa ekstremal sharoitda ishlovchi har qanday mutaxassis, shu jumladan jonli efirdagi jurnalist uchun ham dolzarbdir.

N.Sh. Belousova jurnalistning muallif pozitsiyasini ifodalashiga ta’sir etuvchi omillarni tashqi va ichki guruhlarga ajratadi. Ichki omillar qatorida nerv tizimining holati va temperament tipi, o‘zini o‘zi baholash, psixologik himoya mexanizmlari hamda o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyati ko‘rsatiladi; stressga javoban yuzaga keladigan reaksiya esa yuzning qizarishi, og‘izning qurishi kabi tashqi belgilar orqali namoyon bo‘lishi qayd etiladi [2]. Jonli efir sharoitida aynan shu belgilar tomoshabinga bevosita ko‘rinib qolishini hisobga olsak, ichki omillarning ahamiyati yanada ortadi.

A.A. Bulgakbayeva va hammualliflar jurnalistlarning psixologik farovonligini saqlash muammosini tahlil qilib, stress dastlab murakkab vaziyatni hal etishga yordam berishini, biroq, surunkali yoki haddan tashqari kuchli tus olganda nevrotik buzilishlarga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatadi [3]. Mualliflar stressga chidamlilikning ikki qatlamini – tug‘ma reaksiyalar va emotsionallikka asoslangan bazaviy qatlamni hamda tajriba va o‘zini o‘zi rivojlantirishni o‘z ichiga olgan kognitiv, ongli boshqariladigan qatlamni ajratadi. Ularning fikricha, temperamentni o‘zgartirish imkoniyati cheklangan bo‘lgani bois, psixologik ish asosan stressli vaziyatni kognitiv baholashni rivojlantirishga qaratilishi lozim [3].

Jonli efirning o‘ziga xosligi M.V. Mixeychik tadqiqotida aniq ochib berilgan. Muallif rejalashtirilmagan jonli efirlarni teleboshlovchi professionalligining

alohida qirrasi sifatida ko‘rib chiqadi; tadqiqotga kiritilgan intervyuda tajribali boshlovchi P.V. Marchenko psixologik jihatdan eng murakkab vazifa olingan axborotni bir zumda qayta ishlash va tayyor syujetni ongda “yig‘ish” ekanini ta’kidlaydi. Uning fikricha, kutilmagan dramatik efirlar boshlovchi psixikasiga kuchli bosim o‘tkazadi, ayni paytda u auditoriyaga xotirjamlik ulashishi va soxta vahima tarqatmasligi shart [6]. G.A. Saxarevich esa favqulodda vaziyatlarni yorituvchi jurnalistlarning psixologik xavflarini tahlil qilib, travmatik voqeani boshdan kechirgan odamlar bilan ishlash metodikasining yetishmasligini alohida xavf omili sifatida ko‘rsatadi [8].

O‘zbek tadqiqotchilari ishlarida masalaning kommunikativ va nutqiy jihatlari ustuvor. F. Mo‘minov va N. Toshpo‘latovaning darsligida jurnalistika sotsiologiyasi va psixologiyasining nazariy asoslari bayon etilgan [7]. Y. Eminova jurnalist kasbining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tahlil qilib, kasbiy muvaffaqiyat uchun zarur fazilatlarni belgilaydi [10]. Y.A. Ortiqova interaktiv teleko‘rsatuvlarda boshlovchi moderator sifatida kommunikatsiya jarayonlarini bog‘lovchi va ziddiyatli vaziyatlarni hal qiluvchi vazifasini bajarishini, jonli efirdagi jurnalistni sahnadagi teatr aktyoriga qiyoslash mumkinligini ko‘rsatadi; muallif notiqlik mahorati moderatordan psixologik tayyorgarlikni, xususan, og‘zaki nutqda adabiy til me’yorlariga avtomatik tarzda rioya qila olishni talab etishini ta’kidlaydi [11]. G. Bakiyeva va D. Teshabayevaning fikricha, polilog vaziyatida boshlovchi suhbat rivojini kuzatish bilan birga nutqiy buzilishlar yuzaga kelmasligini ham tartibga solib turadi [1]. A. Sobirov va I. Zufarov televizion nutqni oldindan tayyorlangan va spontan nutqqa ajratib, jonli efirdagi nutq madaniyati darajasining pasayishi jamiyatda xavotir uyg‘otayotganini qayd etadi [12]. S. Yo‘lchiyeva esa jurnalistika psixologiyasining nazariya va amaliyot uyg‘unligidagi o‘rnini, favqulodda vaziyatlarda jurnalistning psixologik xavfsizlik qoidalarini bilishi zarurligini ko‘rsatadi [13].

Yevropa tajribasi Finlyandiyalik olimlar K. Bakxolm va K. Byorkkvistning empirik tadqiqoti orqali tahlilga jalb qilindi. Mualliflar Jokela maktabidagi otishma voqeasini yoritgan 196 nafar jurnalistni (shundan 27 nafari voqea joyida ishlagan) 297 nafar jurnalistdan iborat nazorat guruhi bilan qiyoslagan. Natijalarga ko‘ra, barcha guruhlarda jurnalistlarning ozchiligi posttravmatik stress, depressiya, ikkilamchi travmatik stress va kasbiy “kuyib qolish” bo‘yicha xavf guruhiga kiritish mumkin bo‘lgan darajani ko‘rsatgan; voqeani yoritgan jurnalistlarda distressni ish bilan bog‘liq ta’sir emas, balki avvalgi shaxsiy

travmatik tajriba bashorat qilgan; voqeadan keyingi jamoatchilik tanqidi esa bir guruh jurnalistlarda qo‘shimcha stress manbaiga aylangan [9].

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy-tipologik usul, umumlashtirish va sintez, tizimli yondashuv hamda nazariy modellashtirish usullaridan foydalanildi. Manbalar tanlovida rus tilidagi psixologik va jurnalistik tadqiqotlar, o‘zbek olimlarining media va nutq madaniyatiga oid ishlari hamda bitta Yevropa empirik tadqiqoti asos qilib olindi.

Manbalar tahlili jurnalistning jonli efirdagi psixologik holatini statik emas, balki vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchan jarayon sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatdi. Biz uni uch bosqichli model shaklida umumlashtirdik (1-jadval).

1-jadval. Jonli efir bosqichlarida jurnalist psixologik holatining dinamikasi

Bosqich	Asosiy stress omillari	Psixologik ko‘rinishlari	Boshqarish usullari
Efirdan oldingi	Noaniqlik, vaqt tanqisligi, mavzuning murakkabligi, mehmon xatti-harakatini oldindan bilmaslik	Antitsipatsion xavotir, ichki zo‘riqish, uyqu va ishtahaning buzilishi	Mavzuni chuqur o‘rganish, ssenariy “skeleti” va zaxira savollar, nafas mashqlari
Efir vaqtidagi	Texnik nosozliklar, kutilmagan javob yoki voqea, montaj imkoniyatining yo‘qligi, auditoriya oldidagi mas’uliyat	Diqqatning torayishi, nutq sur’atining tezlashishi, pauzalarning buzilishi, qizarish, og‘iz qurishi	Tayanch iboralar, ongli pauza, diqqatni vazifaga qaratish, sherik boshlovchi bilan o‘zaro yordam
Efirdan keyingi	Xatolarni qayta-qayta tahlil qilish, ijtimoiy tarmoqlardagi baho va tanqid, rahbariyat munosabati	Emotsional charchoq, o‘zini ayblash, uzoq muddatda “kuyib qolish” xavfi	Debrifing, kundalik yuritish, dam olish, zarur hollarda psixolog bilan ishlash

Efirdan oldingi bosqichda asosiy omil – noaniqlik. Jurnalist mavzu, mehmon va texnik sharoit haqida qanchalik ko‘p ma’lumotga ega bo‘lsa, kutish xavotiri shunchalik pasayadi. P.V. Marchenkoning ta’kidlashicha, boshlovchi o‘z matnlarini o‘zi yozib, ko‘rsatuv mazmuni uchun shaxsan javob bergan taqdirdagina kutilmagan vaziyatlarda ishonch bilan harakat qila oladi [6]. Bu kuzatish puxta tayyorgarlikning nafaqat kasbiy, balki psixologik himoya vazifasini ham bajarishini tasdiqlaydi.

Efir vaqtidagi bosqich eng yuqori zo‘riqish bilan tavsiflanadi. Bu yerda stress ikki xil vazifani bajaradi. Bir tomondan, me’yoridagi zo‘riqish resurslarni safarbar etib, diqqat va reaksiya tezligini oshiradi; ikkinchi tomondan, haddan oshgan zo‘riqish kognitiv faoliyatni cheklaydi [3]. L.A. Kitayev-Smik tasniflagan faol va passiv stress reaksiyalari nuqtai nazaridan qaraganda [4], faol reaksiyaga moyil jurnalist kutilmagan vaziyatda tezda yangi savol yoki o‘tish iborasini topadi, passiv reaksiyaga moyil jurnalistda esa “qotib qolish”, uzoq va noqulay pauza holatlari ko‘proq kuzatiladi. Zo‘riqish nutqda ham aniq iz qoldiradi: sur’atning tezlashishi, parazit so‘zlar, gap qurilishidagi uzilishlar, shevaga xos unsurlarning beixtiyor qo‘llanishi. Y.A. Ortiqova og‘zaki nutqda o‘ylab ish tutish imkoniyati kamligi va shevaning ta’siri kuchli bo‘lishini ta’kidlaydi [11]; demak, stress ostida nutqni nazorat qilish yanada qiyinlashadi.

Efirdan keyingi bosqich ko‘pincha e’tibordan chetda qoladi, holbuki aynan shu bosqichda uzoq muddatli oqibatlar shakllanadi. K. Bakxolm va K. Byorkkvist tadqiqotida voqeadan keyingi jamoatchilik tanqidi jurnalistlar uchun mustaqil stress omiliga aylangani qayd etilgan [9]. Ijtimoiy tarmoqlarda har bir jonli efir parchasi tezda tarqalib, keskin baholanadigan hozirgi sharoitda bu omil yanada kuchaygan. Xatolarni qayta-qayta “aylantirish” va o‘zini ayblash surunkali stressga aylanib, oxir-oqibat kasbiy “kuyib qolish”ga olib kelishi mumkin [3].

Tahlil natijasida jonli efirdagi stress omillarini ikki guruhga ajratish mumkin. Tashqi omillar qatoriga texnik nosozliklar, vaqt bosimi, mehmonning kutilmagan javobi yoki xatti-harakati, voqeaning dramatik xarakteri, auditoriya va rahbariyat munosabati kiradi. Ichki omillar esa nerv tizimi tipi va temperament, o‘zini o‘zi baholash darajasi, psixologik himoya mexanizmlari [2], kasbiy tajriba hamda shaxsiy travmatik tajribani [9] o‘z ichiga oladi. Finlyandiya tadqiqoti natijasi alohida e’tiborga loyiq: favqulodda voqeani yoritgan jurnalistlarda distressni ish joyidagi ta’sir emas, balki shaxsning avvalgi travmatik tajribasi bashorat qilgan [9]. Bu shuni anglatadiki, tahririyatlar jurnalistni og‘ir mavzudagi jonli efirga tayinlashda uning shaxsiy psixologik holatini ham hisobga olishi zarur.

Stressga chidamlilik tuzilmasiga kelsak, A.A. Bulgakbayeva va hammualliflar taklif etgan modelga tayanib [3], jurnalist uchun ikki qatlamni ajratamiz. Bazaviy qatlam temperament va emotsionallik bilan belgilanadi hamda kam o‘zgaradi. Ongli qatlam esa tajriba, bilim, o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalari va kasbiy refleksiyadan iborat bo‘lib, maqsadli mashg‘ulotlar orqali rivojlantirilishi mumkin. Aynan ongli qatlam jonli efirga tayyorgarlikning asosiy obyekti bo‘lishi lozim. Y.A. Ortiqova ham adabiy me’yorlarga rioya etishning

avtomatlashuvini psixologik tayyorgarlik natijasi sifatida ko‘radi [11]: ko‘nikma avtomatlashgan sari stress ostida unga sarflanadigan kognitiv resurs kamayadi.

Olingan natijalar asosida quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari suramiz. Birinchidan, efirdan oldin mavzu bo‘yicha fon bilimni chuqurlashtirish, ssenariyning asosiy “skeleti”ni, zaxira savollar va kutilmagan vaziyatlar uchun tayanch iboralarni tayyorlash lozim. Ikkinchidan, efir vaqtida chuqur va bir maromdagi nafas, ongli pauza, diqqatni o‘z his-tuyg‘ulariga emas, balki suhbatdosh va vazifaga qaratish usullari zo‘riqishni kamaytiradi. Uchinchidan, ikki boshlovchili tandem shakli jonli efirda bir boshlovchining zo‘riqishini ikkinchisi yengillashtirishiga imkon beradi; Y.A. Ortiqova bunday tandem jurnalistning samarali faoliyati uchun zarurligini ko‘rsatadi [11]. To‘rtinchidan, efirdan keyin jamoaviy debrifing o‘tkazish, his-tuyg‘ular va fikrlarni kundalikka yozib borish, ish va shaxsiy hayot o‘rtasida aniq chegara o‘rnatish, uyqu va dam olish rejimiga rioya qilish hamda zarur hollarda o‘z vaqtida psixologga murojaat qilish tavsiya etiladi [3]. Beshinchidan, tahririyat darajasida jurnalistlarni travmatik voqealarni yoritish va jabrlanuvchilar bilan muloqot qilishga maxsus tayyorlash [8; 9], tahririyatlarda psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq.

O‘tkazilgan tahlil jonli efir jurnalist uchun nafaqat kasbiy, balki kuchli psixologik sinov ekanini ko‘rsatdi. Montaj imkoniyatining yo‘qligi, nutqning efirning o‘zida yaralishi, vaqt bosimi va ommaviy auditoriya oldidagi mas’uliyat jurnalist psixikasiga yuqori yuklama beradi. Ushbu yuklama efirdan oldingi kutish xavotiri, efir vaqtidagi operativ zo‘riqish va efirdan keyingi emotsional charchoq ko‘rinishida bosqichma-bosqich namoyon bo‘ladi.

Jurnalistning jonli efirdagi holatiga tashqi omillar (texnik nosozliklar, kutilmagan voqealar, auditoriya va jamoatchilik tanqidi) bilan bir qatorda ichki omillar (temperament, o‘zini baholash, himoya mexanizmlari, tajriba, shaxsiy travmatik tajriba) hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi. Stressga chidamlilikning bazaviy qatlami nisbatan barqaror bo‘lgani holda, uning ongli qatlami – bilim, tajriba, o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalari – maqsadli tayyorgarlik orqali rivojlantirilishi mumkin.

Taklif sifatida jurnalistika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarining o‘quv rejalariga “Jonli efir psixologiyasi va emotsional o‘zini o‘zi boshqarish” mavzusidagi amaliy mashg‘ulotlarni kiritish, telekanal va radiolarda yosh jurnalistlar uchun murabbiylik (mentorlik) tizimini yo‘lga qo‘yish hamda jurnalistlar psixologik holatini o‘rganishga qaratilgan milliy empirik tadqiqotlarni kengaytirish maqsadga muvofiq. Kelgusidagi tadqiqotlarda o‘zbek

telejurnalistlari orasida stressga chidamlilik darajasini psixodiagnostik metodikalar yordamida o‘lchash istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бакиева Г. Х., Тешабаева Д. М. Оммавий ахборот воситалари тили. – Т.: Ўзкитобсавдо, 2019. – 181 б.

2. Белоусова Н. Ш. Внутренние факторы как препятствия на пути выражения авторской позиции журналистов [Электронный ресурс] // КиберЛенинка. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/vnutrennie-faktory-kak-prepyatstviya-na-puti-vyrazheniya-avtorskoy-pozitsii-zhurnalistov (дата обращения: 20.10.2026).

3. Булгакбаева А. А., Сарсенбаева Л. О., Надирбекова А. О., Абдрахманова Р. Б. Проблемы поддержания психологического благополучия журналистов // Вестник КазНПУ им. Абая. Серия «Психология». – 2024. – № 3 (80). – С. 43–50. – DOI: 10.51889/2959-5967.2024.80.3.004. – URL: https://bulletin-psychology.kaznpu.kz/index.php/ped/article/download/1847/927/9705 (дата обращения: 20.10.2026).

4. Китаев-Смык Л. А. Психология стресса. – М.: Наука, 1983. – 368 с.

5. Лаптева О. А. Живая русская речь с телеэкрана. Разговорный пласт телевизионной речи в нормативном аспекте. – 5-е изд. – М., 2003.

6. Михейчик М. В. Поведение в кадре телеведущего информационно-аналитической программы во время незапланированных прямых эфиров как отдельная грань профессионализма [Электронный ресурс] // Материалы Международного молодёжного научного форума «Ломоносов-2020». – М., 2020. – URL: https://lomonosov.msu.ru/archive/Lomonosov_2020_2/data/19470/117105_uid500792_report.pdf (дата обращения: 20.10.2026).

7. Мўминов Ф., Тошпўлатова Н. Журналистика социологияси ва психологияси. – Т.: Ўзбекистон, 2019. – 296 б.

8. Сахаревич Г. А. Психологические риски работы журналиста в условиях чрезвычайной ситуации [Электронный ресурс] // Материалы Международного молодёжного научного форума «Ломоносов-2016». – М., 2016. – URL: https://in.mmmf.msu.ru/archive/Lomonosov_2016/data/8396/uid72810_report.pdf (дата обращения: 20.10.2026).

9. Backholm K., Björkqvist K. Journalists' emotional reactions after working with the Jokela school shooting incident // Media, War & Conflict. – 2012. – Vol. 5, № 2. – P. 175–190. – DOI: 10.1177/1750635212440914. – URL: https://doi.org/10.1177/1750635212440914.

10. Eminova Y. Jurnalist kasbining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari // Research and Education. – 2023. – Vol. 2, № 11. – B. 25–29. – DOI: 10.5281/zenodo.10164488. – URL: https://zenodo.org/records/10164488.

11. Ortiqova Y. A. Interaktiv teleko‘rsatuvlarning lingvistik xususiyatlari // O‘zbekistonda xorijiy tillar. – 2025. – 11-jild, № 2 (61). – B. 211–228. – DOI: 10.36078/1746686774. – URL: https://journal.fledu.uz/wp-content/uploads/sites/3/2025/05/artikova-y.pdf.

12. Sobirov A., Zufarov I. Televideniyening janr va til xususiyatlari // NamDU ilmiy axborotnomasi. – 2023. – № 12. – URL: https://journal.namdu.uz/archive/2023-issue-12/maqola-56009-1699601354/pdf?download=1.

13. Yo‘lchieva S. Psychology of journalism: combination of theory and practice // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Vol. 1, Issue 7. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/psychology-of-journalism-combination-of-theory-and-practice.

KO‘ZI OJIZLAR KUTUBXONALARIDA NOSTATSIONAR AXBOROT-KUTUBXONA XIZMATLARINI TASHKIL ETISH: MUAMMO VA YECHIMLAR

Rajabov Bobur
Buxoro viloyati Ko‘zi ojizlar maxsus kutubxonasi

Abstract. *This article examines the organization of non-stationary information and library services in special libraries for blind and visually impaired citizens. It analyses the main forms of non-stationary service — library outposts, mobile libraries, book-delivery services, remote access points and home subscription — and describes the assistive technologies used in serving readers with visual impairments, including Braille printers, portable Braille displays, tactile graphic printers, portable video magnifiers and reading machines. The article also substantiates the importance of making cultural heritage and art-education resources equally accessible to blind users and outlines opportunities for international cooperation in this field. A number of practical recommendations for improving non-stationary services are proposed.*

Keywords*. library for the blind, non-stationary service, assistive technology, Braille, inclusive library service, book-delivery service, equal access.*

Annotatsiya*. Ushbu maqolada ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi fuqarolarga mo‘ljallangan maxsus kutubxonalarda nostatsionar axborot-kutubxona xizmatlarini tashkil etish masalalari yoritilgan. Maqolada nostatsionar xizmat turlari — kutubxona punktlari, ko‘chma kutubxonalar, kitob yetkazib berish xizmati, masofaviy ulanish nuqtalari va uy obunasi tahlil qilinadi, shuningdek ko‘zi ojizlarga xizmat ko‘rsatishda qo‘llaniladigan zamonaviy tiflotexnik vositalar (Brayl printeri, portativ Brayl displey, taktil grafik printer, video kattalashtiruvchi qurilma, o‘qish mashinasi) haqida ma’lumot beriladi. Shuningdek, madaniy meros va badiiy ta’lim resurslarini ko‘zi ojiz foydalanuvchilar uchun ochiq va teng qilishning ahamiyati, xalqaro hamkorlik imkoniyatlari asoslab beriladi. Muallif nostatsionar xizmatlarni takomillashtirish bo‘yicha bir qator amaliy tavsiyalar ishlab chiqqan.*

Kalit so‘zlar. *ko‘zi ojizlar kutubxonasi, nostatsionar xizmat, tiflotexnik vositalar, Brayl shrifti, inklyuziv kutubxona xizmati, kitob yetkazish xizmati, teng imkoniyat.*

Kirish

Bugungi kunda jamiyatning barcha a’zolari uchun axborotdan teng va to‘siqsiz foydalanish huquqini ta’minlash zamonaviy kutubxonashunoslikning dolzarb vazifalaridan biriga aylandi. Ko‘rish qobiliyati cheklangan shaxslar madaniy meros, ilm-fan va badiiy ta’lim resurslaridan foydalanishda ob’ektiv qiyinchiliklarga duch keladi, shu bois ularga mo‘ljallangan maxsus kutubxona xizmatlarini rivojlantirish, xususan, kutubxonaga mustaqil tashrif buyura olmaydigan kitobxonlar uchun nostatsionar xizmat ko‘rsatish shakllarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingandan so‘ng, ko‘zi ojizlar kutubxonalari faoliyatini rivojlantirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va nostatsionar xizmatlarni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi amalga oshirilmoqda [O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, 2018]. Dastur doirasida ko‘zi ojiz shaxslar yashaydigan hududlarda yangi kutubxona filiallari ochilishi, Brayl yozuvida adabiyotlar chop etish va audio kitoblar yaratish uchun zarur infratuzilma yaratilishi rejalashtirilgan.

Ushbu maqolaning maqsadi — ko‘zi ojizlar kutubxonalarida nostatsionar axborot-kutubxona xizmatlarini tashkil etishning nazariy asoslarini, amaliy shakllarini hamda ulardan foydalanishda qo‘llaniladigan zamonaviy tiflotexnik vositalarni tahlil qilish, shuningdek ushbu xizmatlarni Buyuk Ipak yo‘li mintaqasidagi madaniy meros va badiiy ta’lim resurslarini inklyuziv tarzda ommalashtirish nuqtai nazaridan takomillashtirish yo‘llarini ko‘rsatishdan iborat.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, hududiy va tuman miqyosidagi maxsus kutubxona filiallari amaliyotida nostatsionar xizmat ko‘rsatish ko‘pincha yetarli darajada tizimlashtirilmagan, xodimlarning tiflotexnik vositalar bilan ishlash malakasi cheklangan, shuningdek qishloq joylarida yashovchi ko‘zi ojiz fuqarolarga xizmat yetkazishda transport va masofa muammolari saqlanib qolmoqda. Mazkur maqolada ushbu muammolarning sabablari tahlil qilinib, ularni bartaraf etishning amaliy yo‘llari taklif etiladi.

Asosiy tushunchalar va foydalanuvchilar toifasi

Ko‘zi ojizlar va zaif ko‘ruvchilar uchun maxsus kutubxonalar — barcha yoshdagi ko‘zi ojiz shaxslar, ularning oila a’zolari hamda kasalligi tufayli bosma hujjatlarni o‘qishga to‘sqinlik qiluvchi boshqa toifadagi fuqarolarga xizmat ko‘rsatish maqsadida tashkil etilgan muassasalardir [Alimova, 2024: 5]. Bunday kutubxonalar “gapiruvchi” kitoblar, nuqta va kattalashtirilgan shriftdagi nashrlar, relyefli grafik vositalar kabi maxsus formatdagi hujjatlar to‘plamiga ega bo‘lib, foydalanuvchilarning kasbiy va axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini qondiradi.

Maxsus kutubxona foydalanuvchilari tarkibiga barcha nogironlik guruhlariga mansub ko‘zi ojiz shaxslar, ularning oila a’zolari, shuningdek kasbiy faoliyati nogironlar muammolari bilan bog‘liq bo‘lgan mutaxassislar kiradi [Alimova, 2024: 10]. Ularga xizmat ko‘rsatishda guruhli va individual yondashuv, foydalanuvchilarning yosh xususiyatlari hamda axborotni idrok etishning o‘ziga xosligi hisobga olinadi.

Shuningdek, ushbu tushunchalar tizimida “moslashuvchan texnologiya”, “tiflotexnik vosita”, “teng imkoniyat tamoyili” kabi atamalar alohida o‘rin tutadi. Teng imkoniyat tamoyili barcha turdagi kutubxonalar faoliyatiga qo‘yiladigan talablarni aks ettirib, jamoat kitob boyliklari va axborot resurslariga fuqarolar, jumladan nogironligi bo‘lgan shaxslarning teng va erkin foydalanishini ta’minlashga qaratilgan [Alimova, 2024: 7]. Amaliyotda bu tamoyilning to‘liq amalga oshirilishi ko‘p jihatdan aynan nostatsionar xizmatlarning sifati va qamrovi bilan bog‘liq, chunki respublikamizning ko‘pgina tuman va qishloqlarida yashovchi ko‘zi ojiz fuqarolar uchun statsionar kutubxonaga tashrif buyurish real imkoniyat emas.

Qorako‘l tumani kabi qishloq xo‘jaligi ustuvor bo‘lgan hududlarda ko‘zi ojiz kitobxonlarning katta qismi kutubxona binosidan ancha uzoqda, kichik qishloq va mahallalarda istiqomat qiladi. Bunday sharoitda filial mudiri va kutubxona xodimlarining vazifasi nafaqat fondni saqlash va tashkil etish, balki xizmatni bevosita foydalanuvchi yashash joyiga olib borishdan iboratdir.

Nostatsionar xizmat turlari va ularning tashkiliy shakllari

Kutubxonaga tashrif buyurishga imkoni bo‘lmagan kitobxonlarga xizmat ko‘rsatishning statsionar bo‘lmagan (nostatsionar) shakllari quyidagilardan iborat: kutubxona punkti, kutubxona avtobusi, internet rivojlangan hududlarda masofaviy ulanish nuqtasi, foydalanuvchilarning online va offline obunasi hamda uy obunasi [Alimova, 2024: 15]. Ushbu shakllarning har biri foydalanuvchining yashash sharoiti, sog‘ligi va texnik imkoniyatlaridan kelib chiqib tanlanadi.

Kitob yetkazib berish xizmati — statsionar kutubxona yoki mahalliy kutubxona punktidan kitoblarni foydalanuvchining yashash yoki ish joyiga

yetkazib berishni nazarda tutuvchi xizmat turi bo‘lib, u ayniqsa qariyalar, nogironligi og‘ir shaklda bo‘lgan shaxslar uchun muhim ahamiyatga ega [Alimova, 2024: 9]. Ko‘chma o‘quv zali xizmati esa boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda bosma, davriy, audio va boshqa nashrlardan foydalangan holda aholiga joylarda (muassasalarda, dam olish maskanlarida, ochiq havoda) vaqtinchalik xizmat ko‘rsatish shaklidir [Alimova, 2024: 17].

Nostatsionar xizmatlardan foydalanayotgan kitobxonlar ham statsionar kitobxonlar kabi ko‘tarilgan nuqtali shrift nashrlari, kattalashtirilgan shrift, “gapiruvchi” kitoblar, relyefli grafik vositalar, elektron nashrlar va qo‘l mehnati bilan tayyorlangan taktil kitoblardan bemalol foydalanish huquqiga ega [Alimova, 2024: 16]. Bu — teng imkoniyat tamoyilining amaliy ifodasidir.

Nostatsionar xizmat ko‘rsatishda kutubxonaning kunlik ish vaqti, tanaffuslar va sanitariya kunlari foydalanuvchilar ehtiyoji hamda tashriflar intensivligini hisobga olgan holda belgilanadi [Alimova, 2024: 16]. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, kutubxona punktlarini tashkil etishda mahalliy ijtimoiy himoya bo‘limlari, mahalla fuqarolar yig‘inlari va sog‘liqni saqlash muassasalari bilan hamkorlik qilish natijadorlikni sezilarli darajada oshiradi. Masalan, tuman filiallarida mahalla faollari yordamida ko‘zi ojiz fuqarolarning ro‘yxatini yuritish, ularning kitobga bo‘lgan ehtiyojini muntazam aniqlash, so‘ngra kitob yetkazish jadvalini tuzish — xizmat sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Tuman miqyosidagi filiallar uchun kutubxona avtobusi yoki maxsus transport vositasidan foydalanish imkoniyati cheklangan bo‘lishi mumkin. Bunday holatlarda mahalliy hokimiyat va ijtimoiy himoya tashkilotlari bilan hamkorlikda mavjud transport resurslaridan (masalan, ijtimoiy xizmat avtomobillari) muvaqqat foydalanish, shuningdek kitoblarni pochta orqali yoki mahalla faollari yordamida yetkazish amaliyoti ham samarali yechim bo‘lishi mumkin.

Xizmat ko‘rsatishda qo‘llaniladigan tiflotexnik vositalar

Nostatsionar xizmatlar sifatini oshirishda zamonaviy tiflotexnik vositalarning o‘rni beqiyos. Brayl printeri matn muharririda terilgan har qanday matnni relyef-nuqta shriftida chop etish imkonini beradi va ovozli fikr-mulohaza tizimi bilan jihozlangan bo‘lib, foydalanuvchiga qurilmani mustaqil boshqarish imkonini yaratadi [Alimova, 2024: 17–18]. Portativ Brayl displey kompyuter bilan to‘liq ishlash — hujjat o‘qish, elektron pochta va jadvallar bilan ishlash imkonini beradi.

Taktil grafik printer maxsus qog‘ozda relyef chizmalar yaratadi, bu esa geografik xarita, diagramma va rasm kabi vizual materiallarni ko‘zi ojiz

foydalanuvchiga taqdim etishga xizmat qiladi [Alimova, 2024: 18]. Portativ video kattalashtiruvchi qurilma va o‘qish mashinasi esa zaif ko‘ruvchi kitobxonlarga gazeta, jurnal va kitoblarni mustaqil o‘qish imkonini beradi, matnni nutqqa aylantirish funksiyasiga ega [Alimova, 2024: 18–19].

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, tuman filiallarida bunday qurilmalarning yetishmasligi yoki xodimlarning ulardan foydalanish bo‘yicha malaka darajasining pastligi nostatsionar xizmatning sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, filial xodimlarini tiflotexnik vositalar bilan ishlashga muntazam o‘qitish, viloyat markazidagi maxsus kutubxona bilan uzluksiz metodik aloqa o‘rnatish zarur. Bundan tashqari, portativ va yengil vositalarni (masalan, kichik audio pleyerlar, oddiy Brayl yozuv taxtalari) kengroq joriy etish, qimmat va murakkab uskunalar yetishmagan sharoitda ham xizmat sifatini ma’lum darajada ta’minlashga yordam beradi.

Zamonaviy mobil ilovalar va matnni ovozga aylantiruvchi (text-to-speech) dasturiy vositalar arzon smartfonlarda ham ishlay olishi tufayli, ularni tuman filiallarida ommalashtirish nostatsionar xizmatning qamrovini kengaytirishning qo‘shimcha imkoniyati hisoblanadi. Bunday yondashuv qimmat maxsus uskunalarga muqobil sifatida, ayniqsa moliyaviy imkoniyati cheklangan hududiy filiallar uchun amaliy ahamiyatga ega.

Nostatsionar xizmatlarni badiiy ta’lim va madaniy meros kontekstida rivojlantirish

Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida joylashgan mintaqalarning boy madaniy merosi va badiiy ta’lim an’analari barcha fuqarolar, jumladan ko‘rish qobiliyati cheklangan shaxslar uchun ham ochiq bo‘lishi lozim. Relyefli grafik vositalar va taktil kitoblar yordamida me’moriy yodgorliklar, milliy naqshlar va tasviriy san’at namunalarini teginish orqali idrok etish imkoniyatini yaratish, shuningdek audio-gid va “gapiruvchi” kataloglar tayyorlash — badiiy ta’lim muassasalari va maxsus kutubxonalar o‘rtasidagi hamkorlikning istiqbolli yo‘nalishlaridir.

Xalqaro tajribani o‘rganish va almashish, jumladan xorijiy institutlar (masalan, tasviriy san’at institutlari) bilan hamkorlikda taktil ekspozitsiyalar, moslashtirilgan o‘quv dasturlari va raqamli tayanch materiallar yaratish nostatsionar xizmatlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishi mumkin. Bunday hamkorlik nafaqat texnik vositalar almashinuvini, balki metodik tajriba va kadrlar tayyorlash sohasidagi hamkorlikni ham o‘z ichiga oladi.

Hududiy filiallar darajasida bunday hamkorlikni amalga oshirish, birinchi navbatda, mahalliy hunarmandchilik va me’morchilik namunalarining kichik taktil nusxalarini (masalan, gips yoki yog‘ochdan yasalgan relyefli maketlar)

tayyorlash orqali boshlanishi mumkin. Bunday oddiy, ammo samarali usullar tuman miqyosidagi kutubxonalarda ham qo‘llanilishi mumkin bo‘lib, ular uchun katta moliyaviy xarajat talab etilmaydi, biroq ko‘zi ojiz kitobxonlarning milliy madaniy meros bilan bevosita “teginish” orqali tanishuviga imkon yaratadi.

Shuningdek, badiiy ta’lim muassasalari talabalarini ko‘ngillilik asosida ko‘zi ojizlar kutubxonalari bilan hamkorlikka jalb etish, ularning ishtirokida taktil rasmlar va maketlar tayyorlash bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish — bir tomondan bo‘lajak rassom va pedagoglarda ijtimoiy mas’uliyat va inklyuziv ta’lim ko‘nikmalarini shakllantirsa, ikkinchi tomondan maxsus kutubxonalar fondini boyitishga xizmat qiladi. Bu — konferensiyaning “Xalqaro hamkorlik va uzluksiz kasbiy rivojlanish” yo‘nalishi doirasida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan aniq va real loyihalardan biridir.

Xulosa va tavsiyalar

O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, ko‘zi ojizlar kutubxonalarida nostatsionar axborot-kutubxona xizmatlarini tashkil etish ko‘p qirrali yondashuvni talab qiladi — bu nafaqat texnik vositalar bilan jihozlash, balki kadrlar tayyorlash, hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish va mahalliy ehtiyojlarni doimiy monitoring qilishni ham o‘z ichiga oladi. Quyidagi tavsiyalar taklif etiladi:

1) hududiy maxsus kutubxonalarda kitob yetkazish va ko‘chma kutubxona xizmatlarini kengaytirish, ayniqsa qishloq joylarida;

2) tiflotexnik vositalar (Brayl printerlari, portativ displeylar, taktil grafik printerlar) bilan jihozlanishni kuchaytirish;

3) madaniy meros va badiiy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda taktil va audio-gid materiallarini ishlab chiqish;

4) xalqaro hamkorlik doirasida tajriba almashish va kadrlar malakasini oshirish dasturlarini yo‘lga qo‘yish;

5) kutubxona veb-saytlarini ko‘zi ojiz foydalanuvchilar uchun moslashtirilgan (screen-reader’ga mos) formatda yuritish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 13-apreldagi 280-son Qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-sentabrdagi 739-son Qarori.

3. Alimova N. Ko‘zi ojizlar kutubxonalarida nostatsionar axborot-kutubxona xizmatlarini tashkil etish: uslubiy qo‘llanma / tuz. N. Alimova; muh. N. Aminova, S. Kadirova. – Buxoro: Buxoro viloyati AKM, 2024. – 22 b.

4. Respublika markaziy ko‘zi ojizlar kutubxonasi. URL: https://shosh.uz/uz/kutubxonalar-respublika-markaziy-ko‘zi-ojizlar-kutubxonasi
5. Library CISC. URL: https://library-cisc.uz/kitoblar

SCORE DISTRIBUTION MONITORING IN AI-BASED JAPANESE SPEAKING ASSESSMENT: AN EXPLORATORY DATA-ENGINEERING PERSPECTIVE

Safarov Abdulatif
Senmon Kyoiku Publishing Co., Ltd., Japan
abdulatif.safarov92@mail.ru

INTRODUCTION

Artificial intelligence (AI) supports scalable speaking assessment, but reliable operation also requires monitoring the structure of generated data. Sparse item coverage and concentrations in specific score categories can complicate subsequent analysis. This study examines category balance and response coverage in AI-scored Japanese speaking data, focusing on operational data-quality indicators rather than item-response parameter estimation.

DATA AND METHOD

The dataset contains 746 responses from 65 non-native examinees across 55 speaking items, each scored by AI from 0 to 5. Examinees answered different item subsets (11.48 recorded responses per examinee on average). We counted responses in each category and calculated coverage of possible examinee-item pairs. Coverage indicates observation density, not system failure. No monitoring software was experimentally evaluated.

RESULTS

The observed score distribution was uneven: score 0 occurred 100 times (13.40%), score 1 occurred 266 times (35.66%), score 2 occurred 19 times (2.55%), score 3 occurred 73 times (9.79%), score 4 occurred 106 times (14.21%), and score 5 occurred 182 times (24.40%). Thus, scores 1 and 5 accounted for 448 of the 746 observations (60.05%), while score 2 was uncommon. These frequencies establish a descriptive imbalance, but do not by themselves show that the AI scoring algorithm is biased or inaccurate. Across 65 examinees and 55 items, there are 3,575 possible examinee-item pairs; 746 were observed, corresponding to approximately 20.9% of that matrix. Such sparsity can be expected under incomplete item administration. The score imbalance may reflect learner performance, item design, or scoring rules; aggregate counts cannot distinguish these explanations.

ENGINEERING IMPLICATIONS

The observed imbalance motivates a proposed monitoring workflow: validate examinee and item identifiers, permissible score values, and duplicate keys at ingestion; then report category frequencies and item exposure over time. Unadministered items should not automatically be classified as missing-data errors. Unusual changes would trigger traceable human review rather than score modification. Per-item reports and historical baselines could help engineers distinguish changes in input volume from scoring anomalies. This workflow is a design recommendation, not an implemented or validated system.

CONCLUSION

The dataset exhibits strong category imbalance, with only 2.55% of responses receiving score 2. This motivates data observability in AI-enabled assessment platforms without establishing scoring defects. The small and sparsely administered sample limits generalization. Future work should examine item-level and temporal patterns and test alert accuracy against independently reviewed anomalies.

REFERENCES

1. Chalmers, R. P. mirt: A multidimensional item response theory package for the R environment // Journal of Statistical Software. – 2012. – Vol. 48, No. 6. – P. 1–29. – DOI: https://doi.org/10.18637/jss.v048.i06.

2. Samejima, F. Estimation of latent ability using a response pattern of graded scores. – Psychometrika Monograph Supplement. – 1969. – No. 17.

TALABALARDA MEDIAKOMPETENTLIKNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA SHAKLLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN YURTIMIZDA VA DUNYO MIQIYOSIDA OLIB BORILGAN ILMIY VA AMALIY IZLANISHLAR

Tavobova Ozoda Farhodovna
Termiz davlat pedagogika instituti
ORCID: 0009-0000-9911-0346

Abstract. *This article is devoted to the analysis of scientific and practical research conducted in our country and around the world on improving the methodology for forming media competence in students through digital technologies. The main goal of the study is to scientifically and theoretically substantiate the level of study of the subject. The article reveals that the expansion of the digital information environment creates an imbalance in students between the skills of independent search for information, critical analysis of their reliability and responsible application. Also, international and domestic approaches (DigComp 2.2, DigCompEdu, Falloon model, UNESCO recommendations and scientific research of scientists of our country) are comparative analyzed and based on the importance of creating the design of interactive didactic tasks in addition to technological tools.*

Keywords: *media competence, digital literacy, DigCompEdu, Falloon model, pedagogical diagnostics, digital learning environment, project method****Annotatsiya.*** *Mazkur maqola talabalarda mediakompetentlikni raqamli texnologiyalar vositasida shakllantirish metodikasini takomillashtirish yuzasidan yurtimizda va dunyo miqyosida olib borilgan ilmiy hamda amaliy izlanishlar tahliliga bag‘ishlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi mavzuning o‘rganilganlik darajasini ilmiy-nazariy jihatdan asoslashdan iboratdir. Maqolada raqamli axborot muhitining kengayishi talabalarda ma’lumotlarni mustaqil izlash, ularning ishonchliligini tanqidiy tahlil qilish va mas’uliyatli qo‘llash ko‘nikmalari o‘rtasida nomutanosiblikni keltirib chiqarayotgani ochib berilgan. Shuningdek, xalqaro va mahalliy yondashuvlar (DigComp 2.2, DigCompEdu, Falloon modeli, UNESCO tavsiyalari hamda yurtimiz olimlarining ilmiy izlanishlari) qiyosiy tahlil qilinib, texnologik vositalardan tashqari interfaol didaktik topshiriqlar dizaynini yaratish muhimligi asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *mediakompetentlik, raqamli savodxonlik, DigCompEdu, Falloon modeli, pedagogik diagnostika, raqamli ta’lim muhiti, loyiha usuli.*

Аннотация*. Данная статья посвящена анализу научных и практических исследований, проводимых в нашей стране и в мире по совершенствованию методики формирования медиакомпетентности у студентов с помощью цифровых технологий. Основная цель исследования-научно-теоретическое обоснование уровня изученности предмета. В статье показано, что расширение цифровой информационной среды создает дисбаланс между навыками студентов по самостоятельному поиску информации, критическому анализу ее достоверности и ответственному ее использованию. В статье также проводится сравнительный анализ международных и отечественных подходов (DigComp 2.2, DigCompEdu, модель Фаллона, рекомендации ЮНЕСКО, научные исследования отечественных ученых) и обосновывается важность создания интерактивных дидактических заданий, выходящих за рамки технологических инструментов.*

Ключевые слова: *медиакомпетентность, цифровая грамотность, DigCompEdu, модель падения, педагогическая диагностика, цифровая образовательная среда, метод проекта.*

KIRISH Hozirgi zamonaviy axborot jamiyati sharoitida raqamli axborot oqimining ko‘lami keskin ortishi talabalarda mediakompetentlikni maqsadli shakllantirish metodikasini takomillashtirishni dolzarb vazifaga aylantirmoqda. O‘zbekiston Respublikasining strategik hujjatlarida ta’lim jarayonini raqamlashtirish va talabalarning raqamli ko‘nikmalarini oliy ta’lim sifati hamda raqobatbardoshlik omillari bilan uzviy bog‘lash ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmon bilan tasdiqlangan O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, ta’limni individuallashtirish, masofaviy xizmatlar, vebinarlar, aralash ta’lim, “teskari sinf” va bulutli texnologiyalardan foydalanish vazifalari belgilangan.

Tadqiqot obyekti — oliy ta’lim tizimidagi mediata’lim va raqamli o‘qitish jarayoni.

Tadqiqot predmeti — raqamli texnologiyalar va didaktik modellar vositasida talabalarda mediakompetentlikni bosqichma-bosqich shakllantirish metodikasi.

Ilmiy izlanishlarda va zamonaviy pedagogik konsepsiyalarda mediakompetentlik tushunchasi shunchaki texnik vositalardan foydalana olish ko‘nikmasi (raqamli savodxonlik)dan ancha keng yoritiladi. M. Spante va uning hammualliflari (2018) oliy ta’limda raqamli savodxonlik va raqamli kompetentlik tushunchalarining qo‘llanilishini tizimli tahlil qilib, mediakompetentlik murakkab axborot muhitida tanqidiy tahlil, axloqiy mas’uliyat va faol media-ishlab chiqish integratsiyasidan iborat ekanligini ta’kidlaydilar.

Raqamli kompetentlikning rivojlanish mexanizmlarini ilmiy asoslashda G. Falloon (2020) tomonidan taklif etilgan «O‘qituvchi va ta’lim oluvchilarning raqamli kompetentlik bazaviy freymvorki» (Teacher Digital Competence Framework) muhim nazariy poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Falloon yondashuviga ko‘ra, texnik va operatsion ko‘nikmalardan chinakam raqamli kompetentlikka o‘tish uchun pedagogik va texnologik muhit uchta asosiy ustunga tayanishi kerak:

- **Texnik-operatsion ustun:** vositalardan texnik erkin foydalanish;
- **Pedagogik-metodik ustun:** muammoli ta’lim va loyiha usuli orqali axborotni o‘zlashtirish;
- **Etik va ijtimoiy-madaniy ustun:** axborot xavfsizligi, mualliflik huquqi va mas’uliyatli mediafaoliyat.

Xalqaro darajada raqamli kompetentlikni mezonlashtirishda Yevropa Komissiyasining DigComp 2.2 (R. Vuorikari va boshq., 2022) va o‘qituvchilar uchun DigCompEdu (C. Redecker, 2017) ramkaviy modellari yetakchi o‘rin tutadi. DigCompEdu modeli raqamli kompetentlikni faqatgina axborot izlash bilan cheklamay, uni pedagogik rejalashtirish, tanqidiy verifikatsiya (manba ishonchliligini baholash), aksil-feyk ko‘nikmalari va ta’lim oluvchilarning refleksiv faoliyati bilan integral ravishda bog‘laydi.

Shuningdek, UNESCO (2023) tomonidan taqdim etilgan tavsiyalar va «Ta’lim va tadqiqotlarda generativ sun’iy intellektdan foydalanish yo‘riqnomasi» shuni ko‘rsatadiki, texnologiyalar ta’lim maqsadlariga to‘liq bo‘ysundirilmagan va pedagogik dizayn to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmagan taqdirda, raqamli vositalarning o‘zi avtomatik ravishda ta’lim sifatini oshirmaydi. Bu esa mediakompetentlikni shakllantirishda texnologik vositaga emas, balki interfaol va rivojlantiruvchi didaktik topshiriqlar dizayniga birinchi darajali e’tibor qaratish lozimligini tasdiqlaydi.

Ushbu xalqaro va milliy nazariy izlanishlarni umumlashtirgan holda, tadqiqot maqsadi — mahalliy va xalqaro tajriba hamda ilmiy-nazariy konsepsiyalarni qiyoslab, raqamli texnologiyalar vositasida talabalarda

mediakompetentlikni shakllantirish metodikasini o`rganilganlik darajasi hamda muammoni aniqlashdan iborat.

Izlanishlar jarayonida O`zbekistonda S. Jumayeva[28] o`zining O‘zbekiston yoshlarining media iste’moli va mediasavodxonligini empirik o‘rganish nomli so`rovnoma shaklida olib brogan tadqiqot ishida jami 7 827 respondent ishtirok etgan, ularning 7 525 nafari, ya’ni 96,1 foizi talabalar bo‘lgan, so‘rovnoma 28 savoldan iborat bo‘lib, media iste’moli va mediasavodxonlik yo‘nalishlarini qamrab olgan. Ishtirokchilarning 82,7 foizi 18–25 yosh guruhiga mansub bo‘lgan. O`tkazilgan tadqiqotdan quyidagi muhim natijalar olingan

• Asosiy axborot manbasi sifatida ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlarni ko‘rsatganlar — 43%.

• Asosiy axborot manbasi sifatida internet saytlarini ko‘rsatganlar — 36,6%.

• Taklif etilgan soxta fotosuratning haqiqiyligiga shubha qilmaganlar — 66,3%.

• Fotosuratning noto‘g‘riligini veb-vositalar orqali isbotlay olishini bildirganlar — 11%.

• Videoning dastlabki manbasini aniqlashni hech qachon sinab ko‘rmaganini bildirganlar — 74,8%.

S. Jumanova tadqiqotining biz uchun muhim jihati shundaki, tadqiqot raqamli axborotdan faol foydalanish bilan uni tanqidiy tekshirish kompetensiyasi bir xil emasligini asoslashga xizmat qiladi. Ayniqsa, vizual axborotni tekshirish va dastlabki manbani aniqlashga yo‘naltirilgan metodik topshiriqlar zarurligini ko‘rsatadi. Bu pedagogik metodika so‘rovga asoslangan diagnostik tadqiqotdir. Bundan tashqari, respondentlarning hududiy faqat Namangan viloyati ishtirokchilari ishtirokchilari orasida tashkil etganligini hisobga olgan holda natijalarni barcha O‘zbekiston talabalariga bir xil darajada umumlashtirish ehtiyotkorlikni talab qiladi.

A. Dadakhonov [29] “media va axborot savodxonligi loyihalarining barqarorligi” nomli tadqiqot ishida media trenerlari va media hamda axborot savodxonligi ekspertlari bilan chuqurlashtirilgan intervyular, ilmiy adabiyotlar va tegishli hujjatlarni tahlil qilish kabi tadqiqot usullaridan foydalangan. Olib borilgan tadqiqotning asosiy natijalari sifatida esa media va axborot savodxonligi loyihalarining barqarorligi uchun mahalliy hamkorlik, mashg‘ulotlarni mahalliy

[28] Djumanova, S. (2022). Media Consumption and Media Literacy Level of Uzbek Youth. Media Education (Mediaobrazovanie), 18(2), 157–168. DOI: 10.13187/me.2022.2.157.

[29] Dadakhonov, A. O. (2024). Sustaining foreign aid initiatives in the field of media and information literacy within the central asian context. Media Education, 15(1), 57–70. DOI: 10.36253/me-15703. [46; 36]

sharoitga moslashtirish, resurslar bilan ta’minlash, texnologiyalarni integratsiyalash va siyosiy-institutsional qo‘llab-quvvatlash muhimligi aniqlangan.

M. Jaakkola: [30] “O‘zbekistondagi ilmiy diskursda media va axborot savodxonligi modellari” nomli tadqiqot ishi o`rganilganda, O‘zbekistonda media va axborot savodxonligiga bag‘ishlangan 2011–2025-yillardagi akademik nashrlar tizimli adabiyotlar sharhi va tematik tahlil haqida batafsil malumotlar olindi . Hamda quyidagi yondashuvlar aniqlandi:

1. Qadriyatlarga asoslangan model.
2. Sintetik-tematik model.
3. Foydalanuvchiga yo‘naltirilgan model.
4. Dezinformatsiyaga qaratilgan model.

Maskur tadqiqotni o`rganish jarayonida biz tadqiqotimiz davomida xorijiy mediakompetentlik modellarini O‘zbekiston ta’limiga shunchaki ko‘chirish emas, balki milliy ta’lim sharoiti va mahalliy axborot muhitiga moslashtirish masalasini yoritishda ayniqsa foydali deb topdik. Ammo aytib o`tishimiz kerakki, ushbu tadqiqot adabiyotlarda mavjud konsepsiyalarni tahlil qiladi; modellarning qaysi biri talabalarda ko‘proq samaradorlik berganini eksperimental tarzda aniqlamaydi.

UNESCO: media va axborot savodxonligi bo‘yicha ta’lim dasturlari UNESCOning 2011-yildagi Media and Information Literacy Curriculum for Teachers dasturi o‘qituvchilar tayyorlash tizimiga integratsiyalash uchun ishlab chiqilgan. Nashr kompetensiyalar doirasi hamda asosiy va qo‘shimcha o‘quv modullaridan iborat. 2021-yilda yangilangan Media and Information Literate Citizens: Think Critically, Click Wisely! dasturi pedagoglar va ta’lim oluvchilar uchun kengaytirilgan resurs sifatida taqdim etilgan. U media va axborot savodxonligini sun’iy intellekt, raqamli fuqarolik, madaniy savodxonlik, noto‘g‘ri axborot va dezinformatsiya masalalari bilan bog‘laydi. Maskur dastur mediakompetentlik mazmunini faqat texnik ko‘nikmalarga emas, balki tanqidiy baholash, kontent yaratish va mas’uliyatli foydalanishga tayangan holda belgilash uchun xalqaro metodologik asos beradi.

C. Redecker tomonidan ishlab chiqilgan DigCompEdu modeli [31] pedagoglarning raqamli kompetensiyasini olti yo‘nalishdagi 22 ta kompetensiya

[30] Jaakkola, M. (2025). Domestication of Media Literacy theory in a non-western context: Models of Media and Information Literacy (MIL) in academic discourse in Uzbekistan. Media Education, 16(2). DOI: 10.36253/me-17693. Nashr sanasi: 2025-yil 30-dekabr. [36]

[31] Redecker, C. (2017). European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. Y. Punie, tahr. Publications Office of the European Union. DOI: 10.2760/159770. JRC107466. [20; 25]

orqali tavsiflaydi. Model raqamli texnologiyalarni kasbiy hamkorlik, ta'limiy resurslar yaratish, o'qitish, baholash, ta'limni individuallashtirish va ta'lim oluvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish bilan bog'laydi. Uning talabalar mediakompetentligini shakllantirishdagi ahamiyati axborotni tanqidiy baholash, raqamli kontent yaratish va mas'uliyatli foydalanishni pedagogik faoliyatning tarkibiy qismi sifatida belgilashida namoyon bo'ladi. Shu sababli DigCompEdu raqamli vositalar, o'qitish metodlari va baholash mezonlarini o'zaro uyg'unlashtirishga asoslangan metodikani ishlab chiqishda nazariy-metodologik tayanch bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Mavzu o`rganilganda H. Cho, C. Carpenter va W. Lining 40 yillik tadqiqotlar meta-tahlili[32] ham o`rganildi. Unda 1983–2023-yillardagi 160 ta mediasavodxonlik intervensiyasi tahlil qilingan. Asosiy natijalar quyidagilardan iborat

• mediasavodxonlik intervensiyalari ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

• Bilimga oid natijalarda kuchliroq ta'sir aniqlangan.

• Ayrim natijalarda onlayn o'qitishning ta'siri yuzma-yuz o'qitishnikidan kichikroq bo'lgan.

• Ijtimoiy tarmoqlarga qaratilgan intervensiyalar ayrim natijalarda boshqa intervensiyalarga nisbatan kichikroq samara ko'rsatgan.

• Xulq-atvor natijalari bilim natijalariga qaraganda murakkabroq va ehtiyotkor talqin qilishni talab qilgan.

Tadqiqot "raqamli texnologiya qo'llansa, ta'lim avtomatik yaxshilanadi" degan fikrni emas, "raqamli vosita aniq pedagogik strategiya va tegishli baholash bilan birlashtirilganda natija beradi" degan asoslangan yondashuvni qo'llab-quvvatlaydi.

Xulosa Olib borilgan ilmiy-nazariy tahlillar va xalqaro hamda mahalliy tajribalarni umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarga kelindi:

Raqamli texnologiyalardan foydalanishning o'zi avtomatik ravishda ta'lim sifatini oshirmaydi; raqamli vositalar aniq pedagogik strategiya, interfaol didaktik topshiriqlar dizayni va tegishli baholash mezonlari bilan birlashtirilgandagina kutilgan natijani beradi.

Talabalarning raqamli axborotdan faol foydalanishi uni tanqidiy tekshirish kompetensiyasi bilan bir xil emasligi aniqlandi. Xususan, vizual axborotni tekshirish, soxta ma'lumotlarni aniqlash va dastlabki manbani topishga

[32] Cho, H., Carpenter, C. J., & Li, W. (2025). Media literacy interventions: Meta-analytic review of 40 years of research. Human Communication Research, 51(2), 57–79. DOI: 10.1093/hcr/hqaf004.

yo‘naltirilgan maxsus metodik topshiriqlarni ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Xorijiy mediakompetentlik modellarini (DigComp 2.2, DigCompEdu va boshqalar) O‘zbekiston ta’lim tizimiga tatbiq etishda ularni shunchaki ko‘chirish emas, balki milliy ta’lim sharoiti va mahalliy axborot muhitiga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

На третьем этапе была выстроена последовательность перевода понятия в измеряемую форму: понятие делится на слои, слои - на измерения, измерения - на индикаторы, а индикаторы измеряются через пункты анкеты и шкалы. Слои служат для теоретической группировки и напрямую не измеряются. Измерения строятся по рефлективной модели: пункты каждого измерения отражают это измерение, поэтому они должны согласовываться друг с другом. Интегральный индекс, напротив, имеет формативную структуру и складывается из измерений. Если убрать из него какое-либо измерение, изменится содержание понятия, которое выражает индекс [18]. При переходе от ответов отдельных людей к свойствам всего сообщества мы опирались на экометрику, разработанную С.Рауденбушем (S.W.Raudenbush) и Р.Сэмпсоном (R.J.Sampson). Экометрика изучает методы оценки территориальной среды, например махалли или жилого квартала. Согласно этому подходу, надежность показателя сообщества зависит от числа опрошенных и от того, насколько похожи их ответы внутри этого сообщества [19]. Единицами анализа стали махалля, район (город), область и республика.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

1. Сравнительный анализ определений. Результаты сравнения приведены в таблице 1.

Таблица 1. Сравнительный анализ определений СДС

Определение	Субъект (кто)	Объект (что)	Уровень (где)	Отделение состояния от блоков Д и У	Измеримость
М.Кахарова, широкий смысл [5, с. 21]	+ (население)	частично (отношение к развитию государства и общества и участие в нем)	частично (макро- и микроуровень указаны отдельно)	частично (под одним термином с условиями в узком смысле)	частично (отношение и участие можно измерить опросом, признаки не указаны)

Определение	Субъект (кто)	Объект (что)	Уровень (где)	Отделение состояния от блоков Д и У	Измеримость
М.Кахарова, итоговое определение [5, с. 232]	+ (население страны)	+ (широкое, но разнородное)	частично (только страна)	- (условия, отношение, участие и процессы смешаны)	-
Ш.Ахророва [6]	+ (определенное общество)	частично (метафора ”облик”)	частично (определенное общество; нижних уровней нет)	- (отношения и условия вместе)	-
А.Эркаев, ”духовная среда” [7]	частично (общество и человек)	+ (нравственные, правовые, эстетические, религиозные нормы)	-	частично (нормативное требование, а не фактическое состояние)	-
Дж.Чан и соавторы, социальная сплоченность [13]	+ (члены общества)	+ (доверие, принадлежность, готовность участвовать и помогать, проявление в поведении)	частично (общество; территориальная единица не указана)	+ (определена как состояние)	+ (субъективные и объективные показатели)
Определение автора	+ (территориальное сообщество)	+ (общие ценности, взаимное доверие и отношения, отношение к информации и идеям, социальное поведение)	+ (от махалли до общества)	+ (коллективное духовное состояние)	+ (признаки в трех слоях; проверка на реальных данных еще впереди)

Источник: составлено автором на основе источников [5; 6; 7; 13].

Сравнение выявило четыре момента. Во-первых, национальные определения фиксируют важное содержание среды (взгляды, отношения, нормы и участие). Но ни в одном из них такое территориальное сообщество, как махалля, район или область, не указано в качестве единицы анализа. Во-вторых, ни одно национальное определение полностью не отвечает критерию состояния: в этих определениях условия, отношение населения и процессы объединены под одним термином. Поэтому, если условия улучшаются, а отношение людей ухудшается, реальное изменение может остаться незамеченным. В-третьих, критерию измеримости частично отвечает только одно из национальных определений. В-четвертых, в наиболее удобном для измерения определении Дж.Чана и соавторов нет идейно-просветительского слоя СДС. Обоснованность (валидность) знаков ”+” в последней строке еще предстоит проверить на реальных данных.

2. Операциональное определение и его свойства. В словосочетании ”социально-духовная среда” слово ”среда” указывает на отношение, ведь среда всегда является чьей-то средой. Слово ”духовная” обозначает ее содержание (ценности, идеи, нормы), а слово ”социальная” показывает, что это содержание существует между людьми, в их отношениях и поведении. Следовательно, оценивается духовность, ставшая общей для сообщества. Исходя из этого, предлагаем следующее операциональное определение:

”**Социально-духовная среда** - это коллективное духовное состояние, которое складывается в определенном территориальном сообществе (махалле, районе, области, обществе) на основе общих ценностей людей, их взаимного доверия и взаимоотношений, отношения к информации и идеям, а также социального поведения. Это состояние, в свою очередь, влияет на сознание, чувства и поступки людей и измеряется через признаки, наблюдаемые в слоях сознания (познание), сердца (ценности и отношения) и поведения (практика).”

В определении сильные стороны подходов М.Кахаровой, А.Эркаева, а также Дж.Чана и соавторов объединены вокруг одного понятия - ”состояния”. Единицей анализа в нем выступает территориальное сообщество, а измерение опирается на признаки в трех слоях. Условия и деятельность в определение намеренно не включены.

Из определения вытекают пять свойств СДС. Первое - коллективность (эмерджентность). СДС - не простая сумма состояний отдельных людей, а

свойство всего сообщества [8]. Поэтому ответы отдельных людей объединяются на уровне сообщества, а то, насколько обосновано такое объединение, проверяется с помощью экометрических показателей [19]. Оценка среды не переносится на отдельных членов сообщества. Второе - двусторонность: люди создают среду, а среда, в свою очередь, формирует их сознание и поведение [11; 12]. Отсюда следует, что среда меняется медленно и ее нужно периодически измерять заново. Третье свойство в том, что СДС - это состояние. Это не духовно-просветительская деятельность и не социально-экономические условия, а состояние, на которое они влияют. Поэтому интегральный индекс социально-духовной среды (ИИСДС) рассчитывается только по показателям состояния, а деятельность и условия используются для объяснения различий в состоянии. Четвертое - многослойность: состояние проявляется в признаках слоев сознания, сердца и поведения и измеряется с помощью опросов, административной статистики и экспертных оценок. Пятое - территориальность. СДС на уровне общества существует как система, складывающаяся из сред махаллей, районов и областей, поэтому оценка становится адресной и отвечает задаче, поставленной в Постановлении № ПП-4307 [4].

3. Модель ”условия - деятельность - состояние”. Для практического применения третьего свойства предлагаем логическую модель ”условия - деятельность - состояние” (УДС) (табл. 2). Она основана на логической модели из теории оценки, то есть на схеме, которая шаг за шагом показывает связь между ресурсами, деятельностью и результатами. В ней деятельность соответствует ступени непосредственного результата (output), а состояние - ступени конечных результатов (outcome) [20].

Таблица 2. Модель ”условия - деятельность - состояние”

Признак	Условия (У)	Деятельность (Д)	Состояние (С)
Определение	Социально-экономические, демографические, инфраструктурные и информационные условия	Духовно-просветительская работа, цель которой - воздействовать на среду	Сама СДС: коллективное духовное состояние в слоях сознания, сердца и поведения

Признак	Условия (У)	Деятельность (Д)	Состояние (С)
Примеры	Занятость, бедность, трудовая миграция, пользование интернетом, культурная инфраструктура; субъективное благополучие (удовлетворенность жизнью, уверенность в завтрашнем дне)	Охват, качество (оценка участников) и адресность мероприятий	Сознание: ИК, ИМ; сердце: ЦН, ВД, СГ; поведение: ГА, ПС, ПП (названия - в следующем разделе)
Источник данных	Официальная и административная статистика, пункты анкеты о благополучии	Отчеты организаций, опрос участников	Репрезентативный опрос, административная статистика, экспертная оценка
Место в логической модели	Контекст и ресурсы	Деятельность и непосредственный результат (output)	Конечные результаты (outcome) и влияние
Роль в оценке	Используются для объяснения различий; помогают сравнивать схожие территории; в индекс не входят	Оцениваются качество и адресность; в индекс не входит	Единственный объект ИИСДС; основа повторных замеров

Источник: разработка автора; строка "Место в логической модели" - на основе [20].

Модель работает по замкнутому циклу: сначала измеряется состояние, по результатам выявляются проблемные места, там ведется адресная работа, а затем состояние измеряется повторно. Результативность деятельности при этом измеряется не числом проведенных мероприятий, а изменением состояния. Почему блоки нужно разделять, объясняет закон Д.Кэмпбелла (D.T.Campbell). Согласно этому закону, чем шире количественный социальный показатель используется при принятии решений, тем сильнее давление, побуждающее его искажать, и тем больше этот показатель нарушает тот самый процесс, который должен отслеживать [21]. Если

оценка ставится по числу мероприятий, система сама открывает дорогу ”мероприятийщине”. В модели УДС показатели состояния берутся из источников, не зависящих от оцениваемой единицы, а деятельность оценивается по ее вкладу в изменение состояния. В системе М.Кахаровой субъективное благополучие используется как индикатор [5, с. 221-227]. Однако оно больше отражает материальное положение людей, поэтому в нашей модели оно измеряется как условие (контекст).

4. Триада ”сознание - сердце - поведение”. Три слоя выбраны не случайно. В социальной психологии М.Розенберг (M.J.Rosenberg) и К.Ховланд (C.I.Hovland) выделили в установке познавательную, эмоциональную и поведенческую части (когнитивный, аффективный и поведенческий компоненты) [22]. В теории воспитания Т.Ликона (T.Lickona) описал единство нравственного знания, чувства и действия [23]. В духовном наследии Востока есть формула ”благая мысль, благое слово, благое дело” (humata, hūxta, huvaršta) [24]. Правда, в ней место чувства занимает слово. Наши три слоя созвучны этим идеям. М.Кахарова также описывает патриотизм как последовательность ”знание - убеждение - действие” [5, с. 221-227]. Вклад нашего исследования здесь в том, что применительно к СДС мы перевели эту триаду в форму, измеряемую на уровне коллектива. При этом сознание - это знания в сообществе и умение работать с информацией; сердце - общие ценности, доверие и взаимоотношения; поведение - наблюдаемая коллективная практика. Восемь измерений СДС распределяются по слоям так: в слое сознания - ИК (информационная культура) и ИМ (идеологический иммунитет); в слое сердца - ЦН (ценности), ВД (взаимное доверие) и СГ (согласие); в слое поведения - ГА (гражданская активность), ПС (прочность семьи) и ПП (правопорядок). На каждое измерение приходится по четыре индикатора. Индикаторы рассчитываются в разрезе возрастных групп, пола, а также города и села. В этой структуре идеологический иммунитет понимается не как лояльность или одобрение официальных взглядов, а как способность населения замечать признаки манипуляции, отвергать деструктивные призывы и опираться на национальную идентичность.

5. Уровни анализа и место махалли. Первичной единицей анализа мы выбрали махаллю. Для этого есть три причины. Во-первых, с 2026 года задачи, связанные с СДС, возложены на должностных лиц махалли [3]. Значит, сведения о состоянии среды могут ложиться в основу управленческих решений именно на этом уровне. Во-вторых, нормы,

доверие и взаимный контроль формируются там, где люди общаются лицом к лицу. Коллективная эффективность также измерялась на уровне жилых кварталов [17]. А связи между микросистемами модели Бронфенбреннера (семья, школа, сверстники) [12] в Узбекистане пересекаются в махалле. В-третьих, экометрика дает необходимые средства для надежной оценки свойств территории [19]. Выбор махалли в качестве основной единицы встречается и в практике Республиканского центра духовности и просветительства (РЦДП): в ”карте духовно-просветительской среды” [5, с. 205] и в исследовании махаллей ”красной и желтой зоны” [5, с. 137-139]. Однако позднее эта работа ослабла. Хотя семья - самый близкий круг, где складывается СДС, мы не взяли ее в качестве первичной единицы. Дело в том, что на уровне семьи нельзя оценить коллективное свойство по независимым ответам, а такое измерение создает риск вмешательства в частную жизнь. Поэтому признаки, относящиеся к семье, обобщаются в измерении ”прочность семьи”. ИИСДС рассчитывается как среднее геометрическое измерений. Из-за этого индексы района, области и республики не равны простому среднему индексов махаллей и пересчитываются на каждом уровне отдельно.

ВЫВОДЫ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

1. В нормативных документах СДС стала управленческим понятием, обозначающим состояние, которое можно оценить. Однако в изученных источниках ее определения, пригодного для измерения, нет. Проблема методологии прежде всего вытекает из самого понятия.

2. В национальных определениях отражено содержание среды (взгляды, отношения, нормы, участие). Однако в них не определена территориальная единица (махалля, район или область), состояние не полностью отделено от условий и деятельности, а наблюдаемые признаки не указаны. Определение социальной сплоченности, в свою очередь, не охватывает идейно-просветительский слой.

3. Классическая традиция позволяет понимать СДС как коллективное (Дюркгейм, Ибн Халдун), двустороннее (Бергер и Лукман), многоуровневое (Бронфенбреннер) духовное состояние, которое проявляется на почве общих для людей смыслов (Хабермас). Принцип Дюркгейма - изучать внутреннее состояние через внешние признаки - дает возможность перевести СДС в измеряемую форму.

4. Согласно предложенному автором операциональному определению, СДС - это коллективное духовное состояние территориального сообщества,

измеряемое через признаки в слоях сознания, сердца и поведения. Модель УДС включает в интегральную оценку только показатели состояния и тем самым снижает риск искажения, о котором говорит закон Кэмпбелла.

5. Триада ”сознание - сердце - поведение”, корни которой восходят к социальной психологии, теории воспитания и духовному наследию Востока, позволяет сгруппировать восемь измерений и перевести их в измеряемую форму.

На этой основе предлагаем: 1) официально закрепить операциональное определение СДС в методических документах РЦДП и Института социально-духовных исследований; 2) в системах оценки и рейтинга рассчитывать показатели условий, деятельности и состояния отдельно, а духовно-просветительскую деятельность оценивать не по числу мероприятий, а по изменению состояния; 3) использовать оценки по махаллям в управленческих решениях только после экометрической проверки. Задача дальнейших исследований - разработать систему индикаторов, интегральный индекс и методику многоуровневого мониторинга и проверить их на пилотных данных.

ЛИТЕРАТУРА

1. Указ Президента Республики Узбекистан от 18 февраля 2020 г. № УП-5938 «О мерах по оздоровлению социально-духовной атмосферы в обществе, дальнейшей поддержке института махалли, а также поднятию на новый уровень системы работы с семьями и женщинами» // Национальная база данных законодательства. — URL: https://lex.uz/docs/4740347

2. Постановление Президента Республики Узбекистан от 26 марта 2021 г. № ПП-5040 «О мерах по коренному совершенствованию системы духовно-просветительской работы» // Национальная база данных законодательства. — URL: https://lex.uz/docs/5344680

3. Указ Президента Республики Узбекистан от 24 июня 2026 г. № УП-116 «О дополнительных мерах по эффективной организации управления махаллями» // Национальная база данных законодательства. — URL: https://lex.uz/docs/8286512

4. Постановление Президента Республики Узбекистан от 3 мая 2019 г. № ПП-4307 «О дополнительных мерах по повышению эффективности духовно-просветительской работы» // Национальная база данных законодательства. — URL: https://lex.uz/docs/4320700

5. Кахарова М. М. Жамиятда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш ва сиёсий барқарорлигини таъминлаш технологиялари: сиёсий фанлар доктори (DSc) диссертацияси. — Тошкент, 2024. — 258 б. (на узб. яз.).

6. Аҳророва Ш. Ў. Ижтимоий-маънавий муҳит ва бадиий адабиётда қадриятлар диалектикаси: фалсафа фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. — Тошкент, 2025. — URL: https://api.ziyonet.uz/uploads/books/10001253/Na7NgVxyYb9MTVm.pdf (на узб. яз.).

7. Эркаев А. Маънавиятшунослик. 1-китоб: Маънавият онтологияси ва феноменологияси. — Тошкент: Маънавият, 2018. — 482 б. (на узб. яз.).

8. Durkheim É. The Division of Labour in Society / transl. by W. D. Halls. — London: Macmillan, 1984. — (Original work published 1893).

9. Ibn Khaldûn. The Muqaddimah: An Introduction to History / transl. by F. Rosenthal. In 3 vols. — New York: Pantheon Books, 1958. — (Bollingen Series; XLIII).

10. Habermas J. The Theory of Communicative Action. Vol. 1 / transl. by T. McCarthy. — Boston: Beacon Press, 1984.

11. Berger P. L., Luckmann T. The Social Construction of Reality: A Treatise in the Sociology of Knowledge. — New York: Doubleday, 1966.

12. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979.

13. Chan J., To H.-P., Chan E. Reconsidering social cohesion: Developing a definition and analytical framework for empirical research // Social Indicators Research. — 2006. — Vol. 75, No. 2. — P. 273–302. — DOI: 10.1007/s11205-005-2118-1.

14. Schiefer D., van der Noll J. The essentials of social cohesion: A literature review // Social Indicators Research. — 2017. — Vol. 132, No. 2. — P. 579–603. — DOI: 10.1007/s11205-016-1314-5.

15. Putnam R. D., Leonardi R., Nanetti R. Y. Making Democracy Work: Civic Traditions in Modern Italy. — Princeton, NJ: Princeton University Press, 1993.

16. Schwartz S. H. Universals in the content and structure of values: Theoretical advances and empirical tests in 20 countries // Advances in Experimental Social Psychology. — 1992. — Vol. 25. — P. 1–65. — DOI: 10.1016/S0065-2601(08)60281-6.

17. Sampson R. J., Raudenbush S. W., Earls F. Neighborhoods and violent crime: A multilevel study of collective efficacy // Science. — 1997. — Vol. 277, No. 5328. — P. 918–924. — DOI: 10.1126/science.277.5328.918.

18. Bollen K., Lennox R. Conventional wisdom on measurement: A structural equation perspective // Psychological Bulletin. — 1991. — Vol. 110, No. 2. — P. 305–314. — DOI: 10.1037/0033-2909.110.2.305.

19. Raudenbush S. W., Sampson R. J. Ecometrics: Toward a science of assessing ecological settings, with application to the systematic social observation of neighborhoods // Sociological Methodology. — 1999. — Vol. 29, No. 1. — P. 1–41. — DOI: 10.1111/0081-1750.00059.

20. W. K. Kellogg Foundation. Logic Model Development Guide. — Battle Creek, MI: W. K. Kellogg Foundation, 2004.

21. Campbell D. T. Assessing the impact of planned social change // Evaluation and Program Planning. — 1979. — Vol. 2, No. 1. — P. 67–90. — DOI: 10.1016/0149-7189(79)90048-X.

22. Rosenberg M. J., Hovland C. I. Cognitive, affective, and behavioral components of attitudes // Attitude Organization and Change: An Analysis of Consistency among Attitude Components / M. J. Rosenberg, C. I. Hovland, W. J. McGuire, R. P. Abelson, J. W. Brehm. — New Haven: Yale University Press, 1960. — P. 1–14.

23. Lickona T. Educating for Character: How Our Schools Can Teach Respect and Responsibility. — New York: Bantam Books, 1991.

24. Boyce M. Humata Hūxta Huvaršta // Encyclopaedia Iranica. — 2004. — Vol. XII, Fasc. 5. — P. 561–562. — URL: https://www.iranicaonline.org/articles/humata-huxta-huvarsta/

7. PHILOLOGY AND CULTURAL STUDIES

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA «GUL/FLOWER» KOMPONENTLI OBRAZLI BIRLIKLARNING QIYOSIY-SEMANTIK VA TARJIMAVIY TAHLILI

Ro‘ziyeva Maftuna Shuxrat qizi
Osiyo texnologiyalari universetiti
19maftunaruziyeva92@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek tilidagi gul va ingliz tilidagi flower leksemalari hamda ularning hosilalari ishtirok etgan obrazli birliklar qiyosiy-semantik va tarjimaviy jihatdan o‘rganiladi. Izohli lug‘atlardan maqsadli tanlab olingan 18 birlik (o‘zbek tilidan 10 ta, ingliz tilidan 8 ta) semantik ko‘chish, tuzilish, uslubiy bo‘yoq va madaniy xoslik mezonlari asosida sifat jihatdan tahlil qilindi; to‘rtta to‘g‘ri ma’noli qo‘llanish nazorat misoli vazifasini bajardi. Natijalar ikki tilda go‘zallik, saralik, yoshlik va taraqqiyot obrazlari qisman yaqin ekanini, biroq mahorat, nojo‘ya oshkor qilish, ijtimoiy tortinchoqlik va tarixiy-madaniy tushunchalarda mazmuniy tafovutlar mavjudligini ko‘rsatdi. So‘zma-so‘z moslik emas, ma’no, kommunikativ vazifa va uslub birligi ustuvor bo‘lgan uch mezonli tarjima yondashuvi taklif etiladi. Ish materiallari lug‘atga asoslangan cheklangan tanlanma bo‘lib, korpus chastotasi to‘g‘risida umumlashtiruvchi xulosa bermaydi.*

Kalit so‘zlar: *qiyosiy lingvistika, gul komponenti, flower, ko‘chma ma’no, lingvomadaniyatshunoslik, frazeologizm, tarjima ekvivalentligi.*

Abstract. *This article examines figurative expressions containing the Uzbek lexeme gul and the English lexeme flower, including their morphologically related forms. A purposively selected dictionary-based sample of 18 figurative units (10 Uzbek and 8 English) is examined qualitatively according to semantic shift, structural pattern, register and cultural specificity; four literal uses serve as control examples. The analysis identifies partly shared mappings associated with beauty, excellence, youth and development, alongside important divergences in the domains of craftsmanship, inadvertent disclosure, social reserve and historically situated cultural meanings. Rather than assuming word-for-word correspondence, the study proposes a three-criterion translation procedure focused on propositional meaning, pragmatic function and stylistic register.*

Because the sample is restricted to attested dictionary entries, the results do not establish usage frequencies or corpus-wide prevalence.

Keywords: *contrastive linguistics, floral lexemes, flower, figurative meaning, cultural semantics, phraseology, translation equivalence.*

Аннотация. *В статье рассматриваются образные единицы с узбекским компонентом gul и английским компонентом flower, включая словообразовательные производные. На материале целенаправленной выборки из толковых словарей проведён качественный анализ 18 единиц (10 узбекских и 8 английских) по критериям семантического переноса, структуры, стилистической окраски и культурной специфики; четыре употребления в прямом значении использованы для контроля. Выявлены частично общие метафорические связи с красотой, превосходством, молодостью и развитием, а также различия, связанные с мастерством, непреднамеренным разглашением тайны, социальной застенчивостью и историко-культурными понятиями. Предложен трёхкритериальный подход к переводу, учитывающий значение, прагматический эффект и регистр. Ограниченная словарная выборка не позволяет делать выводы о частотности употребления.*

Ключевые слова: *сопоставительная лингвистика, флоронимы, переносное значение, лингвокультурология, фразеология, переводческая эквивалентность.*

KIRISH

Tabiat nomlari inson tajribasini ifodalashda faqat predmetni atash vazifasini bajarmaydi: ular vaqt, baho, ruhiy holat va jamiyat haqidagi tasavvurlarga ham ko‘chadi. Gulning ko‘rkamligi, ochilishi, so‘lishi yoki nihollashi kuzatiladigan tabiiy jarayon bo‘lgani uchun ushbu belgilar go‘zallik, kamolot, imkoniyat hamda taraqqiyot ma’nolarini obrazli ifodalashga qulay zamin yaratadi. Shunga qaramay, bir tildagi gul timsoli boshqa tildagi flower so‘zining hamma vazifalariga mos kelmaydi. So‘zning shakliy o‘xshashligi tarjimada mazmuniy ekvivalentlikni avtomatik ta’minlamasligi masalaning nazariy va amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Maqolaning maqsadi ingliz va o‘zbek tillaridagi gul/flower asosli obrazli birliklarni yagona mezonlar asosida qiyoslash hamda ularning muqobil tarjima usullarini asoslashdir. Shu maqsadga erishish uchun quyidagi savollar qo‘yildi: (1) ikkala tilda qanday umumiy obrazli semalar mavjud? (2) qaysi birliklarda tilga xos pragmatik yoki tarixiy-madaniy ma’no ustun? (3) qaysi hollarda komponentni saqlash, boshqa obraz tanlash yoxud izohlab tarjima qilish

maqsadga muvofiq? Tadqiqotning amaliy ahamiyati, xususan, ingliz tili lingvistikasi bo‘yicha magistrantlar, tarjimonlar va qiyosiy leksikologiyani o‘rganuvchilar uchun kichik tahliliy namunada ko‘rinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA NAZARIY ASOS

Konseptual metafora yondashuvida ko‘chma ma’no tasodifiy bezak sifatida emas, tajribadan abstrakt sohalarga ma’no ko‘chirish mexanizmi sifatida izohlanadi. Lakoff va Johnson (1980) metaforalarning kundalik tafakkur hamda tilni tashkil etishdagi o‘rnini asoslagan. Mazkur yondashuv gulning tashqi ko‘rinishi yoki gullash jarayonini insonning yoshligi, qobiliyati va jamiyat taraqqiyotiga bog‘laydigan birliklarni izohlashga yordam beradi. Bunda «GUL — GO‘ZALLIK» singari ifodalar qat’iy universal qonun emas, kuzatilgan birliklar uchun taklif etilgan tahliliy umumlashma sifatida qo‘llanadi.33

Ingliz va o‘zbek tillaridagi floristik frazeologizmlar bo‘yicha so‘nggi tadqiqotlardan birida F. Xazratqulova (2026) go‘zallik, sevgi, hayotiylik va o‘tkinchilik kabi semantik maydonlarni qiyosiy ko‘rib chiqqan. Ushbu yo‘nalishning mavjudligi mavzuning dolzarbligini ko‘rsatsa-da, mazkur maqola uni takrorlashni maqsad qilmaydi. Bizning tahlilda bir xil nomlangan «gul» obraziga tegishli barcha birliklar bir guruhga yig‘ilmaydi: turli grammatik shakl, nutq registri va tarjima vazifasi alohida baholanadi. Ayniqsa flower power, wallflower yoki og‘zidan gullamoq kabi birliklar ko‘rsatadiki, o‘zakning etimologik yoki morfologik mavjudligi yuzaki ma’no birligini anglatmaydi.34

Tarjimashunoslikda M. Baker (2018) so‘z darajasidan yuqoridagi ekvivalentlikni, xususan kollokatsiya, idiom va barqaror ifodalar tarjimasidagi semantik hamda pragmatik cheklovlarni alohida tahlil qiladi. Frazeologizmning o‘zga tilda xuddi shunday obraz bilan ifodalanishi, boshqa obrazli birlik bilan berilishi yoki izohiy tarjima qilinishi mumkin; variant tanlashda kontekst va nutq registri hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu asosda ushbu tadqiqot har bir birlik uchun «nima deyilmoqda — nima uchun deyilmoqda — qanday ohangda deyilmoqda?» degan savollarni birgalikda tekshiradi.35

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODLARI

Material o‘zbek tilining Izoh.uz izohli lug‘atidagi gul, gulla, gul-gul va gulchehra maqolalaridan, ingliz tilining Cambridge Dictionary va Oxford Advanced Learner’s Dictionary sahifalaridan olindi. Tanlanmaga gul yoki flower

33Lakoff, G., Johnson, M. Metaphors We Live By. University of Chicago Press, 1980. https://press.uchicago.edu/ucp/books/book/chicago/M/bo3637992.html
34Xazratqulova F. Ingliz va o‘zbek tillarida gul komponentli frazeologizmlar: kognitiv-semantik tipologiya // FarDU ilmiy xabarlari. 2026. 7(2). https://www.sindex.uz/kaa/article/62965
35Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. 3rd ed. Routledge, 2018. ISBN: 9781138666870.

shakli bevosita qatnashgan, shuningdek shu o‘zakdan yasalib ko‘chma ma’noda ishlatiladigan birliklar kiritildi. O‘zbek tilidan 10 ta, ingliz tilidan 8 ta birlik tahlil qilindi. «Olma guli», «gul ekmoq», «cut flowers», «in flower» singari to‘g‘ri ma’noli to‘rtta birikma metaforik talqinni nazorat qilish uchun ajratildi; ular 18 ta obrazli birlik hisobiga kiritilmadi.

Birliklarni tanlash mezonlari quyidagicha belgilandi: (a) kamida bitta lug‘atda ko‘chma, terminlashgan yoki madaniy-shartli ma’nosi qayd etilgan bo‘lishi; (b) tarkibda gul/flower o‘zagi yoki aniq ko‘rinadigan hosilasi mavjudligi; (c) tarjima tanlovini namoyish etuvchi kontekst ishlab chiqish mumkinligi. Bir ildizdan kelib chiqqan, biroq lug‘atda alohida ma’noga ega hosila mustaqil tahlil birligi sanaldi. Misollarning mavjudligi lug‘at bilan tasdiqlangan, biroq tahlil uchun tuzilgan namunaviy gaplar muallifning didaktik konstruksiyalaridir. Adabiy asarlardan yangi dalil korpusi yig‘ilgan yoki so‘zlarning real nutqda uchrash soni sanalgan, degan da’vo ilgari surilmaydi.

Tahlilda komponent tahlili, semantik guruhlash, lingvopragmatik sharhlash va qiyosiy tarjima usullari birgalikda qo‘llandi. Har birlik bo‘yicha denotativ tayanch ma’no, obrazli sema, grammatik konstruksiya, registr (so‘zlashuv, kitobiy, poetik yoki tarixiy-madaniy) va kontekstga mos tarjima varianti qayd etildi. Bunda to‘liq ekvivalentlik deganda hamma vaziyatlarda mexanik almashtirish emas, ayni matn uchun mazmun va uslubning yetarli darajada mosligi tushuniladi.

NATIJALAR

1. O‘zbek tilidagi gul asosli obrazli birliklarning semantik ko‘lami

O‘zbek lug‘atida gul so‘zi botanik nomdan tashqari bezak, go‘zal shaxs, yaqin insonga murojaat va jamoaning sarasi ma’nolarida ham qayd etiladi. Demak, ma’no ko‘chishi faqat predmet nomidan sifatga o‘tish bilan cheklanmay, baholash, munosabat bildirish va shaxsni tavsiflash kabi kommunikativ amallarni ham qamrab oladi. Quyidagi jadvaldagi «dominant sema» ustuni muallif tomonidan berilgan tahliliy yorliqdir; u lug‘at ta’rifining so‘zma-so‘z nusxasi emas.36

1-jadval. O‘zbek tilidagi 10 ta obrazli birlikning semantik tasnifi

Birlik	Dominant sema va vazifa	Registr / shakl
1. gul (go‘zal ma’nosida)	Go‘zallikni shaxsga ko‘chirish	Poetik, ot

36Izoh.uz. «Gul» maqolasi: ko‘chma ma’nolar, qo‘li gul, gul qilmoq va boshqa birikmalar. https://izoh.uz/word/gul

Birlik	Dominant sema va vazifa	Registr / shakl
2. gulim	Yaqin kishiga mehr bilan murojaat	Emotsional, egalikli ot
3. yigitlarning guli	Guruhning eng sarasi, eng yaxshisi	Baholovchi izofa
4. qo‘li gul	Kasbiy yoki amaliy mahorat	Barqaror ibora
5. gul qilmoq	Obod qilish, jonlantirish	Fe’lli birikma
6. o‘n gulidan bittasi ham ochilmagan	Hali yosh, imkoniyatlari oldinda	Frazeologik jumla
7. gul-gul ochilmoq	Chehraning shodlikdan yashnashi	Takroriy asosli fe’l
8. gullamoq (ko‘chma)	Taraqqiy etish, ravnaq topish	Yasama fe’l
9. og‘zidan gullamoq	Sirni bilmasdan aytib qo‘yish	So‘zlashuv idiomasi
10. gulchehra (atoqli ot emas)	Go‘zal, chehrasi ko‘rkam shaxs	Poetik qo‘shma so‘z

Jadvalga kiritilgan birliklar bir xil darajada frazeologik emas: qo‘li gul va o‘n gulidan bittasi ham ochilmagan barqaror ibora bo‘lsa, gulim metaforik murojaat, gulchehra esa leksiklashgan qo‘shma so‘zdir. Shu tafovut tadqiqot predmetini «faqat frazeologizmlar» deb toraytirmaslik uchun muhim. Birinchi uch birlikda gulning jozibadorligi shaxsga ijobiy baho sifatida proyeksiyalansa, qo‘li gul da e’tibor tashqi go‘zallikdan amaliy natijaga o‘tadi. Gul qilmoq va gullamoq esa statik belgidan jarayon modeliga ko‘chadi: chiroyli holat emas, obodlik yoki taraqqiyotning yuzaga kelishi markazga chiqadi.

Semantik jihatdan eng keskin ajraluvchi misol og‘zidan gullamoqdir. Gulning odatdagi ijobiy ramzi bu yerda «sirni oshkor qilish» mazmunini oldindan aytib bermaydi. Lug‘atda iboraning aynan ehtiyotsizlik bilan sirni aytib qo‘yish ma’nosi qayd etilgan; shu sabab uni inglizchaga «to flower from the mouth» tarzida tarjima qilish mumkin emas. Mazkur misol gul o‘zagi bor barcha birliklarni faqat go‘zallik yoki pozitiv baho guruhiga kiritish noto‘g‘ri ekanini ko‘rsatadi.37

2. Ingliz tilidagi flower asosli birliklar va ularning farqlari

Ingliz tilida flower otining ko‘chma ma’nosi «muayyan guruhning eng yaxshi vakillari» yoki «eng yuqori bosqich» semalari atrofida ko‘zga tashlanadi; to flower fe’li esa yetuklashish, qobiliyatning namoyon bo‘lishi ma’nosida ham

37Izoh.uz. «Gulla» maqolasi: «Og‘zidan gullamoq» izohi. https://izoh.uz/word/gulla

ishlatiladi. Biroq word formation orqali shakllangan wallflower, flower child yoki flower power birikmalarida ma’no tashkiliy-madaniy konvensiyalar bilan belgilanadi. Ularni gullash metaforasidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqarish izohning yetarli usuli emas.38

2-jadval. Ingliz tilidagi 8 ta birlikning semantik va pragmatik xususiyatlari

Birlik	**Asosiy ko‘chma yoki madaniy mazmun**	**Registr / belgi**
1. the flower of something	Guruhning eng yaxshi, sara vakillari	Kitobiy idiom
2. in the flower of one’s youth	Yoshlikning eng faol, eng barkamol davri	Kitobiy ibora
3. to flower (figurative)	Iste’dod yoki salohiyatning rivojlanishi	Adabiy fe’l
4. the flowering of ideas / democracy	G‘oya yoki institutning ravnaq bosqichi	Kitobiy otlashuv
5. flowery language	Haddan tashqari jimjimador nutq	Ko‘pincha tanqidiy baho
6. wallflower (person)	Ijtimoiy muhitda tortinchoq, chetda qoluvchi kishi	Norasmiy, leksiklashgan
7. flower power	1960–1970-yillar tinchlik va muhabbat g‘oyalari	Tarixiy-madaniy atama
8. flower child	Xippi submadaniyatiga mansub kishi	Tarixiy-madaniy atama

Jadvaldagi birinchi ikki birlikda o‘zbekcha yigitlarning guli va umrning gullagan davri bilan yaqinlik kuzatiladi, ammo uslubiy vazifa to‘liq bir xil emas. Masalan, in the flower of one’s youth ko‘pincha kitobiy, ba’zan fojiaviy yoki nostaljik kontekstda keladi; o‘zbekcha o‘n gulidan bittasi ham ochilmagan esa hali butun hayoti va imkoniyatlari oldinda turgan yosh shaxsga nisbatan ishlatiladi. Ular yoshlik semasi bilan kesishadi, lekin to‘liq sinonim emas. Inglizcha flowery language ifodasida esa bezak ortiqchaligi salbiy baholanadi: bu o‘zbekchadagi gulday chiroyli so‘zlash ma’nosini anglatmaydi.

English flower child va flower power ni «gul farzandi» hamda «gul kuchi» shaklida berish madaniy ma’lumotni yo‘qotadi. Ushbu shakllarning ma’nosi ma’lum tarixiy oqim bilan bog‘langani sababli o‘quvchiga xippi harakati, urushga qarshi kayfiyat yoki tinchlik g‘oyalari to‘g‘risida minimal kontekst talab qilinadi. Aksincha, wallflower kontekstda tortinchoq odamni anglatsa, o‘zbek

38Cambridge Dictionary: flower, wallflower, flower child, flower power; Oxford Advanced Learner’s Dictionary: flowering. Tegishli onlayn lug‘at maqolalari adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

tilidagi gulchehra go‘zallikni ta’kidlaydi; ikkala leksemada flower/gul morfemasi borligi ijobiy yoki salbiy baho bir xil ekanini bildirmaydi.

3. Ma’no qiyosida umumiy va farqli qatlamlar

Birinchi umumiy qatlam — insonning «eng yaxshi davri» yoki «eng yaxshi vakili»ni gul obrazida ko‘rishdir. O‘zbekcha yigitlarning guli va inglizcha the flower of a group birliklarida guruh ichidan saralash semasi mavjud. Ikkinchi qatlam — jarayon semasi: o‘zbekcha gullamoq va inglizcha to flower muayyan qobiliyat, tizim yoki hayot tarzining rivojlanishini ifodalay oladi. Uchinchi qatlam — yoshlik va kamolot; biroq bu sohada tarjima uchun muhim bo‘lgan temporal farq mavjud: hali ochilmagan gul istiqboldagi imkoniyatni, gullagan davr esa ayni yetuklik paytini bildirishi mumkin.

Tilga xos qirralar ikki yo‘nalishda namoyon bo‘ldi. O‘zbek tanlanmasida qo‘li gul ko‘proq mohirlikni, og‘zidan gullamoq esa beixtiyor oshkor etishni bildiradi; ingliz tanlanmasida wallflower shaxsning ijtimoiy tortinchoqligini, flower power esa aniq madaniy davrni nomlaydi. Shuning uchun bir xil tabiat obrazidan kelib chiqqan birliklar uchun alohida tillarda turli konseptual yo‘nalishlar hosil bo‘lishi mumkin. Bu farq o‘sha tildagi barcha birliklarga xos mutlaq qonun sifatida emas, aynan tanlangan lug‘aviy misollarning kuzatilgan xususiyati sifatida talqin qilinadi.

TARJIMAVIY MUHOKAMA

1. Ekvivalentlikni aniqlashning uch mezoni

Gul/flower asosli birliklarni tarjima qilishda uch bosqichli tekshiruv qo‘llash taklif etiladi. Dastlab denotativ va konnotativ mazmun ajratiladi: birlik shaxsning go‘zalligi, layoqati, kamoloti yoki baholovchi munosabatni anglatadimi? So‘ng kommunikativ vazifa tekshiriladi: so‘zlovchi maqtayaptimi, tanqid qilyaptimi, mehr bilan murojaat qilyaptimi yoki tarixiy tushunchani atayaptimi? Nihoyat, matn registri aniqlanadi: poetik murojaatni neytral prozada saqlash kerakmi, yoxud norasmiy idiomaga rasmiy, tushuntiruvchi ekvivalent kerakmi? Shakl faqat shu uch mezon qondirilganidan keyin ustuvor hisoblanadi.

Mazkur bosqichlar natijasida to‘rtta ishchi strategiya farqlanadi: (1) yaqin obraz va ma’no bilan tarjima qilish; (2) o‘sha ma’noni boshqa obrazli birlik orqali berish; (3) obrazni saqlamasdan mazmunni funksional ekvivalent bilan ifodalash; (4) madaniy ma’noni izohlab tarjima qilish. Bu strategiyalar qat’iy matematik sinflar emas: bir kontekstda funksional ekvivalent, boshqasida izohiy tarjima ustun bo‘lishi mumkin. Quyidagi variantlar nashr qilingan parallel tarjimalar emas, lug‘aviy ma’noga tayangan holda muallif tomonidan tuzilgan tarjima modellaridir.

3-jadval. Namunaviy kontekstlar uchun tarjima yechimlari

Manba birlik	Kontekstga mos variant	Asos
Uzb. qo‘li gul usta	Eng. a highly skilled craftsperson	Mahorat semasi saqlanadi; gul so‘zma-so‘z ko‘chmaydi.
Uzb. yigitlarning guli	Eng. the finest among the young men	Saralik ma’nosi poetik bo‘yoqsiz berildi.
Eng. the flower of the nation	Uzb. millatning sara farzandlari	«Gul» saqlanishi mumkin, ammo kontekstda «sara» tabiiyroq.
Eng. in the flower of his youth	Uzb. umrining ayni navqiron chog‘ida	Hozirgi yetuklik davri saqlanadi, «hali ochilmagan» bilan almashtirilmaydi.
Uzb. ro‘zg‘orni gul qilmoq	Eng. to turn a household into a thriving one	Obodlik va o‘zgarish natijasi yetkaziladi.
Uzb. og‘zidan gullab yubormoq	Eng. to let a secret slip	Beixtiyor oshkor qilish semasi to‘g‘ri o‘tadi.
Eng. flowery language	Uzb. jimjimador, ortiqcha bezakli til	Odatda tanqidiy uslubiy baho saqlanadi.
Eng. wallflower	Uzb. davrada tortinib, chetda turadigan odam	Leksik ma’no izoh bilan aniq ochiladi.
Eng. flower power	Uzb. xippi davrining tinchlik va muhabbat g‘oyalari	Madaniy-tarixiy referent izohlab beriladi.

2. Tarjimada ekvivalentlik tuzoqlari

Birinchi tuzoq — «bir xil obraz = bir xil ma’no» tamoyili. Masalan, o‘n gulidan bittasi ham ochilmagan va in the flower of one’s youth ifodalari yoshga daxldor bo‘lsa-da, birinchisida yuzaga chiqmagan istiqbol, ikkinchisida eng faol davr ta’kidlanadi. Ularni izohsiz almashtirish matnning vaqtga oid nozik ma’nosini o‘zgartiradi. Ikkinchi tuzoq — so‘zning ko‘chma ma’nosini so‘zma-so‘z nominal shaklga o‘girish: qo‘li gul → flower-handed ko‘rinishidagi tarjima ingliz tilida lug‘aviy asoslangan tayyor ibora sifatida qo‘llanmaydi va mazmunni tushunarsiz qilishi mumkin.

Uchinchi tuzoq — ijobiy konnotatsiyani barcha gul asosli birliklarga ko‘chirish. Gulim ijobiy hissiy munosabat bildirsa, og‘zidan gullamoq ehtiyotsizlikni anglatadi, flowery language esa jumlani ortiqcha bezashga tanqidiy munosabatni ifodalay oladi. To‘rtinchi tuzoq — tarixiy-madaniy belgini e’tiborsiz qoldirish: flower child ning botanik tasviri emas, xippi submadaniyatini bildirishi tarjima tanlovini belgilaydi. Shu jihatdan ekvivalentlik birliklar o‘rtasida emas, aynan nutqiy vaziyat doirasida tekshirilishi lozim.

Beshinchi masala morfologik asimmetriyaga bog‘liq. O‘zbekchada gul asosiga fe’l yasovchi -la qo‘shimchasi qo‘shilib gullamoq hosil bo‘ladi, inglizchada esa flower so‘zi ot va fe’l sifatida bir xil shakl bilan ishlatiladi; flowering shakli jarayonni nomlaydi. Gulchehra va wallflower qo‘shma birliklar bo‘lsa-da, ularning komponentlari bir xil ko‘chma semani yuzaga keltirmaydi. Shuning uchun lingvistik tahlilda komponentning yuzaki tarjimasi bilan birlikning to‘liq leksik ma’nosini farqlash talab etiladi.

3. Til o‘qitishdagi amaliy qo‘llanish

Ingliz tili magistranti uchun mazkur material bilan ishlashning samarali shakli — ikkala tilda parallel tarjima kartochkalari tuzishdir. Kartochkaning bir tomonida manba birlik, ikkinchi tomonida esa kamida ikki xil kontekst va mos tarjima beriladi. Masalan, flower so‘zi o‘simlikka nisbatan kelganda gul, iste’dodga nisbatan to flower sifatida qo‘llanganda esa rivojlanmoq yoki kamol topmoq shaklida ifodalanadi. Bunday mashq talabaning lug‘at ta’rifini bilish bilan nutqda tabiiy ekvivalent topish qobiliyati bir xil emasligini amalda ko‘rsatadi.

Ikkinchi mashq sifatida «chalg‘ituvchi ekvivalent»ni aniqlash topshirig‘i berilishi mumkin: wallflower — gulchehra, flower power — gul kuchi, qo‘li gul — flower-handed kabi yuzaki variantlar talabalarga taklif qilinadi va nega noto‘g‘ri yoki noqulay ekanini semantik, pragmatik hamda uslubiy jihatdan izohlash so‘raladi. Nazoratning maqsadi «faqat bitta to‘g‘ri tarjima»ni yodlatish emas, dalil bilan asoslangan tarjima tanlovini shakllantirishdir.

TADQIQOT CHEKLOVLARI

Tadqiqot maqsadli tanlab olingan lug‘aviy materialga asoslanadi. Mazkur material birliklarning leksikografik tasdiqlanishini ko‘rsatadi, ammo kundalik nutqdagi chastota, hududiy farqlar, turli yosh guruhlarining qabul qilishi yoki matn janrlari bo‘yicha taqsimlanishini o‘lchamaydi. Tanlanmada leksiklashgan qo‘shma so‘z, barqaror ibora va obrazli hosila mavjudligi sababli «18 ta frazeologizm» degan belgilash to‘g‘ri bo‘lmaydi: ular umumiyroq ma’noda 18 ta obrazli birlikdir. Kelgusidagi ishda bir xil davr va janrlardan olingan parallel korpus asosida qo‘llanish tezligi hamda tarjima variantlarini mustaqil tekshirish mumkin.

XULOSA

Tahlil ingliz va o‘zbek tillaridagi gul/flower asosli birliklarda to‘rt asosiy yaqinlik mavjudligini ko‘rsatdi: go‘zallikka baho berish, guruhning saralarini ajratish, yoshlik yoki kamolotni ifodalash va rivojlanish jarayonini nomlash. Biroq bir xil obraz turli tillarda bir xil pragmatik ma’noni kafolatlamaydi. O‘zbek

tilidagi qo‘li gul va og‘zidan gullamoq kabi birliklar, inglizchadagi wallflower, flowery language, flower child hamda flower power kabi shakllar bu fikrni yaqqol namoyon etadi.

Ishning asosiy amaliy natijasi — tarjimada shakliy yaqinlikdan oldin mazmun, kommunikativ vazifa va registrni tekshirish kerakligi asoslandi. Ayniqsa yoshga oid obrazlarda vaqt semasini, nutqni baholovchi birliklarda ijobiy yoki salbiy konnotatsiyani, tarixiy atamalarda esa madaniy ma’lumotni saqlash muhim. Natijalarni kengroq til korpusiga tatbiq etish uchun qo‘shimcha empirik tekshiruv talab qilinadi; shu bois maqoladagi xulosalar tahlil qilingan lug‘aviy tanlanma bilan chegaralanadi. Ushbu yondashuv qiyosiy lingvistika va amaliy tarjima mashg‘ulotlari uchun metodik asos bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press. https://press.uchicago.edu/ucp/books/book/chicago/M/bo3637992.html

2. Baker, M. (2018). In Other Words: A Coursebook on Translation (3rd ed.). Routledge. ISBN 9781138666870. https://www.monabaker.org/publications/

3. Xazratqulova, F. (2026). Ingliz va o‘zbek tillarida gul komponentli frazeologizmlar: kognitiv-semantik tipologiya. FarDU ilmiy xabarlari, 7(2). https://www.sindex.uz/kaa/article/62965

4. Izoh.uz. Gul // O‘zbek tilining izohli lug‘ati. https://izoh.uz/word/gul (murojaat: 25.10.2026).

5. Izoh.uz. Gulla // O‘zbek tilining izohli lug‘ati. https://izoh.uz/word/gulla (murojaat: 25.10.2026).

6. Izoh.uz. Gul-gul // O‘zbek tilining izohli lug‘ati. https://izoh.uz/word/gul-gul (murojaat: 25.10.2026).

7. Izoh.uz. Gulchehra // O‘zbek tilining izohli lug‘ati. https://izoh.uz/word/gulchehra (murojaat: 25.10.2026).

8. Cambridge Dictionary. Flower (noun, verb, idioms). https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/flower (accessed 25 October 2026).

9. Cambridge Dictionary. The flower of something; In the flower of someone’s youth. https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/flower-of ; https://dictionary.cambridge.org/us/dictionary/english/in-the-flower-of-youth (accessed 25 October 2026).

10. Oxford Advanced Learner's Dictionary. Flowering (noun). https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english/flowering (accessed 25 October 2026).

11. Cambridge Dictionary. Flowery (adjective); Wallflower (noun). https://dictionary.cambridge.org/dictionary/learner-english/flowery ; https://dictionary.cambridge.org/us/dictionary/english/wallflower (accessed 25 October 2026).

12. Cambridge Dictionary. Flower power; Flower child. https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/flower-power ; https://dictionary.cambridge.org/us/dictionary/english/flower-child (accessed 25 October 2026).

ЗНАЧЕНИЕ ЖАНРОВЫХ ТРАНСФОРМАЦИЙ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ СИСТЕМЕ СОВРЕМЕННОЙ РУССКОЙ ПРОЗЫ

Сафарова С.Б.
Навоийский государственный университет
ORCID:0009-0001-1570-133; +99894-187-81-11

Abstract. *The article explores genre transformations in contemporary Russian prose, focusing on L. Ulitskaya's novels Medea and Her Children, The Kukotsky Case, and The Green Tent. The study analyzes the hybridization of the novel structure, network composition, and the category of memory as a plot-forming factor, demonstrating the author's innovation in redefining the classical humanistic tradition.*

Keywords: *modern Russian prose, L. Ulitskaya, genre transformation, hybrid structure, family chronicle, psychologism, category of memory, postmodern aesthetics.*

Annotatsiya. *Maqola L. Ulitskayaning «Medeya va uning bolalari», «Kukotskiy ishi» va «Yashil chodir» romanlari misolida hozirgi zamon rus nasridagi janr transformatsiyalarini tadqiq etishga bag‘ishlangan, bunda roman tarkibining gibridlashuvi, tarmoqli kompozitsiya va xotira kategoriyasi tahlil qilinadi. For additional translations of keywords or article titles, please provide them for further processing.*

Kalit so‘zlar: *zamonaviy rus nasri, L. Ulitskaya, janr transformatsiyasi, gibrid tuzilma, oilaviy xronika, psixologizm, xotira kategoriyasi, postmodernistik estetika.*

Аннотация. *Статья посвящена исследованию жанровых трансформаций в современной русской прозе на примере романов Л. Улицкой «Медея и её дети», «Казус Кукоцкого» и «Зелёный шатёр». В работе анализируются гибридизация романной структуры, сетевая композиция и категория памяти как сюжетообразующий фактор, доказывающие новаторство автора в переосмыслении классической гуманистической традиции.*

Ключевые слова: *жанровая трансформация, гибридная структура, семейная хроника, психологизм, категория памяти, постмодернистская эстетика.*

Творчество Л. Улицкой занимает особое место в литературном процессе конца XX – начала XXI века, поскольку именно в её романах наиболее последовательно проявляются процессы жанровой трансформации современного романа. Писательница не только сохраняет отдельные черты классической романной традиции, но и существенно расширяет границы жанра, соединяя элементы семейной хроники, психологического романа, философской прозы, исторического повествования и документального письма. В результате произведения Улицкой становятся примером новой художественной модели, отражающей изменение представлений о человеке, истории и структуре литературного текста.

Современный роман всё чаще рассматривается исследователями как жанр принципиально открытый, способный включать различные повествовательные формы и речевые практики.[39] В литературе начала XXI века наблюдается отказ от строгих жанровых границ, характерных для классической эстетики. На смену устойчивым жанровым моделям приходит гибридная структура произведения, основанная на взаимодействии различных художественных систем. Именно подобная тенденция определяет специфику прозы Л. Улицкой.

Одной из важнейших особенностей жанровой трансформации в романах Улицкой становится соединение частной человеческой истории с масштабным историческим контекстом. В классическом романе исторические события чаще всего выступали фоном для развития сюжета, тогда как в произведениях Улицкой история проникает непосредственно во внутренний мир человека, определяя его психологическое состояние, систему ценностей и судьбу.

